ABDUMAJITOV AVAZJON SHUHRAT O'G'LI

RANGTASVIR

DARSLIK



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

A.SH.ABDUMAJITOV

“60210400 – Dizayn: interyer dizayni”ta’lim yo‘nalishi

RANGTASVIR

fanidan 1–kurs talabalari uchun darslik
(I qism)

ZEBO PRINTS
CHIRCHIQ–2026

UDK

Abdumajitov A.Sh. Rangtasvir. Darslik. -T.: “ZEBO PRINTS”, 2026. 228 b.

TAQRIZCHILAR:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori p.f.n B.B.Baymetov

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti “Tasviriy san’at” kafedrasi p.f.d., professor S.S.Bulatov

Mazkur darslik “60210400 — Dizayn: interyer dizayni” ta’lim yo‘nalishining 1–kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda rangtasvir bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar yoritilgan. Darslikda tasviriy san’at haqida dastlabki ma’umotlar, ranglar va ularning paydo bo‘lishi, rangtasvir va uning janrlari, rangtasvir haqida tushuncha, realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari, Gipsdan ishlangan o‘simlik shakllarining bir qismi, (rozetka) ishtirokida natyurmort (grizayl usulida) ishlash, Kuz in’omlaridan tuzilgan natyurmortlar tasvirlash, akvarel texnikasi, Me’morchilik shakllari ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishlash (dekorativ usulda), Xona interyerida va mato buklamlaridan tuzilgan natyurmort, Baxor gullaridan tuzilgan natyurmort dekorativ yo‘nalishda (lola, nastarin va turli xil gullar bo‘lishi mumkin) tasvirlash, Arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishlash (kapitel), rangtasvirda ishlatiladigan xomashyolar va jihozlar kabi ko‘plab mavzular nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

Darslikdan “60210400 — Dizayn: interyer dizayni” ta’lim yo‘nalishining 1–kurs talabalari qatorida, undan ilmiy izlanuvchilar, kasb–hunar kollejlari, litseylar, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari va havaskor rassomlar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur darslik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-uil 22-apreldagi 9249-sonli ma’lumotnomasi asosida nashrga ruxsat etilgan.

ISBN

© Abdumajitov A.Sh., 2026
© “Zebo prints”, 2026

Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan
hamohang bo‘lmasa, mamlakat
rivojlanmaydi.
Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Bugun ertangi kunga ishonch bilan intilayotgan, yangicha tafakkur, g‘ayrat va shijoat bilan yangi avlod vakillari maydonga kirib kelayotgan yangi O‘zbekiston zaminida mustaqillikni mustahkamlashni barqaror taraqqiyotni ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni asrab avaylashda ma’naviy tarbiyaning ahamiyati yanada kuchaymoqda.

Tasviriy san’at ma’naviy tarbiyaning negizi sifatida maydonga chiqdi. Hozirgi zamon yoshlari o‘zlariga ma’naviy ozuqa beruvchi san’at asarlari muntazam o‘rganib ularning ma’naviy dunyosini boyitib bormoqda.

Tasviriy san’at namoyondalari tomonidan yaratilgan va yangidan yaratilayotgan keng ko‘lamdagi asarlardan boy tariximiz, ajdodlarimiz turmush tarzi qanday bo‘lganligini, yoshlar ularni qunt bilan o‘rganib boy tariximiz va ajdodlarimiz yaratgan san’atni qadriga yetishni xis qilmoqdalar.

Tasviriy san’at shunday go‘zal ijodki unda har bir o‘quvchi yoki rassom tabiat go‘zalligini, narsa va buyumlar go‘zalligini, inson ichki his tuyg‘ularini o‘z ko‘rinishi shaklida tasvirlaydi.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay olg‘a rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekiston oldida endilikda bir qancha muhim vazifa va muammolar turibdi. XXI asrga dadil qadamlar bilan kirib kelgan jonajon yurtimizning kelajagi ilm-fan, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

Barkamol shahsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo‘lib kelgan, ammo bugungi sifat o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada kuchayib, bunga talab ortib bormoqda. Hozirgi globallashuv

va jadal raqamli transformatsiya davrida san’at va ijod sohalaridagi mutaxassislardan nafaqat yuqori darajadagi badiiy mahorat, balki zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha mustahkam kompetensiya ham talab etilmoqda. An’anaviy rangtasvir san’ati ham shunday o‘zgarishlarga yuz tutmoqda, bunda raqamli vositalar san’atkorning ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish va barcha sohalarni raqamlashtirishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF–6079-sonli Farmoni bilan mustahkamlangan.[1] Ushbu Farmon ijodiy ta’lim tizimi oldiga talabalarning kreativ kompetensiyasini zamonaviy raqamli vositalar yordamida rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

Ushbu darslik aynan shu strategik talablardan kelib chiqib tayyorlandi. U rangtasvir fanining poydevori hisoblangan rangshunoslik, kompozitsiya va chiziqli perspektiva kabi fundamental bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni ochiq manbali Krita grafik dasturi imkoniyatlari bilan integratsiya qiladi. Darslikning mavzulariga kiritilgan amaliy mashg‘ulotlar bevosita Krita dars muhitida bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu o‘quvchilarga an’anaviy rangtasvir qoidalarini raqamli ijodiy muhitda qo‘llash malakasini beradi.

Mazkur darslik an'anaviy ta'lim metodikasini raqamli usullar bilan takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni kelajakning raqamli san'at bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashni maqsad qilgan.

Respublikaning turli oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida yoshlarga milliy san’at namunalarini o‘qitishning ilmiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **Farmoni**. 2020-yil 5-oktyabr, **PF–6079-son**.

asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko‘plab amaliy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san’atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san’at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida oliy o‘quv yurti Tasviriy san’at ta’lim yo‘nalishlarida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqozo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni yuklaydi.

Tasviriy san’at fani umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog‘liqlikni ta’minlaydi. Tasviriy san’at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o‘zlashtira olmaydi.

Tasviriy va amaliy san’at eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasi. Bobokalonlarimizning hayot yo‘lini, go‘zallikka bo‘lgan intilishini o‘tmishdan saqlab qolingan ana Shunday moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o‘rgana boramiz.

Yoshlarni tarbiyalashda estetik tarbiya muammolariga doimiy va jiddiy e’tibor, insonni qurshab olgan borliqdagi go‘zallikka, barcha yoshlarni san’at olamiga yaqinlashtirish, haqiqiy barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyatimizning bugungi kundagi oldiga qo‘ygan eng yuksak mas’uliyatli vazifalardan biri hisoblanmoqda.

San’at bilan muloqot hozirgi barkamol avlod tarbiyasi uchun hayotiy muammo bo‘lib kelmoqda. Bu esa yosh avlod uchun hayotni bilishning kuchli tayanchi va vositasidir. San’at shunday tarbiyaviy kuchga egaki, badiiy asarlardagi qaxramonlarning tajribalari idrok etuvchining hayolida, kechinmalarida estetik hissiyotida qayta ishlanib, uning o‘z tajribasiga aylanadi, yangi xissiyotlarni, yangi insoniy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Tasviriy san’atning rivojlanish tarixi

Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha yangi tasviriy vositalarning rivojlanishi rangtasvir qonun-qoidalarini san’at, shuningdek hunarmandchilik sifatida koʻrsatib kelgan[2].

Rangtasviri fanini oʻrganish uchun birinchi ish qurollar va jihozlar kerak boʻladi. Tasviriy sanatning paydo boʻlishi, rivojlanish jarayonlari va insoniyatning ilk badiiy ijod namunalari ibtidoiy toʻda davriga borib taqaladi. Gʻorlardagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan haykalchalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor estetik bezaklar shuni koʻrsatadiki; san’at, hali inson badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan.San’atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich boʻlgan.

Jamiyat hayotining ruhiy va iqtisodiy asoslari endi shakllanayotgan bu davrni tarixchi va arxeolog olimlar oʻzlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida tasviriy san’atning dastlabki yodgorliklari yuqori poleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydilar. Ularning yozishicha ijod namunalarinig shakillanishi ibtidoiy jamoa tuzumining nisbatan yetilishi, urugʻchilikning shakllanishi, matriarxatning paydo boʻlishi bilan bogʻliq.

Ibtidoiy san’atning ilk namunalarida ovchilik bilan shugʻullangan inson oʻz muhitini - ov manzaralarini aks ettirib gʻorlarning devorlariga, qoyatoshlar va boshqalarga ishlagan tasvirlarida (boʻyab, boʻrtma hosil qilib ishlangan), loydan tayyorlangan, toshni yoʻnib ishlagan haykallarida ovlanadigan hayvonlar (zubr, ot, kiyik, mamont, yovvoyi hayvonlar va b.), odamzotlarni (koʻproq ayollar)ni ifodalagan (Fransiyaning La-Ferrasi, Lasko gʻorlari, Ispaniyaning Altamira gʻori, Sahroi Kabirning Tassilin-Ajar degan joyidagi qadimgi odamlar yashagan qarorgoxlar va b.). Ibtidoiy san’atkorlar tasviriy san’atning hamma turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) ga mansub asarlarida hayotni

[2] U.Sh.Ismatov. Rangtasvir. Oʻquv qoʻllanma. “Nazokathon ziyo print”. Chirchiq-2023.

sinchkovlik bilan kuzatganlari koʻzga tashlanadi. Odam va odamsifat maxluqlar, qoʻl izlari, chizma belgilar va boshqa tasvirlar kam uchraydi. Gʻordagi tasvirlar qora, qizil, sariq va jigarrang mineral boʻyoqlar bilan ishlangan, barelyef koʻrinishidagi tasvirlar kam, sodda realizmga xos haykaltaroshlik (odam va hayvon shakllari), badiiy (suyak va yogʻoch) oʻymakorlik namunalari paydo boʻlgan. Tabiat ibtidoiy afsonalarga asoslangan insoniy sifatlarga ega boʻlgan obrazlarda aks ettirilgan. Me'morlik rivojlanib, uylar yertoʻla tarzida dumaloq, toʻrtburchak shaklida qurilgan, bunday xonalarga uzun yoʻlaklar orqali kirilgan. Ba'zan xom-ashyolar sifatida yirik hayvonlarning suyaklaridan foydalanilgan. Bunday san'at namunalari Ukraina, Belorussiya, Sibirdan koʻplab topilgan. Ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka oʻtilishi san'atda yangi an'analarni yuzaga keltirgan. Mehnatga munosabat va faoliyatining kengayishi natijasida odamlarning fikrlash doirasi ham kengaydi.

Qadimiy qabilalarning bir necha ming yillar davomidagi taraqqiyoti, ularning koʻz qarashlari, qoʻl harakatlarining mayinlashuvi, asosiy va harakterli holatni koʻrish, his qilish, tabiatga xos shakllar uygʻunligi va goʻzallikni ilgʻash qobiliyatlarini shakllantirgan. Tabiat hodisalarining eng sodda shakllariga ham hayratlanish hissi bilan qaragan odam uni oʻrgandi, oʻzlashtirdi. Natijada "obraz" tushunchasi vujudga kelib, ular soʻzda tasvirda, ohanglarda oʻz aksini topdi. Atrof-muhitdan oʻylamasdan nus'ha koʻchirish emas, balki tabiatni, hayotiy mehnat tajribalarini ijodiy ifodalash malakasi paydo boʻla boshladi. Qattiq jismlardan tosh, yogʻochdan ishlangan mehnat quroli bilan ishlash jarayonida odamlar narsalarning xususiyatlari va turlari bilan tanishish, boʻrtma va yuzaning oʻziga hosliklarini aniq ilgʻash hamda uni qabul qilishga oʻrgandilar. Bunda ovchilik hayvonot olamining xulq-atvorini kuzatish imkoniyatini berdi.

Odamlar mehnat jarayonida shakl tuygʻusini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundirdilar.

Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat qurollarining unumi ularda o’z qurollariga nisbatan mehr tuyg‘ularini uyg‘ota bordi. Ular o’z qurollariga bezak berish orqali o’zlarining mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go’zallik va xunukliklarni his etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo’ydi. San’atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to’g‘risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o’z avlodi tajribalaridan bahramand bo’lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da’vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.[3]

Ibtidoiy odam samarali ov natijasini bir-biriga bayon qilish natijasida, hayvonot dunyosining o‘ziga xos ajoyib harakatlarini ilg‘ay bordi va ularni tasvirlarda ham aks ettirish harakatini kashf qildi.

Tosh asri davri sanat asarlari tabiiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan bo‘lib, qadimiy odam kundalik mehnat faoliyatining in’kosi sifatida o‘z-o‘zidan tug‘ilgan dunyoqarashi natijasidir. Bu davrda inson hayoti mehnat qilish jarayoni, afsonalar majmui, san’at, sehr va ibtidoiy ilmiy tasavvurlar bo‘linmagan, yaxlit holda edi. Ibtidoiy odam o‘zini tabiatdan ajratmaydi, balki unga sehrli tasir etish mumkin deb hisoblaydi va buning asosida tabiatni sehr kuchi bilan o‘zgartirish mumkin degan fikr yuritadi.

[3] X.X.Muratov., Qalamtasvir, O‘quv qo‘llanma, TOSHKENT IJOD-PRINT 2020., 6-bet



1.Rasm. G‘or devorlariga chizilgan ilk su’ratlar

Ilk insoniyat fikr va g‘oyalarida ov ko‘rinishlarini sahnalashtiruvchi ovchilar o‘yini, o’zlari yashagan makonlaridagi g‘orlarga, tog‘ qoyalariga, turli jonzotlarning terilariga, toshlarga chizilgan naqshlar, jonivorlarni tasvirlovchi chiziqlar afsunkor urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ibtidoiy odam tasavvuri bo‘yicha ovda muvaffaqqiyat qozonishni taminlashi kerak edi. Jonivorlarni tasvirlay bilishi asosida odamda xuddi ular ustidan g‘alabani qo‘lga kiritganday hissiyot mujassam edi. Bu fantastik fikrlashida insonning dunyoni egallashga bo‘lgan intilishi o‘z aksini topgan. Ushbu ilk ijodiy yaratuvchanlik jarayonida estetik tushunchaning dastlabki kurtaklari mavjud bo‘lib, shu asosda tasviriy sanat rivojlandi.[4]

[4]U.Sh.Ismatov. Rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. “Nazokathon ziyo print”. Chirchiq-2023.

I bob. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR

I.1-§. Rantasvir uchun zarur moddiy texnik baza va ish qurollari

Rangtasviri fanini o‘rganish uchun birinchi ish qurollar va jihozlar kerak bo‘ladi. Ular quyidagilardir: Akvarel, guash, tempera, akril, moybo‘yoq hamda bugungi kun talabi bo‘lgan raqamli uskunalar va aqilli sensorli planshetlar. Chizish uchun qalam, mo‘yqalam, masxitin, qalam, sangina, pastel, ko‘mir tayoqchalar, etyudnik, maxsus moslamalar, planshet va shu kabilar kiradi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ushbu bo‘limda ana shu materiallar bilan yaqindan tanishtiramiz. Ushbu materiallarnni bilmasdan turib, kerakli maqsadga erishish qiyin albatta.

Hayvonat dunyosining o‘ziga xos ajoyib harakatlarini va ov manzaralarini tasvirlashga bo‘lgan qiziqishlari natijasida sekin astalik bilan turli ranglar yaratila boshlandi. Ilk bor ibtidoiy jamoa davrida yashagan inson rangni kashf qilgan. Hayvonlar qoni, moy, ko‘mir, tuproq ham o‘sha davrlarda ishlangan bo‘yoqlarning tarkibiy qismi bo‘lgan. Bo‘yoqlarni tayyorlash malakalari hozirgi kungacha ham o‘zgarishsiz yetib kelgan, lekin asosiy tarkibiy qismlari va ishlab-chiqarish texnikasi o‘zgarib ketgan.

Bo‘yoqlar pigment va bog‘lovchi vositalardan tarkib topadi. Pigment (lot. Pigmentum)- bu bo‘yovchi modda hisoblanadi.

Italyan rassomi, me’mori va yozuvchisi Jorjo Vazari 1550-1568 yillarda birinchi “San’at tarixi” kitobini yozadi va bu kitobida moybo‘yoqni kashf etgan aka-uka Yan van-Eyklar haqida ma’lumot beradi. Moybo‘yoq rangtasvirda XV asrdan buyon qo‘llanila boshlandi. Shungacha kartinalar, ayniqsa yog‘ochga ishlangan rasmlar tuxumli tempera bilan ishlangan. Bu kartinalarni yaratishda rantasvir uchun murakkab materiallar va bog‘lovchi elementlardan foydalanganlar. Lekin, ular qisqa vaqtda ishdan chiqqan va bo‘yoqni yana tayyorlash zarur bo‘lgan. Bo‘yoqlarda bog‘lovchi vosita sifatida moylardan foydalanila boshlagandan keyin, bo‘yoq tayyorlash jarayoni bir muncha osonlashadi. Bundan tashqari bo‘yoqlarning

yorqinligi va ranglarning aniqligi oshdi. Turli bo‘yoq qatlamlarini bir-biriga qo‘yilishi nozik rang nyuanslarini keltirib chiqardi.

Rangtasvir - rang san’ati. Rangtasvir - xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta’sir o‘tkazuvchi tasviriy san’at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo‘yoqlar (moybo‘yoq, tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san’at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomashabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan, rangtasvirdagi eng asosiy ta’sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi.

Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzluksiz bo‘yoq qatlamini hosil qiluvchi bo‘yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rangtasvirida qog‘ozda bo‘yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligiga ta’sir qilmaydi, chunki bo‘yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangning tasviriy va ta’sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo‘lgan erkinlik va to‘liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko‘rsatish, muhim detallarini bo‘rttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassiligini berish mumkin.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko‘riladi.

Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o‘zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Bularning hammasi tasviriy san’atda grafik materiallarda ishlash orqali yoritilib beriladi[5].

[5] U.Sh.Ismatov. Rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. “Nazokathon ziyo print”. Chirchiq-2023.

Akvarel

Akvarelda rangtasvir ishlash uzoq tarix va boy an’analarga ega. 3500 yillar oldin inson kitob yozish va unga rasmlar ishlashni boshladi, bu bilan u akvarel rangtasviriga asos solganligini bilmas edi. Yozishda qo‘llanadigan Cuperuspapirus o‘simligini topib, misrliklar bunga birinchi qadamni tashlagan edilar.



2.Rasm. Akvarel bo‘yog‘i

Oxiratda yer yuzida nima qilganligini ollohga ko‘rsatishlari uchun bu yaratilgan kitoblarni uning mualliflari bilan ko‘mishgan. Bu kitoblarga rasm ishlashda jigarrang uchun tabiiy oxra va siena, qizil rang uchun kinovar, qora rang uchun kuydirilgan iva, oq bo‘yoq uchun gips kabi minerallar asosida yaratilgan shaffof bo‘yoqlardan foydalanilgan. Bu bo‘yoqlar tuxum sarig‘i va gummiarabik bilan qo‘shib tayyorlanib, suv bilan suyultirilardi. Boshqacha qilib aytganda bu hozirda biz ishlatib kelayotgan akvarel bo‘yog‘i edi. Yuqorida aytib o‘tilgan ilk akvareldan hozirgi zamonaviy akvarel bo‘yog‘i shakli, rangi va janrning asosiy xususiyatlari ancha o‘zgarganiligini kuzatish mumkin, lekin bo‘yoqning tarkibi o‘shaligicha qolgan.[6] Shuningdek o‘sha davrlarda akvarelning Yaponiya va Xitoyda ham ishlatilgani ma’lum. Ipakka ishlovchi rassomlar akvarelda ishlashni hayratlanarli yuqori cho‘qqiga ko‘targanlar. U davrda asosan qaynoq batikni eslatuvchi shirmalarni

[6] Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27

bezatish uchun ishlatilgan roketlarga ishlash juda keng tarqalgan edi. O‘zining jozibadorligi va nafisligi bilan bu ishlar hatto zamonaviy kishilarni ham hayratga soladi. Xitoyda esa chinniga rangtasvir ishlash o‘zining yengil, mo‘jizaviy ranglar uyg‘unligi bilan akvarel texnikasini yodga soladi.

Rangtasvirda ishlashning bir turi bo‘lgan shu texnikada bajarilgan asarlar hamda suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar akvarel deb atalib, lotincha aqua – suv (fransuzskogo – aquarelle) ma’noni bildiradi. Bo‘yoqni eritishda suvdan foydalanadi va shu sababli nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. Akvarel – o‘zining shaffofligi bilan boshqa bo‘yoqlardan alohida ajralib turadi. Bunga nafaqat qo‘llaniladigan materiallar sifati, balki yuqori darajada ishlov berilib maxsus tayyorlangan sifatli bo‘yoq kukunlaridan tayyorlanganligi hisobiga erishiladi.

Shaffof bo‘yoqlarga oq bo‘yoq aralashtirilib tayyorlangan akvarel bo‘yog‘i yuqorida ta’kidlanganidek antik davrdayoq Qadimgi Misrda, undan tashqari o‘rta asrlarda esa Osiyo va Yevropa qit’alarida ishlatilganligi ma’lum. Rassomlarning papirus va guruch po‘stloqlariga ishlangan asarlari bizgacha yetib kelgan. O‘rta asrlarda Yevropa va Rusda cherkov kitoblarini (qo‘lyozmalardagi naqshlar, bosh harflarni bo‘yashda ishlatilgan) bezashda, keyinchalik minatyura asarlarini ishlashda akvarel bo‘yog‘idan foydalanilgan.[7]

Taxminan XII asrlarda Forsda paydo bo‘lib, butun Sharqqa tarqalgan kitobga minatyura rangtasvirlari ishlash orqali akvarel rangtasviri rivojlana boshladi.

Qadimgi qo‘lyozmalarga illyustratsiyalar ishlash minatyura rangtasviri paydo bo‘lishiga olib keldi. “Minatyura” atamasi lotin tilida qizil bo‘yoq – “minium” so‘zidan olingan. Turli xalqlarning qadimiy qo‘lyozmalariga ishlangan ajoyib minatyura rangtasvirlari bizgacha yetib kelgan.

[7] Бурчик А.И. “Основы акварельной живописи”. Учебное пособие, Гродно, 2014. 2-б.

XVII-XVIII asrlarda akvarel koʻpgina san’at turlari: gravyura, eskiz, kartina va freskalarning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Akvarel koʻplab grafika va rangtasir materiallari bilan qoʻshib aralash texnikada (guash, tempera, pastel bilan) keng qoʻllanila boshladi. Oʻsha davrdagi mashhur rassomlar ichida akvarelga murojaat qilmagan rassomlarni topish juda qiyin edi.

Akvarel - rangtasvir (tusning boyligi, shakl qurilishi va rangda fazoviylik) va grafika (tasvirni ifodalashda qogʻozning ahamiyati) xususiyatlarini oʻzaro birlashtiradi. Tasvirga harakat hamda jilvalanish effektini beradigan yuvib va oqizib ishlash – bu akvarelga xos usullar hisoblanadi. Moʻyqalamda ishlanadigan rangtasvir koʻpincha avval qalamda chizib olinadi.

XV – XVII asrlarda akvarel amaliy bezak sifatida gravyura, rangtasvir asari va devoriy suratlarning eskizlarini boʻyash uchun qoʻllanilardi. Golland va flamand rassomlari hamda Dyurerning manzaralari bunga misol boʻla oladi. Shu davrda akvarel A. Dyurer va kichik Gans Golbeynlar diqqatini oʻziga tortdi. Birinchi marta shu davrda A. Dyurer tomonidan akvarel boʻyogʻining texnik imkoniyatlari keng ochib berildi. Akvarel boʻyogʻini oʻzi qoʻlda tayyorlab, unda ajoyib rangtasvir ishlarini yaratdi. Bu vaqtda Dyurer atigi 17-18 yoshda edi. XVIII asrga kelibgina Angliya, keyinchalik Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda akvarel mustaqil rangtasvir turi sifatida koʻzga tashlana boshladi. Angliya akvarelning ilk vatani deb hisoblanadi. Angliyaning tinmay oʻzgarib turadigan atmosfera sharoiti, oʻziga xos tumanli iqlimiy tabiati shaffof boʻyoq sifatida akvarel texnikasining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratdi.

XVII asrda Angliya akvareli rangtasvir sifatlari osha borib, shaffof bir xil rangli monoxrom usuldan ranglarga boy rangtasvir texnikasiga aylana bordi.

Angliya akvarel maktabini Jon Kozens, Tyorner, Konstabl, Richard Bonington, Tomas Gertin kabi mashhur rassomlar boshqarardi. Ular oʻzgaruvchan havo va quyoshdan tushayotgan xira yorugʻlikda fazoviy perspektivani ifodalash imkonini beruvchi

ajoyib akvarel texnikasini ishlab chiqdilar.[8] Sof akvarel (oq bo‘yoq qo‘shilmagan) XV asr boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi. Ranglarning tozaligi, bo‘yoqning shaffofligi, bo‘yoqlar orasidan asosning tusi va fakturasi (asosan qog‘oz, ba’zida ipak va fil suyagi)ning aks etib turishi – uning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Kuzatilayotgan ko‘rinishni akvarelda tezkor tasvirlash imkoniyati mavjudligi, unda fazoviylikni ifodalash qulayligi XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab akvarelning manzara janrida keng qo‘llanila boshlanishiga sabab bo‘ldi. Akvarelda rangtasvir ijod qilish o‘ziga kasb qilgan birinchi rassomlar paydo bo‘ldi. Juda ko‘p mashhur rassomlar qatorida taniqli Battista Jovanini ham akvarelning xususiyatlaridan mohirona foydalangan. Battista Jovannining chizish usuli qiyin ko‘rinsa ham o‘rgansa bo‘ladigan jihatlari ko‘p. Rassomning asarlari yengil chizilgan chiziqlar suvli mo‘yqalamda yuvish yo‘li bilan birga olib boriladi. Uning chizmatasvirlarini unga yaqin bo‘lgan tugallangan mo‘jaz rangtasviri bilan solishtirsangiz ajoyib, nafis chiziqlarning o‘zidayoq rassom kompozitsiyaning asosiy ilk g‘oyasini ifodalab qo‘yganining guvohi bo‘lasiz.[9] Boshqa rassomlar tomonidan ham yuvish va pero bilan chiziqlar chizish yo‘li bilan akvareldagi ranglar ko‘lami umumlashtirilgan, nam qog‘ozlarda bir xil tusdagi yorqin bo‘lmagan manzaralar bajarilardi. Buyuk Britaniyada (A.Dj.R.Kozens, T.Gyortin), Fransiyada (J.O.Fragonar, Y.Rober), Rossiyada (F.Y.Alekseev, M.M.Ivanov, S.F.Shedrin, F.M.Matveyev va boshqalar).

XIX asrning ikkinchi choragida Italiyada quruq oq qog‘ozga qarama-qarshi rang-tuslar, yorug‘-soyalar, jarangdor va to‘yingan ranglarda bajarilgan ko‘p qatlamli akvarel rangtasviri paydo bo‘ldi. Rangtasvir materiali sifatida akvarel – fazoviylik, shaffoflik va noziklik kabi asosiy xususiyatlari bilan ko‘plab rassomlarning diqqatini o‘ziga jalb qildi. Umumiy rangtasvir rivoji ta’sirida akvarel

[8] R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo “Navruz”. T– 2013. 7-б.

[9] Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27

texnikasi asta-sekin boyib, takomillashib tasviriy san’atning mustaqil turiga aylana bordi.

O‘zining afzalliklari va badiiy qiymati jihatidan moybo‘yoqda bajarilgan kartinalardan aslo qolishmaydigan va yuksak darajadagi imkoniyatlarga ega bo‘lgan dastgohli akvarel rangtasviri paydo bo‘ldi. Dastgohli akvarel bilan bir vaqtda illyustratsiya va me’moriy sohada qo‘llaniladigan akvarel texnikasi ham rivojlana bordi.Rossiyada bu janrda K.P.Bryullov va A.A.Ivanov kabi rassomlar ijod qilishdi.

P.F. Sokolovning shaklga katta, yaxlit rang surtmalari berib, o‘ziga xos maydalab ishlov berilgan ajoyib portret rangtasvirlari mitti portret ishlash san’atida yangi davrni boshlab berdi. U qog‘ozga oq bo‘yoqsiz toza ranglarda ishlardi. Rassom akvarelning shaffoflik va fazoviylik kabi asosiy imkoniyatlaridan unumli foydalanardi. Mitti portretlari hayratlanarli darajadagi oddiyligi, ranglar ko‘lamining jilvadorligi va suratlarning jozibadorligi bilan kishini o‘ziga jalb qilardi. (“Yashil ko‘ylakdagi ayol portreti”, “Yosh zobit portreti”) XIX asrda akvarel rangtasviri sezilarli darajada rivojlandi. Ko‘p rassomlar ishlari uchun rangtasvir ishlashdagi erkinlik, tus ko‘lamlarining xilma-xilligi va koloristik yechim xarakterli edi. Bu davrda Fransiyada E.Delakrua, O.Dome, P.Gavarni, Germaniyada A.Mensel, Rossiyada I.E Repin, V.I.Surikov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning akvarel texnikasida ishlagan ajoyib ishlari ma’lum. Angliya maktabi gullab yashnadi (R.Bonington, Dj.S.Kotmen, I.Kellou, I.Tyorner).

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus akvarel rangtasviri tarixiga “San’at olami” guruhi a’zolari va ular atrofidagi rassomlar o‘zlarining katta ulushlarini qo‘shdilar.

Yuqori kasbiy mahorat va san’atning zamonaviy tilini izlash yo‘lidagi umumiy maqsad sari intilish har xil ijodkorlarni birlashtirib turar edi.

Akvarel texnikasida erkin va oddiy ishlash XX asr uchun rassomlari ijodining xarakterli tomoni edi. Ko‘pgina rassomlar

asarlarida grafika va rangtasvirning qo‘shilish holatini kuzatish mumkin. “San’at olami” guruhining A.Y.Golovin, L.S.Bakst, D.N.Kardovskiy, F.A.Malyavin, M.V.Dobujinskiy, K.F.Yuon, B.M.Kustodiyev, Z.S.Serebryakova kabi ko‘pgina a’zolari o‘z asarlarida akvarelni oq bo‘yoq, guash, tempera, pastel, bronza va boshqa materiallar bilan qo‘shib ishlashni ma’qul ko‘rishagan. Lekin K.A.Somova, A.N.Benua va A.P.Ostroumova-Lebedeva ijodida sof akvarel texnikasining saqlanganini kuzatish mumkin.

G.S.Vereyskiy, V.M.Konashevich, N.A.Tirsa, K.I.Rudakov, N.N.Kupreyanov, V.V.Lebedev, L.A.Bruni, P.V.Miturich, S.V.Gerasimov, A.V.Fonvizin, L.V.Soyfertis kabi rassomlar o‘ziga xos yorqin va original ranglarda ishlab rus dastgohli akvarel rangtasviri an’analarini davom ettirib keladilar.[10] Akvarel texnikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, unda o‘ziga xos rangtasvir ishlash tilini topish yo‘lida izlanish Respublikamiz rassomlari ijodida ham o‘z aksini topdi. Mashhur rassomlarning akvarel ishlari O‘zbekistonda rangtasirning bu turi rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Vatanimizning takrorlanmas go‘zalliklaridan ilhomlangan O‘. Tansiqboev, K. Cheprakov, I. Yurovskiy, G.

Shevyakov,V. Akulin, G.I. Chiganov, Y.I. Taldikin va boshqa mashhur rassomlar katta mahorat bilan o‘zining ko‘plab asarlarini yaratdilar. Bu tasviriy san’at ustalari lirik, kishi ruhiyatini ko‘taruvchi tabiat go‘zalliklari va ona zamin ne’matlarini mo‘yqalamning yengil harakatlari bilan akvarelda ajoyib asarlar yaratdilar.

Keksa avlod keyingi avlodga yuksak va ezgu maqsadlar yo‘lida san’atga nisbatan o‘zlarining chin muhabbatlari, o‘zlarining tajriba va ko‘nikmalarini me’ros qilib qoldirdilar. Barcha eng yaxshi an’nalarni qabul qilib olgan yosh avlod shaxsiy ijodiy yutuqlari bilan yurtimiz akvarel rangtasviri rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Oxirgi yillarda o‘zbek akvarel rangtasviri ajoyib

rassomlar R. Choriev, M. Sodiqov, G‘. Boymatov, V. Apuxtin va boshqa yangi iste’dodlar bilan boyidi.

Rang va texnik sifatlari jihatdan Marat Sodiqovning akvarel asarlari juda yuksak qiymatga ega. Har xil rang quymalaridan foydalanib kompozitsiyalarida o‘ziga xos go‘zal koloritdagi takrorlanmas asarlar yaratdi. Rang surtmalarining aniqligi, kerakli joyda kuchaytirish, ba’zi joylarda rang jo‘shqinligini so‘ndirish kabi akvarelning texnik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish rassomning yuksak mahoratini belgilab turibdi. Kishi ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir qiluvchi, badiiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlari o‘ziga xos mazmuni bilan tomashabinni o‘ziga rom etadi.

N.D. Ten, M.N. Nabiyev, N.P. Bannikov badiiy-grafika fakulteti pedagog-rassomlari ham akvarel rangtasvirida ijod qilishdi. Akvarel rangtasviri xususiyatlari o‘ziga xosligidan mohirona foydalanib, juda ko‘plab shogirdlari, pedagog-rassomlarga ular o‘z tajribalarini me’ros qilib qoldirdilar. Shunday ajoyib rangtasvir ustalaridan dars olgan R.Sh. Xalilov, M. Djumashevlar ham akvarelning respublikamizdagi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Olam go‘zal va jozibador, kishini to‘lqinlantiruvchi dunyo ko‘rinishlari, uning go‘zalliklari, murakkabligi va ko‘pqirraligini turli ranglar orqali tomashabinga yetkaza olish – bu san’atning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda akvarelchi rassomlar ham turli usullarda bu vazifaning yechimini topib, akvarelda ajoyib obrazlarni yaratishmoqda.

Akvarel rangtasviri texnikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqidagi keltirilgan qisqacha akvarel tarixi rangtasvirning bu turi qanchalik ommaviylashib ketganligini isbotlab turibdi. Kimdir uchun akvarel kartinalarga eskiz ishlashda qo‘llaniladigan oddiy material, boshqalar uchun moybo‘yoqdan kam ahamiyat kasb etmaydigan, uchinchi guruh rassomlari uchun asosiy ijodiy faoliyat turiga aylanganligining guvohi bo‘lamiz. Avloddan-avlodga o‘tgan sari akvarelning texnik qo‘llanishi va usullari

takomillasha borib, uni baholash kriteriyalari aniqlandi, keng texnik vositalar, har xil ishlash usullari va janrlari paydo boʻldi.

Mashhur rassomlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlar akvarel texnikasida ishlash vositalari va undan foydalanish imkoniyatlari cheksiz ekanligini isbotlab turibli. Buyumlar shakli va fakturasini ifodalashda yetarli darajadagi tajriba, texnikani toʻgʻri tanlash va rangtasvir ishlash mahorati orqali yorugʻlik va ranglarga boy, gʻaroyib obrazlar xilma-xilligiga erishish mumkin.

Akvarel asosan fazoviy koʻrinishlardagi nozik rang va tuslar koʻlamini ifodalashda katta imkoniyatlarga ega. Kasbiy tayyorgarlikka ega akvarelchi rassom uchun bu boʻyoq texnikasida – oʻzgaruvchan atrof muhit, yoritilganlik holati, buyumlar materiali, fazodagi planlilikni berish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birgalikda akvarelchi rassomdan an’anaviy akvarel rangtasviri usul va texnikalarini qoʻllash koʻnikmalarini mukammal oʻzlashtirish, tasvirlash asoslari, materiallarning oʻziga xos xususiyati va tarkibini oʻrganishda sinchkov boʻlishga oʻrgatadi. Sirtdan qaraganda yengil koʻringani bilan akvarel rangtasviri boshqa rangtasvir turlariga (guash, tempera, moybo‘yoq) nisbatan ma’lum darajada qiyin hisoblanadi. Bunday qiyinchiliklar buzilgan akvarel rangtasviriga tuzatishlar kiritilganda yoki ustidan ishlanganda qogʻoz yuzasi buzilishi va qorayib ketishi bilan izohlanadi. “Shuning uchun ishni boshlash oldidan rassom nimani tasvirlashni hohlashi va uni qanday amalga oshirish haqidagi aniq tasavvurga ega boʻlishi kerak”, - deb yozadi rus rassomi A.P. Ostroumova-Lebedeva.

Rang qatlamlarining shaffofligidan foydalanib ishlanadigan an’anaviy akademik akvarel ishlash usulini oʻrgatishning hozirda aniq metodikasi ishlab chiqilgan va yuqori darajada oʻzlashtirilgan. Oʻtgan asrning ikkinchi yarmida akvarel rangtasvirining tarixiy rivojlanishidagi materiallar, texnik usullar, obrazlar va boy tipik sifatlari, avval foydalanilmagan akvarelning yangi qirralarini ochib berdi.

Akvarelning tipik sifatlari asosan ikki faktor: materiallar (qog‘oz, bo‘yoq, suv, bo‘yoqqa qo‘shimcha ashyolar) va muallifning ijodkorlik xususiyatlari orqali aniqlanadi. Tizimdagi birinchi tarkibni avvaldan tahlil qilish, tizimlash, va hatto aniq belgioash ham mumkin (har xil sintetik va tabiiy qo‘shimchalardan foydalanib yaratilayotgan ishning texnik natijalarini avvaldan aniqlasa bo‘ladi), ikkinchi faktor butunlay rassomning xarakter xususiyatlari va birinchi navbatda uning improvizatsion qobiliyati va tafakkur kengligiga bog‘liq. Badiiy ta’lim amaliyotida bu ikki faktor ajralmasdir.

Akvarel rangtasviri ranglar qatlamining keng diapazondagi shaffoflik (tasvirlash jarayonidagi qog‘ozning o‘rni) xususiyati va suvli bo‘yoqning yoyilishi, harakati, ta’sirchanligi bilan xarakterlanadi. Aynan mana shu sifatlar akvarelning xususiyatini aniqlab beradi. Zamonaviy akvarel rangtasviri rassomdan nafaqat rangtasvirning akademik qonun-qoidalari to‘g‘risidagi bilimlar, balki rangtasvir ishlash jarayonidagi harakat va tezkor obrazli fikrlashni ham talab qiladi.

Akvarelning yoyiluvchanligi natijasida paydo bo‘ladigan texnik effektlar muallif tomonidan oldindan aniq belgilanishining iloji yo‘q. O‘ziga xosligi, betakrorligi, oldindan aytib bo‘lmasligi, bu akvarelning eng noyob sifatlari hisoblanadi. Oxirgi natijani ko‘zdan qochirmagan holda ishlash, asosiy g‘oyani saqlash bilan birga vazifaga tuzatishlar kirita olish akvarelchi rassom uchun eng zarur mahorat sanaladi. Boshqa texnika va materiallardan foydalanib akvareldagi obrazlarni bajarib bo‘lmasligi akvarelning qanchalik noyob ekanligi va uning tasviriy san’at morfologiyasi tizimida mustaqil tur sifatida ahamiyati katta ekanligining isboti bo‘lib turibdi. Zamonaviy an’analar asosida akvarel rangtasvirining rivojlanishi badiiy ta’limdagi har xil mutaxassislikdagi rassomlar tayyorlanadigan o‘quv jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Akvarel – maxsus badiiy ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan rangtasvir turlaridan biri hisoblanadi. Bu eng avvalo tasvirlash asoslari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, ranglar uyg‘unligini yaratish, rang-tusga oid kompozitsiyalar tuzish, uch o‘lchamlilik, fazoviylik, materiallik va boshqa ko‘rinishlarni ifodalash jarayonida ishlatish uchun nisbatan qulayligi bilan izohlanadi.[11]

Guash

Guash bo‘yog‘i esa akvarel bo‘yog‘ining tamoman aksi bo‘lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug‘likni yutganligi sababli uning tagidagi qog‘oz ko‘rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo‘yoq kukuni va uni bog‘lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog‘och yelimi bilan mo‘tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo‘ladi. Guash bo‘yog‘ining yana bir muhim jihati uning oq bo‘yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir.



3. Rasm. Guash bo‘yog‘i

Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo‘yoqni ishlatish uchun mo‘yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo‘lmasligi, bir oz dag‘alroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya’ni qog‘oz yoki karton ham silliq bo‘lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo‘lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo‘yog‘ini yaxshi surtish mumkin bo‘ladi. Guash ko‘pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman

[11] X.E.Sultanov. RANGTASVIR (Akvarelda natyurmort ishlash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019., 6-11 b.

rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo‘shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo‘yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo‘yoq surtilgan paytda to‘q, qurigandan keyin esa ochlashib ko‘rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so‘ng unga bir oz boshqa qo‘shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to‘q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo‘lak qog‘ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so‘ng qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Guash bo‘yog‘ida juda ko‘p o‘tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma’lum. Ularning bir-biridan ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san’ati xazinasidan o‘rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo‘lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo‘yoqlari o‘chib, to‘kilib ta’mir talab bo‘lib qolganligi sir emas. Guash bo‘yog‘ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo‘yqalam tutgan ma’qul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Guash bo‘yog‘ida ranglavha va ayniqsa portretlar, hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo‘ladi. Tasvir ishlashning yo‘l-yo‘rig‘i, usullarini puxta egallash esa ko‘p amaliy mashg‘ulotlarni talab etadigan jarayondir. [12]

Katta-katta mahobatli asarlarning xomaki nusxalari hamda kompozitsiya loyihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

[12] Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 41-45.


I.2-§. Rangtasvir xonasini tashkil etish va jihozlash

Badiiy asarlar yaratish jarayonida tasviriy san’at uskunalari muhim o‘rin tutadi. Rangtasvir xonasini loyihalash o‘ziga xos jarayon bo‘lib, u talabalar va o‘qituvchilarning ijodiy ehtiyojlarini, shuningdek, xonaning funksionalligini hisobga olishni talab qiladi. Yoqimli va ilhomlantiruvchi ijodiy maydon yaratish uchun bir qancha tavsiyalar bor. Rangtasvir xonasini tashkil etish va jihozlash nafaqat ma’muriy yoki texnik vazifa, balki bevosita ta’lim jarayonining sifati va talabalarning ijodiy salohiyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi chuqur pedagogik ahamiyatga ega jarayondir. Zero, rangtasvir san’ati – yorug‘lik, rang va fazoviy muhitning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi, shuning uchun mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan xona ham ana shu talablarga to‘liq javob berishi lozim. Ushbu bo‘limda rangtasvir xonasini zamonaviy talablar asosida, samarali o‘quv jarayonini ta’minlash maqsadida qanday tashkil etish va jihozlash masalalari batafsil yoritiladi. Xonaning umumiy joylashuvi va hajmiga kelsak, rangtasvir xonasi, odatda, 60–90 kvadrat metr atrofida bo‘lishi tavsiya etiladi, bu esa 12–15 nafar talabaga bir vaqtning o‘zida qulay va yetarli ish joyini ta’minlaydi. Xona balandligi kamida 3.5–4 metr bo‘lishi shart, chunki bu kattaroq formatlarda ishlashga, shuningdek, yorug‘likni to‘g‘ri taqsimlashga imkon beradi. Eng muhim talablardan biri bu – yorug‘lik rejimidir. Rangtasvir mashg‘ulotlari uchun xonaning derazalari imkon qadar binoning shimoliy tomoniga qaragan bo‘lishi zarur, chunki shimoliy yorug‘lik kun davomida eng barqaror, bir tekis va yumshoq bo‘ladi; u ranglarni buzmaydi, o‘tkir soyalar hosil qilmaydi, bu esa talabaning ranglarni to‘g‘ri idrok etishi uchun asosiy shart hisoblanadi.




4. Rasm. Rangtasvir xonasi

Agar xonani shimolga yo‘naltirish imkoni bo‘lmasa, boshqa yo‘nalishdagi derazalarni maxsus parda yoki jaluzilar yordamida, ayniqsa quyosh nurining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushish vaqtlarida, doimiy ravishda yumshoq va tarqoq yorug‘lik hosil qilish uchun nazorat qilish talab etiladi. Tabiiy yorug‘likdan tashqari, zamonaviy rangtasvir xonasida sun’iy yorug‘lik tizimi ham mukammal tashkil etilishi kerak. Rangtasvir xonasidagi yorug‘lik tizimini yanada takomillashtirish zamonaviy talab hisoblanadi. Shimoliy yorug‘likning afzalligini hisobga olgan holda, sun’iy yorug‘lik tizimi ham shunday sozlanishi kerakki, u tabiiy yorug‘lik yetishmaganda uning o‘rnini to‘ldirishi zarur. Bu yerda rang haroratini o‘zgartirish (adjustable CCT) funksiyasiga ega bo‘lgan yoritish tizimlaridan foydalanish kerak. Ba’zi mashg‘ulotlarda (masalan, rang nazariyasini o‘rganishda) turli rang haroratidagi yorug‘likning ranglarga ta’sirini o‘rganish talab qilinadi. Bunday holda, yorug‘lik tizimi issiq (3000K), neytral (4000K) va sovuq (6500K) yorug‘lik rejimlariga tezda o‘tish imkonini berishi kerak.



5. Rasm. Zamonaviy yorug'lik tizimi

Bu talabalarga turli yoritish sharoitlarida ranglarning vizual o'zgarishlarini amaliyotda his qilishga yordam beradi, bu esa professional rassom va talaba uchun juda muhim ko'nikmadir.



6. Rasm. Sun'iy yorug'lik tizimi

Xonaning mebel va asbob-uskunalari jihatidan asosiy e'tibor ergonomika, moslashuvchanlik va amaliylikka qaratilishi kerak. Molbertlar – rangtasvir xonasining markaziy jihozidir. Ular balandligi sozlanadigan, ish yuzasini gorizontal holatdan deyarli vertikal holatgacha o'zgartirish imkonini beradigan, professional, yog'ochdan yasalgan A-ramka yoki H-ramka turida bo'lishi afzal.



7. Rasm. Rangtasvir ustaxonasi uchun dastgohlar

Har bir talabaga alohida molbert ta’minlanishi kerak. Molbertlar orasidagi masofa kamida 1.5–2 metr bo‘lishi kerak, bu talabalar bir-biriga xalaqit bermasdan ishlashiga, hamda rasmni orqaga chekinib, uzoq masofadan kuzatishga imkon beradi. Stollar va o‘rindiqlar ham balandligi sozlanadigan, qulay va yuvish oson materialdan yasalgan bo‘lishi lozim. Talabalar palitrani, bo‘yoqlarni, erituvchilarni qo‘yishlari uchun kichik, g‘ildirakli yon stollar (rolik stolchalar) mavjud bo‘lishi ish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Natyurmort maydoni – alohida e’tibor talab qiladi. Bu maydon xonaning yorug‘lik manbalariga nisbatan strategik joyida bo‘lishi kerak. U yerda natyurmortlar uchun ko‘p funksiyali stollar yoki maxsus podyumlar, turli rangdagi fon matolari (draperiya) va yorug‘likni manipulyatsiya qilish uchun ekranlar majmuasi bo‘lishi shart.

Moyli bo‘yoq zonasi (yog‘li rangtasvir): Bu zona eng kuchli ventilyatsiya tizimi bilan ta’minlangan bo‘lishi shart, chunki bu yerda skipidar, terpentin, va turli laklar kabi erituvchilar ishlatiladi.



8. Rasm. Ventilyatsiya tizimiga ega bo‘lgan o‘quv xonasi

Akvarel va guash zonasi (suvda eruvchan bo‘yoqlar): Bu zona ancha toza bo‘lib, asosan gorizontal yoki bir oz qiyalikdagi stollarni talab qiladi. Bu yerda suv manbalariga yaqinlik va qog‘ozlarni quritish uchun gorizontal joylar mavjud bo‘lishi kerak. Bu hududda namlikni bir oz balandroq darajada saqlash uchun sharoitlar yaratish talab qilinishi mumkin.

Materiallarni tayyorlash zonasi bo‘yoqlarni aralashtirish, gruntlash va laklash ishlari uchun mo‘ljallangan alohida kichik stol yoki peshtaxta mavjud bo‘lishi kerak.



9. Rasm. Ustaxona

O‘quvchilarga rangtasvir materiallari bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqoplar, zarur bo‘lsa respiratorlar)dan

foydalanish qoidalari to‘liq o‘rgatilishi kerak. Xona ichida birinchi yordam qutisi mavjud bo‘lishi talab etiladi. Devorlarda faqat neytral kulrang ranglar emas, balki talabalarning eng yaxshi ishlari, yoki tanlangan san’atkorlarning reproduksiyalari uchun maxsus ko‘rgazma maydoni ajratilishi mumkin. Bu maydon doimiy yangilanib turishi talabalarni rag‘batlantiradi va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni uyg‘otadi

Xonaning umumiy tartib-intizomi va tozaligi talabalarda professional studiya madaniyatini shakllantiradi. Har bir mashg‘ulot oxirida ish joyini tozalash va asbob-uskunalarni joyiga qo‘yish qat’iy qoidaga aylanishi kerak. O‘quv-usuliy ta’minot ham zamonaviy talablarga mos bo‘lishi kerak. Rangtasvir xonasida faqatgina jihozlar emas, balki ma’lumotlar bazasi ham raqamlashtirilgan bo‘lishi kerak. Masalan, barcha o‘quv materiallari, darsliklar (jumladan, bu darslikning raqamli versiyasi), taniqli rangtasvir ustalari asarlarining yuqori sifatli raqamli reproduksiyalari, rang nazariyasi bo‘yicha interaktiv diagrammalar va video darslar joylangan markaziy kompyuter bazasi mavjud bo‘lishi kerak. Bu ma’lumotlar proyektor orqali katta ekranda namoyish etish uchun qulay formatda saqlanadi. Rangtasvir xonasining umumiy maydonidan samarali foydalanish maqsadida, barcha mebellar modulli tizimda bo‘lishi kerak. Modulli tizim stollarni va molbertlarni tezda bir xil mashg‘ulot (masalan, natyurmort chizish) uchun doiraviy joylashuvdan, kompozitsiya tahlili uchun auditoriya tartibidagi joylashuvga o‘zgartirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ishlarni saqlash uchun maxsus quritish stellajlari (drying racks) va tugallanmagan rasmlarni ustida ishlashni davom ettirish uchun shkaf-kameralar (rasmlarni chang va tashqi ta’sirdan himoya qiladigan maxsus saqlash shkaflari) alohida ajratilishi zarur.



10. Rasm. Rasmlarni saqlash uchun stellaj

Ayniqsa, moyli bo‘yoq bilan ishlangan rasmlar uzoq vaqt quriydi, shuning uchun ularni gorizontal holatda joylashtirish uchun maxsus jihozlangan stellajlar bo‘lishi talab qilinadi. Rangtasvir xonasidagi pedagogik innovatsiyalar farmonda belgilanganidek, gibrid yondashuvga asoslanadi. Bu yerda grafik planshetlarni saqlash va zaryadlash stansiyalari alohida ajratilgan joyda bo‘lishi, har bir planshetning ish holati doimiy nazorat qilinishi kerak. Planshetlar bilan ishlash uchun stollar oddiy o‘quv stollaridan farqli o‘laroq, yuzasini qiyalik ostida o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, chunki bu rassomning qo‘li va bilagi uchun qulay ergonomik holatni ta’minlaydi va uzoq muddatli ishlashda charchoqni kamaytiradi. Dasturiy ta’minotning bir xilligi (ayniqsa, Krita kabi bepul dasturlarning barchada o‘rnatilganligi) o‘qituvchining darsni bir xil formatda olib borishini va talabalarning tezda o‘zlashtirishini ta’minlaydi.Bundan tashqari, sinfda skanerlash va ranglarni kalibrlash imkoniyati ham bo‘lishi shart. Talabalar o‘zlarining an’anaviy qog‘oz eskizlarini yuqori aniqlikda skanerlab, ularni raqamli muhitda ranglar bilan ishlashni davom ettirishlari, natijada gibrid asarlar yaratishlari mumkin.Bu jarayon rangtasvir ta’limida

yangi pedagogik yondashuvlarni, ya’ni an’anaviy ko‘nikmalarni raqamli vositalar bilan mustahkamlashni rag‘batlantiradi. Masalan, birinchi kursda talabalar grizayl texnikasini an’anaviy usulda o‘rganib, keyin shu bilimlarini Krita dasturida raqamli palitra va qatlamlar yordamida takomillashtirishlari mumkin. Bu uslub talabalarga rangtasvirning nazariy asoslarini buzmasdan turib, cheksiz rang va kompozitsiya tajribalarini o‘tkazishga imkon beradi, bu esa ularning ijodiy dadilligini oshiradi. Maxsus zonalarning tashkil etilishi rangtasvir xonasini samarali ishlatishning yana bir muhim shartidir.Talabalar turli xil texnikalarni o‘rganadilar, shuning uchun xonani turli materiallar bilan ishlashga mo‘ljallangan zonalarga ajratish kerak. Mashg‘ulotlar rejasi an’anaviy texnikalar (qog‘oz, mato, bo‘yoqlar) va raqamli vositalar (grafik planshet, Krita) o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi kerak.



11. Rasm. Grafik planshetlar

Bu esa o‘qitish samaradorligini keskin oshiradi. Shuningdek, talabalarning o‘zlari ham o‘z ishlarini raqamli tarzda tahlil qilib, o‘zgarishlarni bevosita asarga zarar yetkazmasdan sinab ko‘rishlari mumkin. Masalan, an’anaviy rangtasvirda yorug‘lik yetishmasa, talaba rasmi qorong‘u ko‘rinishi mumkin, raqamli tahlil orqali u yorug‘likni manipulyatsiya qilish, ranglar to‘yinganligini o‘zgartirish

kabi jarayonlarni oʻrganishi mumkin. Rangtasvir xonasining barcha elementlari, yuqorida aytib oʻtilganidek, bir-birini toʻldirishi va ushbu maqsadlarga erishishga qaratilgan boʻlishi lozim. Talabalarga faqatgina rasm chizishni emas, balki ijodiy jarayonni samarali boshqarishni ham oʻrgatish, zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassisni yetishtirishning asosiy omilidir. Rangtasvir xonasi – bu oʻquv-uslubiy markaz, san'at ustaxonasi va raqamli laboratoriya vazifalarini bajaruvchi koʻp funksiyali makon boʻlishi kerak.

Bunday koʻp funksiyali makonni tashkil etishda quyidagi yuqori texnologik va pedagogik vositalarning integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega: avvalo, talabalarga qalam va ekran yordamida raqamli tasvirlarni yaratishga imkon beruvchi yuqori sifatli grafik planshetlar majmuasi zarur boʻladi. Bu uskuna, Sketchbook, Krita Photoshop, Procreate kabi grafik dasturlar orqali keng koʻlamli tasvirlarni yaratish va tahrirlash imkonini beradi, bu esa ularning raqamli mahoratini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni oʻz ichiga olgan tasviriy san'at xonasi, shu bilan birga, quyidagi noyob xususiyatlarga ega boʻlishi zarur. Tasviriy san'at, chizmachilik, grafik dizayn, modellashtirish va boshqa vizual jarayonlar uchun maxsus dasturlar bilan jihozlangan sensorli monitorlarga ega boʻlishi zarur. Bu talabalarga raqamli muhitda zamonaviy vositalardan foydalanish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.Auditoriyada kompyuterlardan tashqari, talabalarga tasvir va videolar bilan yanada interaktiv tarzda ishlash imkonini beruvchi turli interaktiv ekranlar boʻlishi kerak. Interfaol doska yoki sensorli ekranning mavjudligi oʻquvchilarga tasvirlar bilan ishlash va interfaol darslarni oʻtkazish imkonini beradi, bu yerda ular chizish bilan shugʻullanishi mumkin boʻladi. Raqamli tasvirlarni yaratish va ular bilan ishlash uchun raqamli kameralar, skanerlar, printerlar va boshqa jihozlar bilan jihozlanishi mumkin.



12. Rasm. Raqamli san’at ustaxonasi

Bu talabalarga raqamli vositalar yordamida yorug‘lik, kompozitsiya va tasviriy san’atning boshqa jihatlari bilan eksperiment o‘tkazish imkonini beradi. Auditoriyalarda 3D printerlarning bo‘lishi talabalarga o‘z san’at asarlarining jismoniy modellarini yaratish hamda turli materiallar va shakllar bilan tajriba qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, “Dizayn: interyer dizayni” yo‘nalishi uchun nihoyatda muhim bo‘lib, talabalarning ijodiy fikrlashini va g‘oyalarini real shaklda amalga oshirishga turtki beradi. Multimedia proyektorlari va audio uskunalari kabi qo‘shimcha jihozlar talabalarga o‘z ishlarini namoyish qilish va taqdimotlarni yanada dinamik va samaraliroq qilish imkonini beradi. Bu, shuningdek, interaktiv o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi.Baholash va fikr-mulohazalar uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim. Ishlarni topshirish, ijodiy

jarayonni baholash va muhokama qilish uchun onlayn platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining shaffofligini va samaradorligini ta’minlaydi.Zamonaviy tasviriy san’at xonasi qulaylik, funksionallik va zamonaviy dizaynni birlashtirishi kerak. Keng ish maydoni har bir talabaning barcha kerakli materiallarini (bo‘yoqlar, mo‘yqalamlar, qalamlar va boshqalar) joylashtirish uchun etarlicha katta bo‘lishi kerak, shuningdek, qulay ishlash uchun etarli hajmga ega bo‘lishi kerak. Bu, ilgari aytilganidek, sozlanishi mumkin bo‘lgan stul va o‘rindiqlar (orqa tayanchli stullar, balandligi sozlanadigan o‘rindiqlar) mavjudligini anglatadi, bu talabalarga optimal ishlash uchun o‘rindiqning balandligi va burchagini sozlash imkonini beradi. Materiallarni saqlash uchun esa javonlar, shkaflar va tortmalar jixozlarni tartibli saqlashga va bo‘sh joydan unumli foydalanishga yordam beradi. Nihoyat, ijodkorlik va ilhom muhitini yaratish uchun auditoriyada turli xil san’at asarlari, plakatlar, fotosuratlar va ijodiy ishlar bilan bezatilgan ilhomlantiruvchi bezak bo‘lishi kerak. Zamonaviy rangtasvir xonasi talabalarga erkin ijod qilish va ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradigan qulay, funksional va ilhomlantiruvchi makon bo‘lishi kerak.



13. Rasm. Smart planshet va raqamli rasm ishlash jarayoni

Nazorat savollari

1. Rangtasvir xonasining tavsiya etiladigan umumiy hajmi va balandligi qancha bo‘lishi kerak, va bu o‘lchamlar qanday pedagogik ahamiyatga ega?
2. Rangtasvir mashg‘ulotlari uchun xonaning derazalari qaysi tomonga qaragan bo‘lishi zarur va bu qoida yorug‘lik sifatini qanday ta’minlaydi?
3. Sun’iy yorug‘lik tizimi (adjustable CCT) rang nazariyasini o‘rganishda qanday turli rang haroratidagi (Kelvin) rejimlariga tezda o‘tish imkonini berishi kerak?
4. Rangtasvir xonasining devorlari ideal holda qanday rangda bo‘lishi tavsiya etiladi va bu rangning pedagogik asoslanishi nimadan iborat?
5. Ergonomik talablarga ko‘ra, talabalar bir-biriga xalaqit bermasdan ishlashlari uchun molbertlar orasidagi minimal masofa qancha bo‘lishi kerak?

6. Xavfsizlik talablari nuqtai nazaridan, moyli boʻyoqlar zonasi (erituvchilar ishlatiladigan joy) qanday turdagi maxsus tizim bilan ta’minlangan boʻlishi shart?

7. Materiallarni saqlash zonasi talablariga koʻra, kimyoviy moddalar (erituvchilar)ning Xavfsizlik Ma’lumotlar Varagʻi (MSDS) kim tomonidan oʻrganilishi shart?

8. Gibrid pedagogik yondashuv talabiga koʻra, mashgʻulotlar rejasi qaysi an’anaviy texnikalar va qaysi raqamli vositalar oʻrtasida muvozanatni ta’minlashi kerak?

9. Raqamli Integratsiya tizimida matnda keltirilgan ochiq manbali va qudratli grafik dastur qaysi va uning qatlamlar (layers) bilan ishlash imkoniyati qanday foyda beradi?

10. “Dizayn: interyer dizayni” talabalarining ijodiy fikrlashini real, jismoniy shaklda amalga oshirishga turtki beruvchi zamonaviy texnologik uskunani nomlang.

I.3-§. Rangshunoslik asoslari.Rang spektorlari

Rang spektrlari fan tarixidagi eng ajoyib va muhim kashfiyotlardan biridir. Ularni oʻrganish yorugʻlik va hatto koinotning tuzilishini tushunishimizda muhim yutuqlarga olib keldi. Keling, rang spektrlarini kashf qilish va oʻrganish tarixiga nazar solamiz. Qadim zamonlarda kamalakning nechta rangi borligini diqqat bilan koʻrib chiqish uchun hali juda koʻp aniq optik asboblar mavjud emas edi. Inson koʻzi har doim ham rangli gamutni aniq aniqlay olmaydi. Masalan, Aristotel faqat uchta asosiy rangni aniqladi - qizil, sariq va yashil. Ammo yapon madaniyatida an’anaviy yashil rang yoʻq, shuning uchun koʻtarilgan quyosh mamlakati aholisi kamalakda faqat oltita rang borligiga ishonishadi.

Dastlabki kuzatishlar yorugʻlikning rang spektrlarini birinchi kuzatishlar qadimgi davrlarda, odamlar ularni oʻrab turgan turli xil ranglardan xabardor boʻlishni boshlaganlarida amalga oshirilgan. Biroq, spektrlarni ilmiy oʻrganish faqat XVII asrda boshlangan. 1666-yilda ingliz olimi Isaak Nyuton yorugʻlik nurlari bilan bir qator

tajribalar oʻtkazdi. U oq yorugʻlikni shisha prizma orqali oʻtkazdi va yorugʻlik ranglar spektriga - qizildan binafsha ranggacha boʻlinishini payqadi. Bu uning “Optika” kitobida tasvirlangan mashhur kashfiyotiga olib keldi, va unda u oq yorugʻlik kamalakning barcha ranglari aralashmasidan iborat ekanligini ta'kidladi. XIX asrda fransuz fizigi Jan Baptiste Julien Fucault termal nurlanish va uning rang spektrlari bilan aloqasini oʻrganish ustida ishlagan holda spektrlar boʻyicha keyingi tadqiqotlar oʻtkazdi. Uning faoliyati termodinamika va fizikaning rivojlanishiga katta ta’sir koʻrsatdi. Agar siz olimlarning isbotlangan haqiqatidan soʻng, kamalakda qancha rang borligi, sayyoradagi barcha odamlar bu bayonotga rozi boʻlishdi deb oʻylasangiz, unda siz chuqur yanglishasiz. Xitoyda negadir ular kamalakda beshta rang borligiga ishonishadi - bu sayyoradagi elementlar soni bilan bir xil. Shu paytgacha Germaniya, Amerika, Angliya, Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlarda bolalarga kamalak olti rangdan iboratligi aytiladi. Nima uchun bu sodir boʻladi? Haqiqat shundaki, koʻk va bir-biriga juda oʻxshash, ular faqat chuqurlik darajasi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, bir qator tillarda “koʻk” va “havo rang” bir xil deb ataladi. Ingliz tilida bu ranglarni tasvirlash uchun faqat bitta umumiy soʻz bor. Shu sababli, kamalakda qancha rang borligi haqida hali ham bunday chalkashliklar mavjud. Kamalakdagi ranglar tartibi har doim oʻzgarmaydi, birinchi rang qizil boʻlib, u asta-sekin porlaydi va toʻq sariq rangga aylanadi. Oʻz navbatida, apelsin rang yanada yengilroq boʻladi va sariq rangga aylanadi. Sariq rang asta-sekin yashil rangga aylanadi, keyin koʻk rang paydo boʻladi, u suvli koʻk rangga aylanadi va kamalak spektrining oxirgi, yakuniy rangi binafsha rangga ega.



14. Rasm. Kamalak

Kolorit

Tasviriy san’at asarlaridagi turli ranglarning garmoniyasi, go‘zal tus birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi, bidiiy asardagi etakchi rangi kalorit deb ataladi. Rang aralashmalari rangtasvirda muhim bir vazifani bajaradi. Tuslari bir- biriga yaqin bo‘lgan ranglar o‘zaro birlashadilar. Ranglar o‘zaro tuslar orqali aralashganda, ular alohida jarangdorlik namoyon qilib, sifat o‘zgarishlari ko‘zga tashlanadi. Umumiy koloritdan ajralib qolgan rang nomuvofiq begona ko‘rinadi va tasviriy san’at asar yaxlitligiga putur yetkazadi. Tasviriy san’at asari barcha ranglarnig o‘zaro aralashtirish natijasida yaratiladi. Asarni yaxlitligiga zarar yetkazmagan holda yorqinligi yoki och-to‘qligi bo‘yicha birorta rang bo‘lagini o‘zgartirish, uni kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin bo‘lmaydi. Kolorit musavvirlarga tasvir kayfiyatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit sokin, jo‘shqin, xatarli, mayus bo‘lishi mumkin, shuningdek, ilik va sovuq, yorqin va bo‘g‘iq bo‘ladi. Buyuk rassomlar va ustozlarning o‘tmishida rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi. Kolorit tushunchasi XV asrning oxirlarida shakllanib, borokko davrida ravnaq topdi. Undan dastlabki o‘zgarishlar XV asr oxirlarida

namoyon bo‘la boshladi. Bu davrning rassomlar bo‘yoqlarni alohida-alohida qo‘shmasdan ranglarni silliq yedirma qilib, yarim soylarga ulashgan. Konstebelga, ayniqsa, imperessionchilarga kelib bu xol yanada keskinlashadi. Ajoyib rus san’atshunos olimi B.Vipperning ilmiy asarlari aynan rangtasvir kolorit tarixiga bag‘ishlangan. XV asrda Italiya, Frantsiya, Nemis musavvirlari tasvirlarida bo‘yoqlar bir-biriga nisbatan mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan. Bernard Dyurerning “Osvald Krel portreti” ushbu asarni kuzatar ekansiz asarning foni qizil rangi yorug‘da ham, soyada ham och yoki to‘q qizilligicha qolishiga e’tibor bering. Musavvvir go‘yo narsa va buyumlarni to‘lqinlantirayotgandek tasvirlaydi, qahramonlar qomatlari atrof fazoga kirib ketmagan, balki noaniq jigarrang, qizil fonda gavdalantirilgan.[13]

V. Surikov, V.Perov asarlarida kolorit - havorang, ko‘k sovuq ranglardan tashkil topgan edi. Ularning ko‘pchilik asarlari kumushrang koloritda tasvirlangan.



15-rasm. V.Suriko. Boyaryna Morozova

[13] O‘rinboy Nurtaev Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish o‘quv qo‘llanma 16-bet T.2020

M.Vrubel esa asarlarini kulrang-havorangda yoritgan, F.Maliavining koʻpchilik asarlari olovrang qizil kolorit bilan ajralib turadi. Koʻpincha kolorit milliylik, tabiiylik insoniylik xususiyatlari va uy roʻzgʻor buyumlarini aks ettirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Bu xususida “Milliy kolorit” tushunchasi toʻgʻrisida soʻz yuritiladi. Ch.Axmarov, R.Kent, M.Saryan asarlari bunga misol boʻla oladi. Xar bir musavvirning oʻziga mansub koloriti mavjud boʻlib, bunga uning ishlagan tasviriy san’at asarlari-umumiy palitrasi guvoh boʻla oladi.Tasviriy san’at asarlari ranglarning bir-birlariga ta’sirlarini nazarda tutish va ranglar uygʻunligi asosida tasvirlanishi zarur.Tasvirda toʻgʻri topilgan ranglar uygʻunligi, goʻzallikni anglay olish bilan birga, nafis san’at asar goʻzalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi. Rassomlar amaliy – bezak san’ati ishlarida va rang uygʻunliklari ustida bosh qotiradilar, shu bilan birga ular narsa va buyumlar asl ranglarini ramziy yoʻnalishlarga qarata oladilar. naqshda kolorit uygʻunligiga barcha elementlar, rang kontrastlar va ton jilolari yordamida erishiladi. Amaliy- bezak ishlarini bajarishda tanlangan rang, uning tasviriy boʻlaklari, ritmik joylashuvlari, nimaga moʻljallanganligi va nimadan yasalishi doimo nazarda tutiladi.Tabiatda muhim sharoitdan kelib chiqib buyumlar yoki narsalar rangi doimo oʻzgarib turadi. Bunda yorugʻlikning ahamiyati kattadir. Masalan bir natyurmortni kuzatib turib, bir buyumning tanib boʻlmas darajada oʻzgarib ketganini koʻrish mumkin. Agar buyumga tushayotgan yorugʻlik sovuq rang boʻlsa, soyalar iliq rang boʻlib va aksincha tushayotgan yorugʻlik iliq rang boʻlsa, soyalar sovuq rang boʻlib koʻrinadi. Yorugʻlik va ranglarning qarama - qarshiligi buyumning bukilgan joylarida, ya’ni shaklning burilishlarida shuningdek, qarama - qarshi fon bilan tutashuv chegaralarida aniq va ravshan idrok etiladi. Rassomlar tasviriy san’at asarlarini chizishda buyumlarning turli tuslarini ifodalashda yorugʻlik ranglarning qarama - qarshiligidan foydalanadilar. Och rangdagi narsalarni toʻq ranglilari yoniga quyilib, ranglar qarama - qarshiligi ranglar kuchaytiriladi va ular shu usulda shakl ifodasini

yoritishga erishadilar. Oq va qora fonlarda joylashgan bir xildagi kulrang to‘g‘ri to‘rt burchaklarni bir-biriga taqqoslab ko‘ring.

Ular bir necha xilda ko‘rinadi. Kulrang qora fonda asliga ko‘ra ochroq, oq fonda esa to‘qroq bo‘lib ko‘rinadi. Bu ranglar qarama - qarshiligi hodisalari yorug‘lik yoki yorqinlik ranglar qarama - qarshiligi deb ataladi.

Buyumlar rangi atrof-muhit foniga nisbatan idrok etiladi. Masalan oq dasturxon ustiga olov rang apelsin, dasturxon havorang, yashil olma pushti ranglarning hosil bo‘ladi. Chunki, narsalar rangiga nisbatan fon rangi qo‘shimcha rang tuslarini o‘zgartiradi. Kul rang fon qizil buyum yonida sovuq, ko‘k va yashil buyum yonida esa iliq bo‘lib ko‘rinadi.Qo‘shimcha ranglar bir-birlari yoki yorqinroq va to‘qroq bo‘lib ko‘rinadi. Bu jarayon asosiy ranglar orasida ham mavjud. Masalan, qizil pamidor, och ko‘k ranglar yonida yanada qizilroq, baqlajon sariq sholg‘om yonida yanada binafsharoq ko‘rinadi. Ko‘k va qizil rang qarama-qarshi ranglar timsolidir. Ko‘pchilik Yevropa rangtasvirchilari Titsian, Rubens, Ivanovlar yaratgan asarlar koloriti dramatik qarama-qarshiligi kuchaytirib turadi. Umuman olganda rang qarama-qarshiligi - deb ta’kidlaydi atoqli rus rassomi va olimi. I.Repin – asarda ranglarni bir-biriga qarshi qo‘yish rassomlarning asosiy uslubidir. Atrof olamda bir rangning ikkinchisiga ta’siri biz ko‘rgan misollarda bir muncha murakkab bo‘lib yorqinligi va rang qarama-qarshi katta ahamiyat kasb etadi. Rasm chizayotgan kishiga ranglarning amaldagi uyg‘unliklarini aniqroq ko‘rib his qilishga yordam beradi. Ular olgan bilimlaridan amaliy ishlarida foydalanadilar.



16. Rasm. V.Perov. Troyka

Ranglarning qarama-qarshiligi


Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo‘lg‘usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo‘lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta’sirida o‘zgarib ko‘rinishini, bo‘yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. O‘rta Osiyoda ranglar xaqidagi ta’limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, panolar ishlash bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishiga bog‘liq kimyoviy jarayonlarni o‘rgangan bo‘lish kerak. Ranglarni tabiatda qanday xosil bo‘lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg‘onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar “contrast” ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir biridan keskin farq qilib,


biri ikkinchisini yanada yorqin qilib koʻrsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang yorqin boʻlib koʻrinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, yaʻni ranglar uygʻunligini, bilish katta ahamiyatga ega. Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi boʻyoqlar ishlatiladi. Narslarni boʻyoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon boʻlib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi.

Qarama-qarshi ranglarning uchta juftligi mavjud: qizil-yashil, sariq-binafsha, toʻq sariq-koʻk. Bu eng qarama-qarshi kombinatsiyalarni tashkil etuvchi qarama-qarshi ranglardir. Masalan, elektr chirogʻi yorugʻida sariq ranglar oqarib, zangori ranglar yashiltob boʻlib koʻrinadi, qizil rang esa zargʻaldoqqa oʻxshab ketadi. Jigarranglar qizgʻish, baʼzan sargʻish boʻlib koʻrinadi. Ranglar doirasi toʻgʻrisida soʻz borganda koʻpgina qoʻllanmalarda har bir rangning kontrasti, yaʼni qarama-qarshi rangi uning pastki tomonida, toʻgʻrirogʻi, uning qarshisida turgan rang tusi hisoblanadi. Qarama-qarshi ranglar tomoshabin eʼtiborini tortadi, asarni yanada ifodali va qiziqarli qiladi. Baʼzi kontrast ranglar tomoshabinda maʼlum his-tuygʻularni uygʻotishi mumkin. Misol uchun, qizil va yashil oʻrtasidagi kontrast keskinlik tuygʻusini uygʻotishi mumkin. Kontrast ranglar dizayn yoki kompozitsiyaning asosiy elementlarini ajratib koʻrsatishga yordam beradi.

Qarama-qarshi ranglardan foydalanish, buyumda boʻshliq va chuqurlik hissi yaratishi mumkin. Rang kontrasti rassom qoʻlida kuchli vosita boʻlib, unga ifodali sanʼat asarlarini yaratishga imkon beradi. Bu vizual taʼsirni kuchaytirishga, qiziqarli kompozitsiyalar yaratishga va hissiyotlar va gʻoyalarni rang orqali yetkazishga yordam beradi.



17. Rasm. Qarama- qarshi (Kontrast) ranglar



18. Rasm. Qarama- qarshi (Kontrast) ranglar

Rangni optik va fazoviy aralashtirish.

Ma’lum bir masofadan unchalik katta bo‘lmagan va bir-biriga tegib turgan uchta rang bo‘lagi kuzatilganda ranglarning fazoviy birikmalarini ko‘rish mumkin. Masofada ranglarning birlashuvlari insonning ko‘z tuzilishida rang ajrata olish xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, optik birikuv qonuniyatlari asosida sodir bo‘ladi.


Ranglarni optik aralashtirish: Ranglarni optik aralashtirish san’at olamidagi ajoyib hodisalardan biridir. Bu ikki yoki undan ortiq ranglar bir-biri bilan aralashib, yangi va hayajonli ranglarni yaratishda yuzaga keladigan hodisa. Optik ranglarni aralashtirish ko‘z va miya ranglarni idrok etishi va izohlashi tamoyiliga asoslanadi. Ranglarning kuzatganda, ko‘zlar aslida mavjud bo‘lmagan yangi rangni sezadi.Ushbu hodisani ko‘plab sohalarda,

jumladan, tasvitiy san’atda kuzatish mumkin. Optik rang aralashtirish yillar davomida ko‘plab rassomlar tomonidan chuqurlik, hajm effektini yaratish va buyumning ayrim elementlariga e’tiborni jalb qilish uchun ishlatilgan. Optik ranglarni aralashtirishga misol “mozaik effect” deb ataladi. Ko‘plab kichik, rangli nuqta yoki bo‘laklardan tashkil topgan rasmni ko‘rganimizda, ko‘zlar bu ranglarni bir-biriga aralashtirib, birlashtirilgan tasvirni yaratadi. Shuni ta’kidlash kerakki, optik ranglarni aralashtirish har bir kishi tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Bu har bir insonning vizual tizimining individual xususiyatlari va uning oldingi tajribasi bilan bog‘liq. Har bir inson ranglarni turlicha talqin qilishi va idrok etishi mumkin, bu esa optik ranglarni aralashtirishni noyob va jozibali qiladi. Optik ranglarni aralashtirish orqali rassomlar va dizaynerlar jonli va chiroyli san’at asarlarini yaratish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ular ushbu texnikadan samarali kompozitsiyalar yaratish, tomoshabinlar e’tiborini jalb qilish va ma’lum bir kayfiyat yoki hissiyot yaratish uchun foydalanadilar. Natijada, ranglarning optik aralashuvi nafaqat tasviriy san’atning qiziqarli hodisasi, balki turli xil soyalar va ranglarni uyg‘unlashtirish va aralashtirish orqali hissiyotlar, kayfiyat va ma’nolarni etkazish usulidir. Bu dunyoni nafaqat oddiy ranglar orqali, balki ularning o‘zaro ta’siri va o‘zgarishi orqali ham ko‘rishga imkon beruvchi ajoyib vositadir.

Ranglarni fazoviy aralashtirish: Ranglarning fazoviy aralashuvi ma’lum masofada bir-biriga tegib turgan kichik rangli dog‘larga qarash orqali olinadi. Bu dog‘lar bitta doimiy nuqtaga birlashadi, ular kichik maydonlarning ranglarini aralashtirish natijasida olingan rangga ega bo‘ladi. Uzoqdagi tasvirlarni biz idrokimizdagi ranglarni aralashtirib, yumshoqroq, sokin ranglar yaratishimiz mumkin. Misol uchun, ufqdagi uzoq tog‘lar ko‘k osmon sababli tog‘larning rangi aralash ko‘k bo‘lib ko‘rinishi mumkin.

Ranglarni fazoviy aralashtirish tasvirdagi kontrastlik, chuqurlik va masofani ko‘rsatishga yordam beradi. Ranglarning fazoviy aralashuvida turli xil rangdagi nuqtalardan hosil bo‘lgan

hududlarni ma'lum masofadan koʻrishda siz ularning ranglarini ajratmaysiz, lekin rangni fazoviy aralashgan holda koʻrasiz. Rasmni ma'lum masofadan koʻrishda kichik koʻp rangli dogʻlar vizual ravishda birlashadi va bitta rang tuygʻusini uygʻotadi. Optik va fazoviy ranglarni aralashtirishga quyidagi impressionistik rasmlarni misol qilishimiz mumkin. Pol Sinyak, Klod Mone kabi rassomlar jonli manzaralarni yaratish uchun ranglarni optik aralashtirishdan foydalangan.



19. Rasm. Pol Sinyak. Poster kanali

Optik va fazoviy ranglarni aralashtirish rassomlar va dizaynerlarga qiziqarli, hissiy jihatdan boy va vizual jozibali san’at asarlarini yaratishga yordam beradigan kuchli vositadir.

Asosiy rang haqida (qizil, sariq va koʻk)

Rang **–** san’at, dizayn va kundalik hayotimizdagi eng muhim va ifodali elementlardan biridir. Bu bizning kayfiyatimizga ta’sir qiladi, his-tuygʻularni uygʻotadi va noyob vizual tajribalarni yaratadi.

Rang orasida uchta asosiy rang ajralib turadi: qizil, sariq va ko‘k. Bu ranglar alohida ma’noga ega va boshqa barcha ranglarni yaratish uchun asosdir.

Qizil rang xususiyatlari: Tuyg‘ular, ehtiros, energiya, sevgi, tajovuz. Qizil rang olov, qon, hayotiylik bilan bog‘liq va ko‘pincha diqqatni jalb qilish, muhim elementlarni ta’kidlash, kuch va ehtirosni ramziy qilish uchun ishlatiladi. Qizil rang san’atda dramatik va hissiyotli asarlar yaratish uchun ishlatiladi. Dizaynda u diqqatni tortadi va kontrast va urg‘u yaratish uchun ishlatiladi. Qizil rang spektrdagi eng jonli, baquvvat va hissiy jihatdan boy ranglardan biridir. Qizil rang bo‘yoqlar ichida o‘zining alohida xususiyati bilan ajralib turadi. Qizil bo‘yoqlar asosan: qirmizi, alvon rang, gulgun, baxmal rang, och qizil, to‘q qizil, och pushti, nim pushti, pushti, och safsar, nim safsar, siyoh rang, qizg‘ishtob, och binafsha, ko‘kish binafsha, qizg‘ish binafsha, to‘q binafsha va hokazolardan iborat. Qizil rangning zangoriga yaqinroq tuslari o‘zida sovuq ko‘rinishni aks ettiradi. Zangori rang qizil rangning barcha tonlari bilan zangori aralashtirsak safsar rangning barcha tonlari bilan aralashavermaydi safsar rangning xunuk ko‘rinishi hosil bo‘ladi. Qirmizi rang zangori bilan yaxshi aralashadi va binafsha hamda safsar ranglarning har xil tonlarini hosil qiladi (29-rasm).



20. Rasm. Qizil rangdan xosil bo‘lgan ranglar

Sariq rang xususiyatlari: Sariq yorqin, iliq va optimistik rang bo‘lib, diqqatni tortadi va quvonch hissi yaratadi. Uning tuzilishi uning kelib chiqishi, ramziyligi, san’at va dizayndagi idrok va foydalanishga ta’sirini belgilaydigan turli jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu rang quyosh, yorug‘lik, issiqlik, quvonch va baxt bilan bog‘liq. Ba’zi madaniyatlarda u boylik va farovonlik ramzi bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha iliq va quvonchli muhit yaratish va diqqatni jalb qilish uchun ishlatiladi. Sariq rang yengil va quvonchli asarlar yaratish,

optimizm va iliqlikni ta’kidlash uchun ishlatiladi. Dizaynda koʻpincha tasvirga yengillik va quvonch qoʻshish uchun ishlatiladi. Sariq ranglar ochiq va tiniq boʻlib, sariq pigmenti bor boʻlgan moddalardan olinadi. Sariq ranglarning eng yaxshi xususiyati shundaki, ularni xohlagan boʻyoq bilan aralashtirish mumkin. Boʻyoq qavati qogʻoz sirtiga surtilganda tekis yotadi. Suvda osonlik bilan eriydi. Bu rang, oʻz navbatida, zangori rang bilan aralashib, quyidagi tonlarni hosil qiladi; sargʻish, yashil, zumrad ranglar (30-rasm). Sariq rangning bir qancha tuslari; nim sariq, och sariq, sargʻishtab, toʻq sariq, kovak rang, malla, tuq malla pistoqi va hokazo tuslari boʻladi. sariq ranglar boshqa ranglar bilan aralashtirilganda ulardan hosil boʻladigan rang tuslarining oʻzgarishiga ya’ni biroz ochlashib, sargʻichiga moyil boʻlishigacha e’tibor berish lozim. Limon rang sariq rang tonlari ichida eng oʻtkirdir. Xosil boʻlgan rang oʻzining yoqimliligi bilan boshqa ranglardan ajralib turadi .Sariq rangning qizil bilan qoʻshilishidan esa zargʻaldaq rang hosil boʻladi. Agar sariq rang koʻproq qoʻshilsa -zargʻaldoq, och zargʻaldoq, qovoq rang va shu kabi tuslar, qizil rang koʻproq qoʻshilsa – toʻq zargʻoldoq, och qizil tuslar hosil boʻladi. Moyboʻyoqda- stronsion sariq-ravshan, limon tusidagi sariq rang, kronli sariq-och sariq, tiniq va nafis, qadimiy sariq och va toʻq yorugʻ tusdagisi esa oxra- jigarrang tondagi sariq, yorugʻ va ravshan tilla rang, jigarrang qizgʻish tuslardagi sariq rangli boʻyoqlar ishlatiladi. Sariq rang, asosan, yorugʻ joylarni, iliq tusdagi koʻrinishlarni tasvirlash uchun kerak. Natyurmort yoki ishlanadigan obyekt sariq rangli muhitda joylashgan boʻlsa, unda keng miqyosida sariq tonning ta’siri sezilib turadi. Rangtasvirda ham bu xildagi taassurotni sezdirish uchun sariq rangning kuchsizroq eritmasi bilan butun yuzani qoplab chiqish tavsiya etiladi. Natijada, sariqqa xos boʻlgan tusdagi koʻrinishi hosil boʻladi.



21. Rasm. Sariq rangdan xosil boʻlgan ranglar

Koʻk rang xotirjamlik, uygʻunlik, sovuqqonlik, ishonch, moviy rang osmon, suv, cheksizlik bilan bogʻliq. Koʻk rang sanʼatda koʻpincha hissiy jihatdan chuqur va sokin asarlar yaratish uchun ishlatiladi. Dizaynda undan nafislik, professionallik va ishonchni berish uchun foydalanish mumkin. Moviy rang palitradagi eng mashhur va muhim ranglardan biri boʻlib, osmon, suv, osoyishtalik va uygʻunlik bilan bogʻliq. Koʻk rang sovuq ranglarning butun bir gammasini tashkil qiladi. Sovuq rang hosil qilish uchun koʻk rang shu boʻyoq bilan aralashtiriladi yoki qogʻoz ustidan suriladi. Koʻk rang sariq rangning har xil tonlari bilan hamisha ham kerakli tonlarni hosil qilmaydi.Koʻk rangning och zangori, toʻq zangori, och havo rang, toʻq havo rang, feruza rang, bullur, koʻkish, koʻkish binafsha tuslari boʻladi. Moyboʻyoqda koʻk boʻyoqning ulturamarin (tniiq rangini eslatuvchi toʻq koʻk), kobalt (och havorangning har xil tondagi koʻrinishi), moviy rang (toʻq zangori) turlari bor. Koʻk rangning tiniq tonlarigina sariq hamda qizil ranglar bilan yaxshi aralashadi Yashil boʻyoqlar sariq rangning bevosita zangori rang bilan aralashuvidan hosil boʻladi. Sariq rangning taʼsiri koʻproq boʻlsa-sariqqa, zangori rangning taʼsiri koʻproq boʻlsa-zangoriga xos ton boʻladi.



22. Rasm. Koʻk rangdan xosil boʻlgan ranglar

Asosiy ranglarni aralashtirish: Ushbu uchta asosiy rang, qizil, sariq va koʻk ranglarni aralashtirib, boshqa koʻplab ranglarni yaratish mumkin. Bu jarayon rang aralashtirish deb ataladi. Misol uchun, qizil va sariq ranglarni aralashtirganda, biz toʻq sariq rangga ega boʻlamiz. Sariq va koʻkni aralashtirish yashil rangga, koʻk va qizil

rangni aralashtirish binafsha rangga aylanadi. Qizil, sariq va ko‘k uchta asosiy rang san’at, dizayn va umuman madaniyatimizda muhim rol o‘ynaydi. Ular turli xil his-tuyg‘ularni va bizning idrokimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu uchta rang cheksiz sonli kombinatsiyalarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

I.4-§. Ranglar psixologiyasi

Ranglar psixologiyasi ranglarning bizning hissiy holatimizga, kayfiyatimizga va inson xatti-harakatlariga ta’sirini o‘rganadi. Turli xil ranglar odamlarda turli xil his-tuyg‘ular va uyushmalarni uyg‘otishi mumkin va ulardan foydalanish atrofimizdagi dunyoni qanday idrok etishimizga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Muayyan ranglar bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy hissiy reaksiyalar:

Qora rang- Bu qarama-qarshiliklar rangi. Qora rang shaydolari hamisha jonbozlik ko‘rsatishga tayyorlar (ishda ham, musobaqalarda ham, ishqiy munosabatlarda ham). Biroq bunday insonlar maqsadlariga erishishda qiynaladilar, chunki ularning qarashlari xolisona emas, ular faqatgina o‘zlarini hamisha haq deb biladilar. Ular stabillikni yoqtiradilar, ammo shu bilan birga sarguzashtlarga ham tayyorlar – oqibati yomon bo‘lmasa bo‘lgani. Samimiyatni xush ko‘radilar, kelishuv bo‘yicha yashashni yoqtirmaydilar.

Oq rang- O‘ziga ishongan va chiqishimli insonlarning rangi. Bunday insonlar o‘zlarining g‘oyalari uchun oxirigacha kurasha oladilar, o‘zlariga ham, atrofdagilarga ham qattiqqo‘l bo‘ladilar. O‘ylagan narsalari amalga oshmay qolsa, hech kimni aybdor qilmaydilar, taqdirdan ko‘radilar.

Kul rang-. Kulrangni g‘amgin va ko‘rimsiz insonlar tanlaydilar degan gap noto‘g‘ri. Aslida bu rang ishqibozlari – mulohazalidirlar va yetti o‘lchab bir kesadilar. Ular osudalikni yoqtiradilar va ertangi kunga umid bilan qaraydilar.

Sariq rang- Bu quvonch rangi. Sariq rangni samimiy, ijodkor insonlar tanlaydilar, ular oqibati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar

sinovlarga hamisha tayyorlar. Asosiysi vaqtni qiziqarli o‘tkazadilar va bebaho tajribaga ega bo‘ladilar. Tashvishlari haqida hech kimga og‘iz ochmaydilar, azoblansalar yolg‘iz o‘zlari yengib o‘tadilar.


Moviy rang- Ushbu rang ishqibozlari kamtarin insonlar bo‘lib, hayotdagi har qanday vaziyatga moslasha oladilar va undan g‘olib sifatida chiqa oladilar. Ular kelishimli, ba’zan esa qat’iyatsiz ham bo‘lishlari mumkin. Bunday insonlar ko‘p charchaydilar, shuning uchun tez-tez dam olib turishlari kerak.

Yashil rang-Bu hayot va tabiat rangi. Bu rangni tanlagan insonlar qat’iyatlidirlar va jamiyatda o‘z mavqelarini belgilab olishga intiladilar. Ular birovlarning ko‘rsatmalarini yoqtirmaydilar va ularga amal qilmaydilar – o‘z bilganlaridan qolmaydilar. Kundalik hayotdagi kelishmovchiliklarga ahamiyat bermaydilar, birovga tobe bo‘lishni yoqtirmaydilar.

Siyoh rang- Bu rangni o‘zlariga ishonchi bo‘lmagan va atrofdagilardan najot qidirib yashovchi insonlar tanlaydilar. Ular hamisha bulutlarda uchib yuradilar, yaxshi hayotni istaydilar, biroq buning uchun harakat qilmay, birovlardan yordam kutadilar.

Qizil rang- Agar siz qizil rangni yoqtirsangiz, demak siz o‘ziga ishongan va qaysar insonsiz, boshlagan har qanday ishni oxirigacha yetkazishga harakat qilasiz. Shu bilan birga siz ehtirosga beriluvchan va qiziqqon shaxssiz – diqqat e’tiboringizni faqatgina bir narsaga qaratishga qiynalasiz. Siz xilma-xillikni yoqtirasiz, hayotingiz tinch va osuda kechsa, zerikishni boshlaysiz.

Ushbu hissiy reaksiyalar madaniy, psixologik va biologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ranglar turli madaniyatlarda turli xil ramziy ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, rangga bo‘lgan reyaksiyalar insondan odamga farq qilishi va har bir insonning shaxsiy tajribasiga bog‘liq.



23. Rasm. Insonning ranglar bilan bog‘liq psixologiyasi

I.5-§. Rang turlari, asosiy va qo‘shimcha ranglar

Asosiy ranglar: Biror bir ranglar aralashmasidan olish mumkin bo‘lmagan ranglar asosiy ranglar deyiladi. Qizil, sariq va ko‘k ranglar–asosiy ranglar hisoblanadi. Ularni bir hil aralashtirsak kulrang hosil bo‘ladi. Asosiy ranglarni aralashmasidan hosil bo‘lgan ranglar shartli ravishda tarkibiy ranglar deb yuritiladi. Bu zarg‘aldoq, yashil va siyohranglar hisoblanadi. Rang halqasida sariq rang o‘rtasidan diametr o‘tkazsak uning qarama–qarshi tomoni siyohrang o‘rtasidan o‘tadi. Zarg‘aldoq rangning qarama –qarshi tomonida ko‘k rang turibdi. Shu tartibda juftlari aniqlangan ranglar, shartli ravishda to‘ldiruvchi ranglar deyiladi. Qizil ranglarning to‘ldiruvchisi yashil rang bo‘ladi yoki yashil rangning to‘ldiruvchisi qizil rang bo‘ladi. Bu ranglar ohangdosh bo‘ladi va bir –birini to‘ldiradi. To‘ldiruvchi ranglar qator qo‘yilganda muvofiqlashuv qonuniga binoan yanada ochiqroq yoki yorug‘roq bo‘lib ko‘rinadi.

Aytaylik qizil rang yashil rang bilan yonma –yon qoʻyilsa boshqa rang qatorlariga nisbatan yanada ochiqroq va qizilroq boʻlib koʻrinadi. Lekin har qanday qizil rang ham har qanday yashil rang bilan toʻgʻri kelmasligi mumkin. Balki bu qizilda boshqa rang tuslari (yashil, koʻk, zargʻaldoq, sariq, siyohrang va boshqalar) mavjuddir. Agar shunday boʻlsa, masalan, qizil rangning tusi koʻk tusga yaqin boʻlsa, bunday rangning toʻldiruvchisi sariq- yashil boʻladi. Rang halqasi 12, 24 ta ranglardan iborat boʻlishi mumkin va ularni har bir yonma–yon turgan rang juftlari orasiga yangi tuslar qoʻshish hisobiga koʻpaytirish mumkin. Rang halqasi toʻldiruvchi ranglar va ularning juftlarini tuslarini aniqlashga yordam beradi. Har bir rang uchta asosiy xususiyatga: rang tusiga, rang toʻyinganligiga, rang yorqinligiga ega boʻladi. Xromatik ranglar ana shu uchta xossasiga koʻra bir-biridan farqlanadi. Rang tusi ranglarning toʻlqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu 7 xossasiga koʻra biz koʻz orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni koʻramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qoʻyiladigan rang nomlariga qaraganda ancha koʻpdir. Agar biror rangga oq rang qoʻshilsa, mazkur rang tusining toʻlqin uzunligi oʻzgarmaydi. Chunki oq rang qoʻshilganda faqatgina rang yorqinligi oʻzgaradi va u qaytarish koeffitsienti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq oʻlchash uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang yorqinigi ham xromatik ranglarning asosiy xossalaridan biri boʻlib, tushayotgan yorugʻlik nurini oʻzida koʻp yoki kam aks ettirishidir. Agar yorugʻlik nurlari koʻp aks etsa, biz rangni och tusda (masalan: och qizil, och sariq va xoqazolar), kam aks etsa, toʻq tusda (masalan: toʻq yashil, toʻq qizil) idrok qilamiz. Ranglarning bu xossasi barcha tusdagi ranglar uchun-xromatik ranglar uchun ham, axromatik ranglar uchun ham umumiy hisoblanadi. Shuning uchun ranglarni yorqinligi jixatidan bir-birlariga taqqoslab koʻrish mumkin boʻladi. Shuningdek, xromatik ranglarning yorqinligiga mos tushadigan (xromatik rang qarama-qarshiligi) xromatik tusni tanlab olish oson boʻladi. Rang tuslari spektr ranglariga qanchalik yaqinlashsa,

ularning yorqinligi shunchalik yaxshi boʻladi. Biz tevarak atrofimizdagi predmetlarning rangini ularning yorqinligiga qarab ajrata olamiz. Masalan, sariq limon koʻk datsurxondan yorqinroq koʻrinadi, va biz sariq rang koʻk rangdan yorqinroq ekanligini tushunamiz. Axromatik ranglar, kulrang, oq va qora ranglar faqat yorqinligiga qarab xarakterlanadi. Rang toʻyinganligi ham ikkala rang guruhiga xos narsa boʻlib, axromatik ranglardan koʻproq kulranglar shkalasiga, xromatik ranglarda esa koʻpincha spektr ranglariga solishtirish yoʻli bilan aniqlanadi. Rang tuslarining toʻyinganligi turlicha boʻladi. Masalan, birorta sariq rangni yorqinligi boʻyicha unga teng keladigan och qoʻl rang bilan aralashtirilsa, unda rang tusining toʻyinganligi birmuncha pasayadi, oqishroq yoki kam toʻyinganroq boʻlib koladi. Predmetlarning rangi ularning turgan sharoitiga qarab oʻzgarishi mumkin. Bunda yorugʻlik katta rol oʻynaydi. Agar predmetga tushib turgan yorugʻlik sovuq rangda boʻlsa, uning soyasi issiq rangda boʻladi.

Ranglar haqida umumiy tushuncha:

Rang doirasida rang tuslari juda koʻp. Ammo inson koʻzi ularnnig 150 taga yaqinini ajratadi. Ranglarning doira boʻylab joylanish tartibi doim saqlanadi. Rang doirasi ikki boʻlakka boʻlinsa, birinchi yarmida iliq ranglar-sariq, qizil, zargʻaldoq, sargʻish yashil, ikkinchi yarmida sovuq ranglar-yashil, havo rang, feruza, zangori, koʻk, binafsha ranglar joylashadi. Bunday nomlanishga sabab - sariq ranglar olovni, qizigan quyoshni, choʻgʻni eslatadi, havo rang, zangori, yashil koʻklar esa muzning, suvning yani sovuq narsalarni eslatadi. Bu farqlanish nisbiy boʻlib, har qanday iliq rang oʻziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq boʻlib koʻrinishi mumki, sovuq rang oʻzidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin. Rangning och toʻqligi, yani toni toʻlqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga koʻra biz koʻz orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektor ranglarni koʻramiz, hamda idrok qilamiz. Lekin rang tonlari ularga qoʻyiladigan rang nomlariga qaraganda ancha koʻp. Agar biror rangga oq rang qoʻshilsa, shu rang tonining toʻlqinlar

uzunligi oʻzgarmaydi. Chunki oq rang qoʻshilganda faqatgina rang yorqinligi oʻzgaradi va u qaytarish koeffisenti bilan ifodalanadi. “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa koʻchirish”, “Rangtasvir”, ”Kompozitsiya” darslarida ranglar bilan ishlashda koʻpchilik hollarda talabalar ranglarning oʻzbekcha nomlarini yaxshi bilmasliklari rangtasvir ishlashda, rang va rang tonlari toʻgrisida soʻz yuritilganda koʻzga yaqqol tashlanadi.

Boʻyoqlarning tonlari va ularning nomlari xilma-xil boʻlib, ular oʻzbek tilida atroflicha oʻrganilmagan. Shuning uchun rang toʻgrisida gapirilayotganda tabiatda bor boʻlgan narsalar, gullar, oʻsimliklar va shu kabilarning nomlaridan foydalaniladi. Masalan, baxmal rang, jiyda rang, bodam rang, olovrang, oʻt rang, yoki maysa rang va hokazo. Ammo bu xildagi shartli nomlari koʻpincha ranglarningg tonlarini aniq tasavvur qilish imkonini bermasligi mumkin. Shuning uchun boʻyoqlarnnig xususiyatlari bilan tanishishda ularning maxsus guruhlarga ajratib, bir-biriga bogʻlab oʻrgangan.

Sariq ranglar ochiq va tiniq boʻlib, sariq pigmenti bor boʻlgan moddalardan olinadi. Sariq ranglarning eng yaxshi xususiyati shundaki, ularni xohlagan boʻyoq bilan aralashtirish mumkin. Boʻyoq qavati qogʻoz sirtiga surtilganda tekis yotadi. Suvda osonlik bilan eriydi. Bu rang, oʻz navbatida, zangori rang bilan aralashib, quyidagi tonlarni hosil qiladi; sargʻish, yashil, tutaqi, zumrad ranglar.[14]

Sariq rangning bir qancha tuslari; nim sariq, och sariq, sargishtab, toʻq sariq,kovak rang, malla, toʻq malla pistoqi va hokazo tuslari boʻladi. sariq ranglar boshqa ranglar bilan aralashtirilganda ulardan hosil boʻladigan rang tuslarining oʻzgarishiga ya’ni biroz ochlashib, sargʻichiga moyil boʻlishigacha e’tibor berish lozim. Limon rang sariq rang tonlari ichida eng oʻtkirdir. Xosil boʻlgan rang oʻzining yoqimliligi bilan boshqa ranglardan ajralib turadi.Sariq

[14] Oʻrinboy Nurtaev Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa koʻchirish oʻquv qoʻllanma 10-bet T.2020

rangning qizil bilan qoʻshilishidan esa zargʻaldoq rang hosil boʻladi Agar sariq rang koʻproq qoʻshilsa -zargʻaldoq, och zargʻaldoq, qovoq rang va shu kabi tuslar, qizil rang koʻproq qoʻshilsa – toʻq zargʻoldoq, och qizil tuslar hosil boʻladi. Moyboʻyoqda- stronsion sariq-ravshan, limon tusidagi sariq rang, kronli sariq-och sariq, tiniq va nafis, qadimiy sariq och va toʻq yorugʻ tusdagisi esa oxra- jigarrang tondagi sariq, yorugʻ va ravshan tilla rang, jigarrang qizgʻish tuslardagi sariq rangli boʻyoqlar ishlatiladi. Sariq rang, asosan, yorugʻ joylarni, iliq tusdagi koʻrinishlarni tasvirlash uchun kerak. Natyurmort yoki ishlanadigan obyekt sariq rangli muhitda joylashgan boʻlsa, unda keng miqyosida sariq tonning ta'siri sezilib turadi. Rangtasvirda ham bu xildagi taassurotni sezdirish uchun sariq rangning kuchsizroq eritmasi bilan butun yuzani qoplab chiqish tavsiya etiladi. Natijada, sariqqa xos boʻlgan tusdagi koʻrinishi hosil boʻladi.

Qizil rang- boʻyoqlar ichida oʻzining alohida xususiyati bilan ajralib turadi. Qizil boʻyoqlar asosan: qirmizi, alvon rang, gulgun, baxmal rang, och qizil, toʻq qizil, och pushti, nim pushti, pushti, och safsar, nim safsar, siyoh rang, qizgʻishtob, och binafsha, koʻkish binafsha, qizgʻish binafsha, toʻq binafsha va hokazolardan iborat. Qizil rangning zangoriga yaqinroq tuslari oʻzida sovuq koʻrinishni aks ettiradi. Safsar hamda binafsha ranglarning sovuq jumlasidandir. Zangori rang qizil rangning barcha tonlari bilan zangori aralashtirsak safsar rangning barcha tonlari bilan aralashavermaydi safsar rangning xunuk koʻrinishi hosil boʻladi. Qirmizi rang zangori bilan yaxshi aralashadi va binafsha hamda safsar ranglarning har xil tonlarini hosil qiladi.

Koʻk rang- sovuq ranglarning butun bir gammasini tashkil qiladi. Sovuq rang hosil qilish uchun koʻk rang shu boʻyoq bilan aralashtiriladi yoki qogʻoz ustidan suriladi. Koʻk rang sariq rangning har xil tonlari bilan hamisha ham kerakli tonlarni hosil qilmaydi.[15]

[15] Oʻrinboy Nurtaev Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa koʻchirish oʻquv qoʻllanma 11-bet T.2020

Koʻk rangning och zangori, toʻq zangori, och havo rang, toʻq havo rang, feruza rang, bullur, koʻkish, koʻkish binafsha tuslari boʻladi. Moyboʻyoqda koʻk boʻyoqning ultramarin (tiniq rangini eslatuvchi toʻq koʻk), kobalt (och havorangning har xil tondagi koʻrinishi), moviy rang (toʻq zangori) turlari bor. Koʻk rangning tiniq tonlarigina sariq hamda qizil ranglar bilan yaxshi aralashadi Yashil boʻyoqlar sariq rangning bevosita zangori rang bilan aralashuvidan hosil boʻladi. Sariq rangning ta'siri koʻproq boʻlsa-sariqqa, zangori rangning ta'siri koʻproq boʻlsa-zangoriga xos ton boʻladi.

Qora rang- boshqa ranglardan oʻzining rangli qarama-qarshili xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qora rang yordamida axromatik butun bir kompozitsiyani topish mumkin. Uning har qanday xromatik rang bilan aralashmasi axromatik ranglarning yoki kerakli ranglarning xira tonini beradi. Qora rangning och qora, kul rang, nim kulrang, toʻq koʻk rang, qoramtir, koʻkish qoramtir, qoramtir jigarrang va hokazo tonlari boʻladi. Qora rangni zargʻaldoq, sariq, qizil, zangori, yashil va boshqa bir qancha ranglar bilan aralashtirish mumkin.

Jigar ranglar- qora rangning qizil, sariq va zargʻaldoq tonlari bilan aralashuvidan hosil boʻladi. Masalan, tabiiy siena tillasimon sariq rangli boʻyoq, oq rangga yaqin tonda. Kuydirilgan siena esa qizgʻish jigarrang, toʻq jigarrang, ba'zan yashil tonda tovlanadi, kuydirilgan umbra tiniq, ravshan sariq tondan toʻq sariq tongacha yoki qizgʻish tondagi toʻk jigarrang tonda boʻladi. Mars-chiroyli jigarrang tondadir. Bu ranglarni hosil qilish usulini har bir oʻquvchiga mashq qildirish lozim. Shunda ular yuqorida nomlari zikr etilgan ranglardan boshqalari ham mavjud ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Oq rang -akvarel bilan ishlashda qoʻllanilmaydi. Oq rang, asosan, guash, tempera bilan ishlashda qoʻllaniladi. Shuni esda tutish lozimki, oq rangning guash yoki temperaning boshqa ranglari bilan aralashmasi tiniq ton hosil qilmaydi. Naqshlarni (qogʻoz) boʻyashda oq rangning akvarel boʻyoqlari bilan aralashuvidan hosil


bo‘lgan tonlardan foydalaniladi. Chunki akvarel bo‘yoqlarining oq rang bilan aralashuvidan chiroyli rang tuslari hosil bo‘ladi. Axromatik hamda xromatik ranglarning oq rang bilan har qanday aralashmasi och tusni hosil qiladi. Oq rangning bu xususiyati esa naqshlarni bo‘yashda juda qo‘l keladi. Oq rang yordamida har bir rangning turli xil tonlari osonlik bilan yaxshi aralashadi. Oqrangning ham sut rang, ko‘kish rang, sadaf rang, qoramtir oq oqish va boshqa tonlari mavjud. Oq rangning o‘zgaruvchan tonlarining turlanishi ko‘pincha atrofda turgan yoki o‘ziga yaqinlashtirilgan buyumlarning ranglariga bog‘liq bo‘ladi. Chunki oq rangning yoniga qanday rangdagi buyum, material va hokazolar yaqinlashtirilsa, u darhol osonlik bilan shu tonni o‘zida aks ettiradi, ya’ni uchta rang toniga kiradi. Agar oq rang bilan boshqa rangdagi bir qancha buyum qorong‘i joyga qo‘yilsa, oq rang o‘zining oqlik xususiyatini saklab qoladi. Bunda oq rangning ko‘rinishi atrofdagi buyumlarga nisbatan olinadi. Binobarin, yorug‘lik nuri boshqa ranglarga qanchalik ta’sir etsa, oq rangga ham shunchalik ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib biz bu bo‘limda ranglarning qanday xosil bo‘lishi, axromatik va xromatik, issiq va sovuq turlari bilan tanishdik

Lokal ranglar: Predmetning lokal rangi bu bizning tasavvurimizdagi aniq predmetning obyektiv, o‘zgarmas xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan toza, aralashmagan ranglar hisoblanadi. Lokal rang biror-bir predmetning tashqi ta’sirlarsiz asosiy rangi hisoblanadi. Predmetning lokal rangi bir tonli bo‘lishi bilan birga turli jilvalardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Naturadan va xotiradan rasm chizishda predmetning lokal rangini xarakterli xususiyatlarni, uning yorug‘likda, yarimsoya va soyadagi ranggini bera olish juda muhim. Yorug‘lik, havo va boshqa ranglar ta’sirida lokal ranglar soya va erugda turlicha tonga kiradi. Quyosh yorug‘ligida predmetlarning aniq rangi shu predmetdagi yarim soyada aniq namoyon bo‘ladi, to‘liq soya tushib turgan joylarida esa yaxshi ko‘zga tashlanmaydi. Tajribali rassomlar predmetlarning lokal ranggini yorug‘likda ham soyada ham aniq

bera olishadi.Predmetdan tushib turgan soyada va uning oʻzidagi soyasida predmetning rangiga qoʻshimcha boʻlgan ranglar katnashadi. Masalan, qizil olma soyasida albatta yashil rang qatnashadi, chunki yashil rang qizil rang uchun qoʻshimcha rang hisoblanadi. Bundan tashqari soyada predmetning oʻzining rangiga nisbatan toʻqroq boʻlgan ton va koʻk rang boʻladi. Shuni esdan chikarmaslik lozimki, predmetning lokal rangiga uning atrofidagi narsalar ham ta’sir qiladi. Agar sariq olma yashil parda utsida yotgan boʻlsa bu olmada rangli refleks paydo boʻladi, olmaning shaxsiy soyasida esa yashil jilva paydo boʻladi.

Ranglar doirasi: Ranglar doirasi - bu asosiy va ikkilamchi ranglar ularni birlashtiruvchi tartibda joylashtirilgan doiradir.(1-rasm) Bu doira ranglarning qanday birlashishini va ularni qanday qilib aralashtirish orqali yaratish mumkinligini koʻrsatadi.Rang gʻildiragi rang olamidagi asosiy vosita boʻlib, rassomlar, dizaynerlar va rang bilan ishlaydigan har bir kishiga uni tushunish, birlashtirish va samarali ishlatishga yordam beradi. Bu doira doiraviy diagramma boʻlib, unda ranglar oʻzaro munosabatlari va oʻzaro ta'sirini koʻrsatadigan tartibda joylashtirilgan. Spektni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasidagi oʻxshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qoʻshilsa, ulaming oraligʻida qirmizi rang hosil boʻladi. Bu hosil boʻlgan rangni qizil, binafsha rangning oʻrtasiga joylashtirib spektr tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Bu rangshunoslikda ranglar aylanasi deb yuritiladi. Ranglar doirasida qizil, qizgʻish, zargʻaldoq, sariq, sargʻish yashil, yashiltob zangori, havorang, koʻkimtir binafsha, qirmizi ranglaning har xil tuslari koʻrinadi. Rang aylanasi ikki teng bo’lакка boʻlinsa, birinchi yarmida qizil, zargʻaldoq, sargʻish-yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, koʻk, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, choʻgʻni eslatsa, havorang, zangori,

yashil, ko‘klar muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo‘lib, har qanday iliq ranglar ham o‘ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo‘lib ko‘rinishi va aksincha, sovuq rang o‘zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.



24. Rasm. Ranglar doirasi

Axromatik va xromatik ranglar

Axromatik ranglar (25-rasm) ning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi va dunyoning turli madaniyatlarida chuqur ildizlarga ega. Oq, kulrang va qora ranglar har doim odamlar uchun alohida ma’noga ega bo‘lib, san’at, din, falsafa va kundalik hayotda muhim rol o‘ynagan.

Qadimgi Misrda axromatik ranglar katta ahamiyatga ega edi. Oq rang poklik va yorug‘likning ramzi bo‘lib, ko‘pincha marosimlar, shu jumladan fir’avnlarning dafn marosimlarida ishlatilgan. Kulrang

va qora ranglar ham o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Kulrang kul va chang bilan, qora rang esa Nil va tungi osmonning unumdorligi bilan bog‘liq edi.

XIX – XX asrlarda axromatik ranglar san’at va dizayndagi yangi kontekstlarda va tajribalarda qo‘llanila boshlandi. Monoxrom rasmlar mavhum san’atning ramziga aylandi, bu yerda kulrang yoki qora ranglarning har bir soyasi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lishi mumkin edi. Modada qora va oq to‘plamlar klassik va oqlangan deb hisoblanadi.

Yunon va Rim madaniyatida axromatik ranglar ham o‘ziga xos ramziy ma’nolarga ega edi. Oq rang poklik, yorug‘lik va ilohiylik bilan bog‘liq bo‘lsa, qora rang ko‘pincha motam va qayg‘u bilan bog‘liq edi. Masalan, rimliklar motam paytida qora kiyimdan foydalanishgan.

Rangsiz narsalar faqat tusi bilan farq qiladi. Bular oq, kulrang, qora tusli bo‘lib, ular axromatik deb yuritiladi. Masalan, oq ko‘ylak, oq gul, qora shim, qora qozon, kulrang idish va boshqalar. Qish faslidagi kechki manzarani olaylik, oppoq qor qoplangan dala va qoramtir kulrang daraxtlar bir-biri bilan faqat tuslari bilan farq qiladi. Oq bo‘yoqni qora bo‘yoq bilan aralashtirib, yana bir qancha oraliq tuslarni aniqlash mumkin. Ular qanchalik ko‘p bo‘lmasin bir-biriga nisbatan, oz bo‘lsa-da, tuslari bilan farq qiladi. Asosiy axromatik ranglar:

Oq rang - eng yengil va eng yorqin axromatik rangdir. Bu spektrning barcha ranglarini aks ettiruvchi sof yengillik rangidir.

Kul rang - neytral rang bo‘lib, qora va oq o‘rtasida joylashgan. Oq va qora rangdan farqli o‘laroq, kul rang issiqdan sovuqgacha turli xil tuslarga ega.

Qora rang - quyuq axromatik rangdir. U deyarli barcha ko‘rinadigan yorug‘lik energiyasini o‘zlashtiradi va uni aks ettirmaydi.

Rassomlar o‘z ishlarida turli effektlar va kayfiyatlarni yaratish uchun axromatik ranglardan foydalanadilar. Turli xil soyalarda

axromatik ranglardan birini ishlatadigan monoxrom rasmlar chuqur hissiy muhitni yaratishi mumkin. Axromatik ranglarni tushunish va ulardan foydalanish dizaynerlar va rassomlarga o‘z g‘oyalari va tushunchalarini ifoda etishda, noyob va ta’sirchan asarlar yaratishda yordam beradi.



25. Rasm. Axromatik ranglar

Xromatik ranglar (26-rasm) yoki kamalak ranglari tarixi ham boy va rang-barang bo‘lib, san’at, fan, madaniyat va kundalik hayotda boy ega. Qadim zamonlarda odamlar ranglarni o‘rganishgan va qadrlashgan. Qadimgi misrliklar ieroglif va devoriy rasmlarda ranglardan foydalanganlar. Qadimgi Yunoniston va Rimda ranglar san’at va simvolizmda muhim rol o‘ynagan. Masalan, yunon mifologiyasida har bir xudo o‘ziga xos rang bilan bog‘langan.

O‘rta asrlarda va Uyg‘onish davrida ranglar ham o‘ziga xos ramziy ma’nolarga ega edi. Ranglar avliyolar tasvirlarida va cherkov freskalarida ishlatilgan. O‘rta Osiyoda ranglar haqidagi ta’limot qadimdan devorlarga freska pannolar ishlash bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Chunki rassomlik rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir o‘quvchi, birinchidan, rangni xosil qilish usullarini va shu ishga bog‘liq kimyoviy xodisalarni o‘rgangan. Tabiatda ranglarning hosil bo‘lish va tarqalish qadimdan rassomlarning etiborini tortgan. Uyg‘onish davri buyuk rassomi Leonardo da Vinchi rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozgan.

Fan va san’atning rivojlanishi bilan rang haqidagi ilk nazariyalar paydo bo‘la boshladi. XVII-asrda Nyuton yorug‘likning sinishi bilan bir qator tajribalar o‘tkazdi va birinchi rangli modelni - spektral doirani yaratdi. . Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai

nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, nemis shoiri va san’atshunos olim I.V.Gyoteni ko‘proq ranglarning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri qiziqtirgan Gyote “ranglar haqida ta’limot” nomli asarida ranglarni iliq (sarg‘ish - qizil) ranglar kishida kayfi chog‘lik tuyg‘usini uyg‘otish haqida yozgan.



26. Rasm. Xromatik ranglar

Nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts (XIX asr) rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratgan. Ko‘p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomat – rang toni, rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko‘rsatgan. Xromatik rangga oz miqdorda kul rang qo‘shilsa, uning yorqinligi pasayib, nursiz xolatga keladi. Bunday xol rangning kam to‘yinganligidan, uning tarkibida sof bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Shunday qilib, rangning to‘yinganligi deganda, uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak bo‘ladi.Bundan ma’lum bo‘ldiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi- rang toni, rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektrni eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida o‘xshashlik alomatlari bor. Ikki rang bir-biri bilan qo‘shilganda, ularning o‘rtasidagi qirmizi rang hosil bo‘ladi, bu hosil bo‘lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o‘rtasida joylashtirib spektr tutashtirilsa ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasida qizil, qizg‘ish zarg‘aldoq, sariq sarg‘ish yashil, yashil sifat zangori, havo rang, ko‘kimtir havo rang, ko‘k, ko‘kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko‘rinadi.. Asosiy ranglar 3 ta qizil, sariq, ko‘k ranglar bo‘lib qolgan ranglar xosila ranglar xisoblanadi.

Rang (havo) perspektivasi

Rang yoki havo perspektivasi - bu xolst yoki qog‘ozning tekis yuzasida fazoviy chuqurlik illyuziyasini yaratishga imkon beruvchi rassomning sehrli qurolidir. Bu usul atmosferada yorug‘lik tarqalishining optik xususiyatlariga va obyektlarning kuzatuvchidan uzoqligiga qarab rangining o‘zgarishiga asoslangan.

Rang perspektivasi asoslari: Rang perspektivasi atmosfera dispersiyasi hodisasidan foydalanadi, bu yerda obyektlardan yorug‘lik atmosfera orqali o‘tadi va tarqaladi, bu masofaga qarab rangning o‘zgarishiga olib keladi. Uzoqdagi jismlarga qarasak, ular atmosferada yorug‘likning tarqalishi tufayli kamroq to‘yingan yoki kulrang ko‘rinadi. Rassom uchun rang perspektivasi tekis yuzada bo‘shliqni va chuqurligini yetkazish usulidir. Uzoq masofadagi obyektlar xolst tekisligidan tashqarida ekanligi hissini yaratish uchun rang perspektivasidan foydalanishimiz mumkin. Rassom yaqin atrofdagi obyektlar uchun issiqroq, to‘yingan ranglardan foydalanishi mumkin (masalan, yorqin yashil o‘tloq). Uzoqni tasvirlash uchun sovuqroq, ochroq ranglari tanlashi mumkin. Olisdagi obyektlarni ko‘proq sovuq ranglar bilan tasvirlash masofa va fazoviy chuqurlik hissini qo‘shadi. Manzarada rassomlar ko‘pincha haqiqiy landshaftlarni yaratish uchun ranglar perspektivalaridan foydalanadilar. Ularning asarlarida siz yaqin atrofdagi daraxtlarning barglari yorqin va to‘yingan rangga ega ekanligini ko‘rishingiz mumkin. Rang va havo perspektivasining mohiyati, rasm ishlashda rasmning ta’sirchan va ifodali chiqishida ahamiyati kattadir. Perspektiva fransuzcha so‘z bo‘lib, “la perspective” - uzoqqa qarash, yunonchasiga esa “perspictor” - oyna orqali to ‘g‘ri va aniq ko‘rayapman degan ma’noni bildiradi. Bunda kuzatuvchiga nisbatan uzoqlashib borayotgan tomonlar oldinda turgan tomonga nisbatan biroz kichraygan holda ko‘rinadi. Masalan, temir yo‘llar, simyog‘ochlar misolida buni ko‘rish mumkin.



27. Rasm. Chiziqli perspektiva

Bundan tashqari, havo perspektivasi, rang perspektivasi ham mavjud. Rang va havo perspektivasi ham ana shu talablarni amalga oshirishda qo‘l keladigan muhim qoidalardan biridir. Qisqarishni ko‘chalarda, daraxtlarda, binolarda va bino ichkarisida ya’ni xonalarda ham aniq ko‘rishimiz mumkin. Perspektivani rasm chizishda to‘liq qo‘llay olishimiz uchun va uni qanday sodir bo‘layotganini bilishimiz uchun shunchaki atrof – muhitni diqqat bilan kuzatishimiz kifoya qiladi. Ozgina perspektiva xaqida tushunchaga ega bo‘lishimiz atrofimizda uni topishimizga katta yordam bo‘ladi.Bir marta ko‘rib olsa bo‘ldi tabiatda perspektiva doim siz bilan bo‘ladi. Yo‘llar ,yo‘laklar ,simyog‘ochlar, qator qurilgan uylar bizga yordam beradi. Qalamtasvir yoki rangtasvirda badiiy asar natyurmort, portret va manzara yaratishda havo perspektivasi xaqida tasavvurga ega bo‘lishimiz talab etiladi. Bunday xodisani tabiatda hamma kuzatgan. Havo perspektivasi

natijasida yaqindagi daraxtlarning xar bir bargi, shoxlari, tanasi aniq koʻrinadi, uzoqlashgan sari aniqlik yoʻqolib umumiylashib ketadi. Bu qonun bizga yaqin turgan buyumlarni toʻlaqonli eng mayda boʻlaklarigacha koʻramiz , uzoqlashganda hamma narsa- buyumlar umumiy xolatini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Fazoda uzoqlashishi oqibatida narsa, buyumlardagi aniqlik, ranglar, yoryg‘-soya munosabatlar yumshab xiralashib boradi. Havo perspektivasi qalamtasvirda planlarni va uzoqlikni koʻrsatib berishga xizmat qiladi. Biz natyurmort, alohida buyumlar, portret yoki odam gavdasini chizayotganimizda bizda yaqin oldingi plan orqa planga nisbatan aniqroq ishlanadi. Oldingi plandagi yorug‘- soya munosabatlar kontrastligi keskin koʻrinadi. Orqa plandagilar biroz yumshoqroq ishlanadi. Perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat’iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo), amal qilishi shart.



28. Rasm. Rangtasvirda havo perspektivasi

Akvarel rangtasviri tarixda ming yillarga borib taqaladi va san’at va texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Suvda

eriydigan bo‘yoqlardan foydalangan holda bu turdagi rasm butun dunyo bo‘ylab ko‘p rassomlar uchun ijodkorlikni ifodalashning sevimli usuliga aylandi. Akvarel san’at turi sifatida qadimiy ildizlarga ega. Qadim zamonlarda ham rassomlar illyustratsiyalar, xaritalar va bezak elementlarini yaratish uchun suvda eriydigan bo‘yoqlardan foydalanganlar. Qadimgi Misr va Xitoy kabi dastlabki sivilizatsiyalar o‘zlarining san’at asarlarini yaratish uchun suvga asoslangan bo‘yoqlardan foydalanganlar. O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrida akvarel kitoblar va qo‘lyozmalar uchun rasmlar ustida ishlagan rohiblar va rassomlar orasida mashhur bo‘ldi. Albrext Dyurer kabi buyuk ustalar o‘zining ijodida akvareldan foydalangan, ijodida murakkablikni ifoda etgan.



29. Rasm. Albrext Dyurer. Insburk ko‘rinishi. Qog‘oz, akvarel

XVIII asrda akvarelda ijod qilish mustaqil janrga aylandi. Uilyam Tyorner, Jon Singer Sargent va Jon Konstebl kabi buyuk ustalar akvarel texnikasini ishlab chiqdilar, o‘zlarining nozikligi, shaffofligi va uyg‘unligi bilan hayratga soladigan asarlar yaratdilar.

XIX-XX asrlarda akvarel modernist rassomlar orasida tobora ommalashib bordi. Bu vaqtga kelib, texnika takomillashtirildi va rassomlar akvareldan ajoyib effektlar va boy ranglar yaratishdi. Hozirgi vaqtda akvarel mashhur san’at bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy rassomlar ushbu texnikani sinab ko‘rishda, turli uslub va yo‘nalishlarda asarlar yaratishda davom etmoqdalar. Uy sharoitida akvarel bo‘yog‘ini tayyorlash rassomga bo‘yoqning ranglarini, tuzilishini va sifatini nazorat qilish va do‘konda topib bo‘lmaydigan noyob tuslarni yaratish imkonini beradi. Keling, asosiy ingredientlar va ko‘rsatmalar yordamida akvarel bo‘yoqlarini qanday tayyorlashni o‘rganamiz. Boshlashdan oldin, akvarel bo‘yog‘ini yaratish uchun kerak bo‘ladigan asosiy ingredientlarni ko‘rib chiqaylik:

1. Pigmentlar: Bu bo‘yoq rangini aniqlaydigan asosiy komponent. Yorqin va boy tuslar uchun sintetik pigmentlar kabi tabiiy pigmentlardan foydalanishingiz mumkin.

2. Bog‘lovchi: Bo‘yoqning mustahkamligi va tuzilishini berish uchun zarur. Gumiarabik akvarel bo‘yoqlarida eng keng tarqalgan bog‘lovchilardan biridir.

3. Suv: Bo‘yoqni qog‘ozda ishlashga moslashtiradigan eng muhim tarkibiy qism.

Akvarel bo‘yoq boshqa bo‘yoqlarga nisbatan yorqin, toza va jozibalidir. Shuning uchun u bilan ishlangan tasvirlar chiroyli, nafosatli ko‘rinishi sababli kishi e’tiborini jalb qiladi. Akvarel bo‘yog‘ida o‘quv-mashq vazifalarni, shuningdek badiiy asarlarni yaratish mumkin. Bundan albatta bo‘yoqning va rang tanlashning xususiyatlarini yaxshi bilish lozim. Agar siz moybo‘yoq va akreldan keyin yangi bo‘yoq va texnikani sinab ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, unda akvareldan yaxshiroq narsa yo‘q. Eng injiq, ammo ayni paytda juda qiziqarli bo‘yoq, bo‘yashni o‘rganish, uning yordamida siz o‘zingizning ijodiy salohiyatingizning yangi qirralarini kashf etasiz! Akvarel bo‘yoqlari bir necha shakllarda bo‘ladi - suyuq, qattiq, yarim qattiq, shuningdek, akvarel qalamlari ham bor, ularni oddiy

chizilgan qalamlar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Qattiq holatda yoki plitkalardagi akvarel - bu avval qoliplarga quyilgan va maxsus usulda quritilgan quruq bo‘yoq. Yarim qattiq akvarel bo‘yoqlari tajribali rassomlar va yangi uchun akvarelning asosiy turi. Bunday akvarellar bilan bo‘yash uchun bo‘sh kyuvettalar yoki kichik palitralar kerak bo‘ladi va ularga ozgina bo‘yoqni siqish yaxshiroqdir. Suyuq akvarel juda oddiy va tushunarli akvarel turi, chunki u bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri idishdan ishlashingiz mumkin, chunki u suyuq holatdabo‘ladi. Ammo, agar siz kerakli effekt uchun uni suv bilan yanada suyultirish mumkin. Tasviriy san’at texnologiyasida akvarel bo‘yoqda ishlangan ishlardan nusxa ko‘chirish uchun bo‘yoqni qog‘ozga juda yupqa qilib surkash zarur, shunda bo‘yoq qog‘ozga mahkam yopishadi va rangning tiniq chiqishiga imkon beradi. Bo‘yoqni yupqa ishlatish havo masofani ko‘rsatish, quyuq soyalarni topish va temir, oynalar manzarasini o‘z xususiyatlari bilan ko‘rsatishga yordam beradi. Bu bo‘yoq bilan qog‘ozga ishlanganda, qog‘ozning oq rangidan to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Chunki qog‘oz sathiga surkalayotgan tiniq bo‘yoq sifatini saqlash rangtasvir vazifasining tugal to‘g‘ri bajarilishiga asos hisoblanadi. Akvarel texnikasida manzara, portret yoki natyurmortni mukammal o‘zidek nusxa ko‘chirish uchun, birinchi navbatda ish qurollari va ashyolarning shay bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Qog‘oz, albatta oq, etarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budur bo‘lishi kerak. Juda silliq qog‘ozga bo‘yoq tekis surtilmaydi. Qog‘ozning yuzasi g‘adir-budur bo‘lsa, bo‘yoq zarrachalari uning g‘ovaklariga singib, quriganda mustahkam qotadi. Qog‘ozning chekkalari bukilib ketmasligi uchun uni maxsus taxta (planshet)ga tarang qilib mahkamlash kerak. Buning uchun planshetdan 1,5-2 sm kattaroq qog‘oz olib chetlari buklanadi. Qog‘ozning yuzasi avaylib xo‘llanadi (buklangan joyidan tashqari). Qog‘oz chekkalariga (buklangan qismiga) elim surkab yoki knopka, steplerda planshetga yopishtiriladi. Bunda barmoqlar bilan qog‘ozni asta sidirib, burishgan va ko‘tarilib qolgan joylarini tekislab qo‘yish

kerak. Qog‘oz tekis yopishtirilgach planshetni gorizontal holatda yotqizib quritiladi. Akvarel texnikasining guash tempera va moybo‘yoqlaridan farqi uning tiniqligi va bo‘yoqlarning yorqinligi va tozaligi bilan uyg‘unlashib ko‘rinishidir. Akvarel bo‘yoqlar bilan tasvir ishlaganda mayin mo‘ynali, yumaloq shakldagi, uchi tomoni ingichkalashib boradigan mo‘yqalamlardan foydalanish kerak. O‘rganish davrida ikkita mo‘yqalam etarli, ulardan biri kattaroq , ikkinchisi kichikroq bo‘lishi maqsadga muvofiq. Sifatli mo‘yqalam ho‘llanganda qillari bir joyga yig‘ilib, konussimon holatga keladi. Katta hajmdagi mo‘yqalam o‘ziga ko‘p miqdorda bo‘yoq eritmasi oladi va bir yo‘la ancha keng yuzlarni qoplashi mumkin. Mo‘yqalamlarni ishlatishning birqancha usullari mavjud, to‘g‘rirog‘i bular faqat yo‘llanma bo‘lib umumiy qoida bo‘la olmaydi. Chunki ishning xarakteri mo‘yqalam ishlatish uslubini belgilaydi. Keng yuzlarni bo‘yash kerak bo‘lganda mo‘yqalam qiyalatib ushlanadi hamda mo‘yqalamni qog‘ozning tepa qismidan pastga, chap tomonidan o‘ngga tortib bo‘yab chiqiladi. Akvarelda o‘quv-mashq vazifalarini ikki xil yo‘l bilan ishlash tamoyilga kirgan. Ulardan biri tezkorlikda, qog‘ozdagi namlik qurilmadan xo‘l yuzaga ishlanadi va “Alla prima” uslubida bajariladi. Ikkinchi usul esa uzoq muddatda bosqich-bosqich ishlanadi va bo‘yoq qatlami quritib ustma-ust beriladi. Umuman olganda har bir kishi o‘zining qobiliyati, bilim darajasi va mahoratiga yarasha bo‘yoqning keng imkoniyatlaridan unumli, samarali foydalanadi. Tajriba, ko‘p mashq qilish ham bu texnikani mukammal egallashning omilidir. Akvarel mo‘yqalamning kolonok, olmaxon, savsar, yunglardan yasalgan turlari mavjud.

Akvarel bo‘yoqlari butun dunyo bo‘ylab badiiy materiallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Akvarel bo‘yoqlarining eng taniqli brendlaridan ba’zilari:

1.Winsor & Newton - dunyodagi eng qadimgi va eng hurmatli badiiy materiallar brendlaridan biri.(38-rasm) Kompaniya 1832

yilda Londonda tashkil etilgan va shu vaqtdan boshlab butun dunyo rassomlari uchun sifat va ishonchlilik ramziga aylandi.



30. Rasm. Winsor & Newton

2.Schmincke - 1881 yildan beri badiiy materiallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan nemis kompaniyasi. Ular yuqori sifatli akvarel bo‘yoqlari bilan mashhur bo‘lib, ular ko‘plab rassomlar tomonidan qizg‘in ranglar va mukammal shaffoflik uchun tan olingan.



31. Rasm. Schmincke akvarel bo‘yog‘i

3. Daniel Smit 1976-yilda Vashington shtatining Sietl shahrida tashkil etilgan Amerika kompaniyasidir. Ular akvarel bo‘yoqlarini ishlab chiqarishga innovatsion yondashuvlari, masalan, eng yangi pigmentlar va texnologiyalardan foydalanish bilan mashhur.

4.Holbein - bu eng yuqori sifatli akvarel bo‘yoqlari bilan mashhur bo‘lgan yapon kompaniyasi. Ular an'anaviy va zamonaviyroq pigmentlarni o‘z ichiga olgan keng doiradagi ranglarni ishlab chiqaradilar.

5. M. Graham & Co tabiiy badiiy materiallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Amerika kompaniyasi. Ularning asal asosidagi akvarellari yuqori to‘yinganligi va shaffofligi bilan mashhur.

6. Sennelier 1887-yilda tashkil etilgan fransuz kompaniyasi bo‘lib, u yuqori sifatli badiiy materiallar, jumladan akvarel bo‘yoqlari bilan mashhur. Ular o‘zlarining an'anaviy retseptlari va bo‘yoq ishlab chiqarishga innovatsion yondashuvlari bilan mashhur.

Hozirgi vaqtda akvarel mashhur san’at bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy rassomlar ushbu texnikani sinab ko‘rishda, turli uslub va yo‘nalishlarda asarlar yaratishda davom etmoqdalar. Haqiqiy landshaftlardan mavhum tajribalargacha akvarel jonli va jozibali san’at turi bo‘lib qolmoqda. Akvarelda ko‘plab rassomlar samarali ijod qilgnlar va qilib kelmoqdalar. Ulardan: M.Sadikov, A.Boybekov, R.Xalilov, U.Axunov, A.Buranov, L.Khalilov ва boshqalar.



32. Rasm. M.Sadikov. Xovuz bo‘yida

I.6-§. Akvarelda ranglarni aralashtirish texnologiyasi.

Ranglarning to‘yinganligi axromatik ranglarda ko‘proq kulranglar shkalasiga, xromatik ranglarda esa ko‘pincha spektr ranglariga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Rang tonlarining to‘yinganligi turlicha bo‘ladi. Masalan; kul rang yorqinligi bo‘yicha unga teng keladigan sariq rang bilan aralashtirilsa, unda rang tonining to‘yinganligi pasayadi, oqishroq yoki kam to‘yingan bo‘lib qoladi. Agar biz qizil rang kuchini davom ettirsak, undan ham past rang tonining hosil bo‘lishini ko‘ramiz.

Aralashmada kul rangning ta’siri kuchli bo‘lganligi uchun sariq ton salgina sezilishi yoki umuman sezilmasligi mumkin. Ranglar xalqasida bir-biriga to‘g‘rima-to‘g‘ri turgan ranglari qarama-qarshi yoki to‘ldiruvchi ranglar deb ataladi. Ular ham o‘z navbatida, bir-biriga rangdosh bo‘ladi va bir-birlarini to‘ldiradi. To‘ldiruvchi ranglar bir qator qo‘yilganda muvafiqlashuv qonuniga binoan yanada ochiqroq yoki yorug‘roq bo‘lib ko‘rinadi. Aytaylik qizil rang yashil rang bilan yonma-yon quyilsa boshqa qatorda turgan rang tonlariga nisbatan yanada ochiqroq va qizilroq ko‘rinadi. Talabalarga ranglarning tonlari va to‘ldiruvchi ranglar to‘g‘risida gapirilganda ularning qanday yo‘llar bilan hosil qilinganligini tushuntirib o‘tish kerak. Agarda ikkita to‘ldiruvchi rang bir xil miqdorda aralashtirilsa, kul rangga o‘xshab qoladi. Natijada, birorta rangning yorug‘lik kuchini kamaytirish uchun ustidan to‘ldiruvchi rangning suyuq eritmasi bilan bo‘yaladi yoki atrofidagi rang o‘zgartiriladi. xossalaridan biri shuki, ular ko‘zga tez tashlanadi, hamda sezgi organlariga kuchli ta’sir etadi. Barcha iliq yoki ochiq ranglarni shartli ravishda buyurtgan yoki ranglar deb atash mumkin. Rasmda oldingi planni tasvirlashda ko‘pincha iliq ranglardan foydalaniladi. Ayniqsa Serov va Repin asarlarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi Ayrim hollarda iliq ranglarni yoqimli deb atash mumkin. Sovuq ranglar esa aksincha yoqimsiz ranglar deb yuritiladi. Sovuq ranglarga muz, suv, osmon ranglarini eslatuvchi ko‘kish yashil, ko‘kishshch qizil va shu kabi ranglar kiradi. Sovuq ranglar ko‘pincha og‘irlikni, hajmdorlikni, uzoq masofaviylikni ifodalaydi, hamda shartli ravishda bo‘rtgan ranglar deb ataladi. Iliq va sovuq ranglar dekorativ bezash ishlarida keng qo‘llaniladi, hamda rangli tasvir ishlashda juda qo‘l keladi.Tabiatdagi mavjud har bir predmetning rangi uning fizik xossasiga ya’ni yorug‘lik nurlarini qaytarish, singdirish va o‘tkazish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Natijada, yorug‘likning yuza tushayotgan nurlari qaytgan, singan va yuzadan o‘tgan nurlarga bo‘linadi.

Mo‘yqalamlar turlari: Akvarel mo‘yqalamlari akvarel rassomi uchun muhim vosita bo‘lib, rang-barang va ifodali san’at asarlarini yaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Biz akvarel mo‘yqalamlarining har xil turlarini, ularning xususiyatlarini va ijodiy ehtiyojlaringiz uchun mukammalini qanday tanlashni ko‘rib chiqamiz**.**

Kolonok tuki: Bu turdagi tuklar Janubiy Amerikada Kolonok maymunining dumidan tayyorlanadi. U yaxshi suv singdirish qobiliyatiga ega va keng va tez ranglarni surtish uchun javob beradi.

Sintetika: Bu mo‘yqalamlar sintetik materiallardan tayyorlangan va mo‘yqalamlar turiga qarab turli xil xususiyatlarga ega. Ularni odatda tozalash oson va suvni yaxshi singdirishi mumkin.

Aralash kolonok mo‘yqalamlar: Aralash, ham sintetik, ham tabiiy mo‘yqalamlarni o‘z ichiga oladi. Ikkala turdagi mo‘yqalamlar birlashtirilganda eng yaxshi fazilatlarini jamlaydi va turli xil akvarel texnikasi uchun yaxshi tanlov bo‘lishi mumkin.

Belka (olmaxon yungi): tajribali rassomlar va o‘qituvchilar, shuningdek professional ijodkorlar uchun mo‘ljallangan mo‘yqalamlar.

Mo‘yqalamlar shakllari

Dumaloq mo‘yqalam: Nuqta va kontur ishlarini yaratish, shuningdek nozik chiziqlar yaratish uchun ishlatiladi.

Yassi mo‘yqalam: to‘rtburchak shaklga ega va keng chiziqlar yaratish, katta maydonlarni to‘ldirish va tekis yuzalarni yaratish uchun ishlatiladi (43-rasm).



33. Rasm. Mo‘yqalamlar shakllari

Mo‘yqalamning yana bir turi moyli bo‘yoqlar uchun mo‘ljallangan mo‘yqalamlar bo‘lib kurakchasimon va yumaloq shaklda bo‘ladi. Mo‘yqalamlarning bandida raqami bo‘ladi. Bu raqam mo‘yqalam mo‘y qismining kengligini bildiradi. Raqamlardagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun moyli bo‘yoqlar va akvarel bilan ishlashda mo‘yqalamning kerakli raqami yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida mo‘yqalamlarning raqamlariga qarab ish jarayonida ishlatiladi.

Mo‘yqalamlar o‘lchami:

Mo‘yqalamning o‘lchami uning funksionalligi va qo‘llanilishiga ta’sir qiladi:

- 0-2 raqamli: Nozik chiziqlar va nuqta bilan ishlash uchun kichik mo‘yqalamlar.
- 4-6 raqamli: Umumiy foydalanish uchun o‘rta mo‘yqalamlar, konturlar va o‘rta joylar.
- 8-2raqamli: Katta maydonlarni to‘ldirish uchun katta mo‘yqalamlar.

Sifatli brendlar:

“Winsor & Newton” - Yuqori sifatli tabiiy mo‘yqalamlari bilan tanilgan.

“Da Vinchi”- Ular turli turdagi mo‘yqalamlar va shakllarga ega bo‘lgan keng doiradagi mo‘yqalamlarni taklif qiladi.

I.7-§. Rangtasvir va uning janrlari

Rangtasvir texnikasi asrlar davomida muntazam ravishda mukammallasha borgan. Rantasvirchilarni turli–tuman syujetlar borgan sari e’tiborini tortgan. Bu o‘zgarishlarning barchasi XVII asrga kelib faqat rangtasvirdagina emas, balki grafika va haykaltaroshlikda ham turli janrlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Rangtasvir janrlarining quyidagi turlari mavjud: portret, natyurmort, manzara, animalistik, tarixiy, maishiy, batal va boshqa janrilardir. Quyida biz bu janrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixiga to‘xtalib o‘tamiz.

Manzara-janridagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqiyalar emas, balki rassomning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayirim rassomlar maysazorlaru tog‘–toshlarni, cheksiz sahrolarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari sokin vodiylaru ketng o‘rmonlarni, sohil bo‘ylariyu to‘fonli dengizlar manzarasini tasvirlashda mohirdirlar

Manzara janrida rassomlardan O‘.Tansiqboevning “O‘zbekistonda mart”, “Jonajon o‘lka”, “Mening qo‘shig‘im”, N.Kashinaning “Tog‘da bahor”, Z.Inog‘omovning “Arpa o‘rimi”, “Choyga”, R.Timurovning “Bibixonumda bahor”, “Ulug‘bek madrasasi” asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.



34. Rasm. I.I.Shishkin. O‘rmondagi anhor. 1896



35. Rasm. I.K.Ayvazovskiy. Dengiz bo‘yida. 1840



36. Rasm. Vadi–Rum sahrosi




37. Rasm. O‘.Tansiqboyev. Mening o‘lkam. 1951



38. Rasm. Lin Ching Che

Natyurmort - fransuzcha so‘z bo‘lib, “jonsiz tabiat” degan ma’noni anglatadi. Bu janrda rassom asosan insonni o‘rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, oziq–ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi (49,50,51,52–rasmlar). Rassom o‘z asarida tevarak–atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro‘y berayotganligini ham ko‘rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Ahmedov, L.Salimjonova, G‘.Abduraxmonov, N.Oripova va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilganlar.



39. Rasm. N.Oripova. Onamning ro‘moli



40. Rasm.
N.Gilmanova.
Natyurmort.



41. Rasm.
E.P.Panov. Quyoshli nastarin gullari.




42. Rasm. A.S.Saidov. Qulupnay bilan olma

Tarixiy - janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush


madaniyati bilan tanishamiz (53,54,55–rasmlar). Tarixiy janrning ko‘rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.



43. Rasm. A.Aliqulov



44. Rasm.
M.Nabiyev. Ahmad al Farg‘oniy portreti. 1994



45. Rasm.
Z.M.Kovalevskaya. Pavel Benkov Shahi–Zinda eskizi ustida ishlamoqda. 1940

Botal janr - “botal” fransuzcha so‘z bo‘lib, “jang”, “urush” ma’nosini bildiradi. U jang manzaralarini o‘zida aks ettiradi. Bu

janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o‘rinni egallaydi (56,57,58,59–rasmlar).



46. Rasm. Frans Rubo. Jonli ko‘prik



47. Rasm. V.V.Vereshchagin. Urush oqibatlari. 1871



48. Rasm. P.P.Rubens. Konsul Dekiy Musning jangdagi g‘alabasi va o‘limi



49. Rasm. A.Aliqulov. Yuksalish. 1993

Botalist rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qaxramonligi, mardligi, jasorati hamda o‘z ona Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, V.V.Vereshchagin, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshkalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabievning “Spitamen qo‘zg‘oloni”, R.Rizamuhammedovning “Muqanna qo‘zg‘oloni”, T.Sodiqovning “Tumarisning qasosi”, A.Aliqulovning “Yuksalish” nomli asarlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Animalistik janr - o‘zgacha tasviry san’at turidir. U lotincha “anim” — “hayvonot olami” degan ma’noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo‘r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘sha davrda ular g‘orlarning devorlariga kiyik, qo‘tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asos hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishlaganlar.



50. Rasm. A.Dyurer. Quyon



51. Rasm. J.Stabbs. Mustang



52. Rasm. I.I.Shishkin. Daraxt soyasidagi podalar



53. Rasm. F.Sneyders. To‘ng‘iz ovida

Keksa haykaltarosh va grafikchi rassom V.A.Vatagin o‘zining asarlarida to‘rt oyoqli do‘stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Mashg‘ulot paytida o‘qituvchilar talabalarga nazariy bilim berish jarayonida mazmunni to‘liq ochib berilishi uchun jonli nutq orqali so‘zlash bilan birga rassomlarning turli janrlarga oid asarlaridan surat–lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalasa rangtasvir janrlari haqida batafsilroq ma’lumotga ega bo‘ladilar (20–23–rasmlar).

Maishiy janr - tasviriy san’atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o‘zida mujassamlashtiradi. Rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari — Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabi ijodkorlar asarlarida namoyon bo‘ladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitsskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. O‘zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog‘omov, R.Chorievlar ham shu janrda barakali ijod etganlar.



54. Rasm. I.N.Kramskoy. Rassomning rafiqasi Sofiya Nikolayevna va qizi Sonya



55. Rasm. Fedot Vasilevich Sichkov



56. Rasm. Konstantin Razumov




57. Rasm. A.Aliqulov. Sozandalar. 2005



58. Rasm. B.Jalolov. Muhabbatdan yuqori sevgi yo‘q. 2014

Portret - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san’at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.



59.Rasm. Jo‘ra Asron. Ho‘ja Axror Valiy portreti. 1993.



60. Rasm. A.Yusupov. San’atshunos N.Andakulova portreti. 2015.

Portret - bitta odam yoki odamlar guruhining tasvirlari bilan farq qiluvchi tasviriy san’at janrlaridan biridir. Portretda rassom insonning tashqi, individual o‘xshashligini ko‘rsatibgina qolmasdan, inson xarakteri, uning ma’naviy dunyosini ham ochib bera oladi.

Portretning turli ko‘rinishlari mavjud. Ularga belgacha bo‘lgan portret, byust (haykaltaroshlikda), bor bo‘yi bilan chizilgan portret, odamlar guruhi portreti, interer yoki manzara fonidagi portretlar kiradi. Tasvirlash xarakteriga ko‘ra portret ikkita asosiy guruhga ajratiladi: ya’ni odamning bor bo‘yi bilan chizilgan (otda, o‘tirgan yoki turgan holatda) portreti (parad portreti) va beligacha, yelkagacha chizilgan portret.

Bitta xolstda chizilgan tasvirlarning soniga qarab portretlar ikki kishilik va guruhiy portretlarga ham ajratiladi. Turli xolstga chizilgan, lekin kompozitsiyasi, formati va koloritga koʻra bir–biriga mos boʻlgan portretlar juft portretlar deyiladi. Ba'zi hollarda bunday portretlarda er–xotinlar tasvirlanadi. Koʻpincha portretlar yaxlit ansamblni- portretlar galereyasini tashkil qiladi.




61. Rasm. Chingiz Ahmarov. Mukarama Turgʻunboyeva portreti

Portretda odam qandaydir, allegorik, mifologik, tarixiy, teatrlashtirilgan yoki adabiy personaj holatida tasvirlangan boʻlsa bunday portretlarga kostyumlashtirilgan portretlar deyiladi. Bu portretlarni nomlashda koʻpincha "koʻrinishda" yoki "obrazda" soʻzlari qoʻshiladi (masalan, A.Abdullayevning "Abror Hidoyatov Otello rolida" (66–rasm). Portretlar oʻlchamiga koʻra ham ajratiladi, masalan miniatyura portretlari. Bundan tashqari rassomlar oʻzlarining portretlari – avtoportretlarni ham ishlashadi. Portretlar faqatgina modelning individual belgilarinigina emas, balki shu odam yashagan davr ruhini ham oʻzida aks ettiradi.



62. Rasm. N.Yarashenko. Talaba. 1883



63. Rasm. P.P.Benkov. Dugonalar (Frontdan maktub). 1945



64. Rasm. Jon Seymur Lukas. Interval. 1905



65. Rasm. F.Goyya. Uzum teruvchilar. 1792



66. Rasm. A.Abdullayev. Abror Hidoyatov Otello rolida

Avtoportret -portret janrining koʻrinishlaridan biri boʻlib, rassom oʻzining tashqi qiyofasini oʻzi tasvirlaydi (77,78,79,80–rasmlar).

Portret san'ati bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Misrda ham haykaltaroshlar odamning tashqi koʻrinishiga juda oʻxshagan tasvirlar yaratishgan. Chunki ularning fikricha odam

dunyodan o‘tganidan so‘ng uning ruhi shu yaratilgan o‘xshash tasvirlarga ko‘chishar ekan. Ular o‘zlarining yorqin hayotiy obrazliligi, shaklining hajmliligi bilan ajralib turadi.




67. Rasm. Ro‘zi Choriyev.Avtoportret



68. Rasm. H.Mirzaxmedov. Avtoportret



69. Rasm. D.Azizov. Avtoportret



70. Rasm. R.Matevosyan. Avtoportret

Qadimgi Gretsiyada shoirlar, faylasuflar va boshqa mashhur kishilar portretlarini ishlash urf bo‘lgan. Qadimgi Rim portret haykaltaroshligiga xos bo‘lgan asarlar o‘zlarining haqqoniyligi va aniq psixologik xarakterini ochib berishi bilan mashhur bo‘lgan. Ular insonning individual belgilarini aks ettirgan.

Insonning yuzini haykaltaroshlikda yoki rangtasvirda tasvirlash barcha davrlarda ham rassomlarni o‘ziga jalb etgan. Portret janri ayniqsa Uyg‘onish davrida gullab yashnadi.

Uyg‘onish davri rassomlari portret obrazlarining mazmunini chuqurlashtiradi, ularni intellekt, qalb uyg‘unligi va ko‘pincha ichki dramatizm bilan tasvirlaydi. O‘sha davrning buyuk rassomlari — Rembrand Van Reyn, F.Gals, Van Deyk, D.Velaskes oddiy insonlarni tasvirlab, ulardagi insonparvarlik va ko‘ngil boyligini ko‘rsata olishgan.

Rossiyada portret janri XVIII asr boshlaridan rivojlana boshladi. O‘sha davr rassomlari F.Rokotov, D.Levitskiy, V.Borovikovskiylar buyuk insonlarning portretlarini yaratganlar. Ayniqsa ayol obrazlari juda maftunkor va go‘zal, lirika bilan sug‘orilgan.

Sayyor rassomlardan V.Perov, M.Kramskoy, I.Repin buyuk zamondoshlarining portretlarini yaratishgan. Portretda tasvirlanayotgan odamlarning individual va tipik belgilari, ma’naviy–ruhiy olami ularning yuzi, holati va hatti–harakatlari orqali ochib berilgan.

XX asrda portret o‘zida turli–tuman, qarama–qarshi tendensiyalarni yorqin realistik, individual xarakteristika va modelning abstrakt, ekspressiv deformatsiyasini (P.Pikasso, A.Modilyani, E.A.Burdel, S.Konenkov, M.Nesterov, P.Korin) Rossiyada yaratadi.

Portretlar bizga faqat turli davrlarda yashab o‘tgan insonlarni aks ettirib beribgina qolmay, balki rassomning tasvirlanayotgan insonga bo‘lgan munosabatini va dunyoni qanday qabul qilganini ham aks ettiradi.

Portret janri O‘zbekiston rangtasvirchilarining kuchli jixatlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis–rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A.Abdullayev, R.Ahmedov, R.Choriyev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e’tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta’siri o‘laroq, san’atning turli yo‘nalish va uslublarida erkin ijodga yo‘l ochildi. Jumladan portret janri keng ko‘lamda rivojlandi. Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo‘lib qoldi.

Respublikamizning yetakchi badiiy oliygohi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida aynan, realistik maktab asosida o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrda ijod etgan o‘tmish ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san’ati ilg‘or tajribasini chuqur o‘rganishdan dalolat berib, butun dunyoda avangard yo‘nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo‘nalish rivojiga e’tibor bilan qaralganligini ko‘p jihatdan namoyon etadi.

1990-yillarda o‘zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, yetakchi portretnavis, akademik A.Abdullayev ham ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Butun umri davomida u iste’dodli va ma’naviy go‘zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvir mo‘yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma’naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan portret qahramoni va portret bilan tamoshabin o‘rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etuvchi manbadir.

Akademik R.Ahmedov o‘z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo‘lib, aynan, ularda rassom donishmanlikni, ma’naviy poklikni, yuksak axloqiy qoidalarni gavdalantiradi (“Jizzaxlik ayol” (1992), “Nigina” (1993)).

Zamondoshlar obrazlari akademik R.Choriyevni ham qiziqtirgan va o‘ziga jalb etgan. Ko‘p sonli ijodiy safarlar natijasida, rassomning butun boshli portretlar galereyasi vujudga keladi. Ular

orasida “Boysunlik qariya” (1996), “Sayroblik go‘zal” (1997) singari o‘z xalqining eng yaxshi ma’naviy–axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozitsion yechimdagi portretlari sanab o‘tiladi. Rangtasvirchi R.Choriyevning kuchli jihati shundaki, u doimo naturadan ishlaydi.

Ajoyib rangtasvirchi A.Ikromjonovning ilk ishlarida realistik asos kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Uning portretlari yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo‘yoqlarning fakturali qo‘yilishi, naturani hatto fotosuratgacha tahlil etib chizilganligi, shuningdek, obrazning ruhiy to‘laqonliligi (“Malika portreti” (1993)) bilan ajralib turadi.

O‘z ohanglari va mo‘yqalamiga ishonch bilan yondasha olgan R.Xudayberganovning portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi (“Xojar xola” (1999)). Avvalgi ustalar uslubini qo‘llagan holda rassom hech qanday yordamchi vositalarsiz, to‘q fonda portretlar yaratadi–ki, ular qahramon qiyofasini yanada mukammalroq chiqishida yetakchilik qiladi. Uning ajoyib badiiy asarlaridan biri “Navro‘z 2001” ko‘rgazmasida namoyish etilgan “Bastakor R.Abdullayev portreti”dir.

1990- yillarda portret janrida B.Jalolov faol ijod qildi. Shuni ta’kidlash joizki, realistik chizmalar yaratishda u mislsiz darajaga erishadiki, bu borada unga hech kim tenglasholmaydi. Oxirgi o‘n yillikda yaratilgan “Saudiya Arabiston qiroli Araviy Fahd ibn Abdul Aziz” (1992), “Akademik S.Azimov portreti” (1998) va boshqa polotnolarni rassomning o‘zbek rangtasvirchilar orasida dunyo talablari darajasida yaratgan asarlari sirasiga qo‘shish mumkin.

S.Rahmatov shunday rassomlar sirasiga kiradi–ki, uning ijodida portret asosiy o‘rin egallaydi. Oxirgi o‘n yilliklarda yaratgan eng yaxshi portretlari qatorida “Yunus Rajabiy portreti” (1993), “GFRning O‘zbekistondagi elchisi G.Kun portreti” (1999) alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillar ko‘rgazmalarida O‘zbekistonning mashhur rangtasvirchi rassomi V.Burmakin portretlari munosib joy oldi. Lekin, rassomning avvalgi ishlariga qiyoslangan tarzda, 1990–

yillarda yaratgan portretlarini bir muncha sust ekanligi tanqidchilar tomonidan ta’kidlanadi.

Onalar va bolalar yili munosabati bilan tashkil etilgan “Qo‘li guldir o‘zbek ayolin” ko‘rgazmasiga bir qator ayol portretchi rassomlar: A.Mamatova “Yulduz Usmonova portreti”, Sh.Abdullayevaning “O‘zbek madonnasi”, M.Shuvayevaning “Lola” portreti, Z.Sharipovaning “Avtoportret”lari namoyish etildi.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Ikuo Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyida 2020-yil 7–mart kuni “Do‘stlik” ordeni sohibasi, taniqli rassom - Nodira Oripovaning ijodiy namunalari jamlangan “Afrosiyob malikalari” nomli ko‘rgazmasi bo‘lib, ko‘rgazmada musavviraning turkum asarlari namoyish etilib san’at ixlosmandlarida kata qiziqish uyg‘otdi.

Portretchi rassomlar sonini ta’kidlab o‘tganlar bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ular qatorida o‘z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muhrlayotgan Y.Tursunnazarov, B.Salomov, I.Baxromov, Ch.Bekmirov, M.Nuriddinov, O.Bakirov, B.Nazarov va boshqalarni sanab o‘tish lozim.

Nazorat savollari

1. Rangtasvirning qanday janrlari bor?
2. Rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradigan janr nima deb ataladi?
3. Turli afsonalar va rivoyatlar asosida yaratilgan bo‘lib, kishilarni ezgulikka, porloq kelajak sari undovchi janrning nomi nima?
4. Portret janrining qanday turlari mavjud?
5. Tasviriy san’atda qaysi janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o‘zida mujassamlashtirgan?
6. Qaysi janr ustalari hayvonot dunyosiga zo‘r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi?
7. Qaysi janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o‘rinni egallaydi?

8. Qaysi janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz?

9. Qaysi janrda rassomkar asosan insonni o‘rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, oziq–ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi?

10. Qaysi janridagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi?

Ta’lim - insonni ma’naviyat kamolot sari yetaklaydigan buyuk yo‘ldir.

Abdulla Qodiriy

II bob. AMALIY MASHG‘ULOTLAR

II.1-§. Gipsdan ishlangan o‘simlik shakllarining bir qismi (rozetka) ishtirokida natyurmort (grizayl usulida).

Natyurmort (fransuzcha “jonsiz jism”) - gullar, mevalar, maishiy buyumlar va me’moriy elementlarni maxsus kompozitsiyaga birlashtiruvchi janrdir. Ushbu darsda gipsli rozetka (me’moriy shakl) markaziy ob’ekt bo‘lib xizmat qiladi. Ish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Kompozitsion yechim va konstruktiv qurilish. Ishni boshlashdan avval planshet o‘lchamiga moslab (gorizontal yoki vertikal) kichik o‘lchamda eskizlar qilinadi. Bu jarayonda “oltin kesim” qoidalariga amal qilib, asosiy ob’ekt bo‘lgan gips rozetkani kompozitsiya markaziga to‘g‘ri joylashtirish lozim. Ob’ektlarni shunchaki mexanik tanlamasdan, ularni yaxlit guruh qilib joylashtirish, buyumlarning bir-birini vizual to‘sib qo‘ymasligiga va qog‘oz chetlariga juda yaqin kelib qolmasligiga e’tibor berish kerak.

Konstruktiv qurish jarayonida buyumlarning tashqi ko‘rinishi va nisbatlari chiziqli perspektiva qonunlari asosida, yengil qalam chiziqlari bilan qurib olinadi. Bunda har bir detalning balandligi, eni va bir-biriga nisbatan o‘rni (proportsiyasi) qat’iy o‘lchovlar orqali aniqlanadi. Ayniqsa, rozetkaning simmetriya o‘qi va markaziy nuqtalarini aniq belgilash, uning tekislikdagi og‘ish burchagini to‘g‘ri ko‘rsatish keyingi bosqichlarda hajm berishni osonlashtiradi.

Shuningdek, ushbu bosqichda yorug‘lik manbai yo‘nalishini aniqlab, buyumlarning xususiy va tushuvchi soyalari chegarasini juda yengil shtrixlar bilan belgilab olish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi



71. Rasm. Birinchi bosqich

Ikkinchi bosqich grizayl usulida dastlabki tus (ton) berish. Grizayl - natyurmortni bitta rangda (odatda jigarrang (sepiya) yoki qora (tuş, akvarel)) tasvirlash usuli bo‘lib, u murakkab rangli tasvirga o‘tishdan oldingi eng muhim tayyorgarlik bosqichidir. Bu bosqichda asosiy e’tibor rangga emas, balki buyumlarning tonal nisbatlariga, ya’ni yorug‘ va soya joylarining o‘zaro farqlanishiga qaratiladi.

Ishni bajarishda "yuqoridan pastga" qoidasiga amal qilinadi, bu esa bo‘yoqning keraksiz oqib tushishini oldini oladi. Fon uchun neytral ranglar tanlanib, havodorlik va fazoviy chuqurlikni (havo perspektivasi) ta’minlash uchun fonning yuqori qismi ochroq, pastki (buyumlarga yaqin) qismi esa bosqichma-bosqich to‘qlashtirib boriladi.

Eng yorug‘ nuqtalar (blik) va nur tushib turgan tekisliklar bo‘yoq hali namligida salfetka yoki quruq mo‘yqalam bilan artib olinadi. Bu bosqichda rasmda sovuq nur va issiq soya muvozanatiga poydevor qo‘yiladi: ya’ni yorug‘lik tushgan joylar shaffof va yengil, soyalar esa nisbatan to‘q va "zich" qilib ko‘rsatiladi. Bu esa buyumlarning gips materiali va mevalarning plastik shaklini ochib berishda asosiy rol o‘ynaydi.



72. Rasm. Ikkinchi bosqich

Uchinchi bosqich shakl modellashtirish va detallashtirish. Ushbu bosqichda natyurmortning umumiy massasiga hajm va plastik ko‘rinish beriladi. Shaklni modellashtirishda akademik rangtasvirning hajm berish besh qoidasi: blik (eng yorqin nuqta), nur, yarim soya (poluten), xususiy soya va refleks (qaytma nur) munosabatlariga qat'iy amal qilinadi.

Mo‘yqalam surtmalari (mazoklar) shunchaki bo‘yalmasdan, balki buyumning konstruktiv shakli va yo‘nalishi bo‘yicha harakatlantiriladi. Masalan, rozetkaning egilgan barglarida surtmalar bargning o‘sish yo‘nalishini takrorlashi kerak. Gips rozetkaning o‘simliksimon murakkab naqshlari, mato burmalaridagi har bir kichik detal va idishlarning hajmi tuslar (tonlar) munosabati orqali aniqlashtiriladi.

Har bir buyumning yoritilgan tomoni fonga nisbatan doimiy ravishda taqqoslanadi. Bunda "chetki kontrast" qoidasidan foydalanib, buyumning yorug‘ tomoni fonning to‘q qismida, soya tomoni esa fonning och qismida yaqqol ko‘rinishi ta'minlanadi. Bu esa natyurmortda fazoviy chuqurlik va realistik hajmni yuzaga keltirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.



73. Rasm. Uchinchi bosqich

4-bosqich: Umumlashtirish va yakunlash. Ushbu yakuniy bosqichda tasvirning umumiy koʻrinishi boʻlaklarga boʻlinib ketmasligi uchun barcha qismlar bir-biriga mantiqiy bogʻlanadi va asar yagona toʻq-ochlik muvozanatiga keltiriladi. Bu jarayonda havo perspektivasi qonunlariga qat'iy amal qilinadi: ya'ni, birinchi plandagi (oldindagi) detallar, mevalarning fakturasi va rozetka qirralari aniq va keskinroq ishlanib, vizual ravishda oldinga olib chiqiladi. Orqa fon va uzoqlashuvchi mato burmalari esa kontrastni kamaytirgan holda yumshoqroq (rasm tekisligiga singdirib) tasvirlanadi.

Akvarel boʻyogʻining quriganidan soʻng 20-30% gacha oqarish xususiyatini (poblednenie) hisobga olib, asarning eng toʻq soya qismlarida tonlar qayta kuchaytiriladi. Bu bosqichda "yakuniy urgʻu" (aksent) berish muhim hisoblanadi. Bunda eng yorugʻ nuqta (blik) va eng toʻq soya oʻrtasidagi masofa tekshiriladi - bu rasmning dinamikasi va hajmini belgilaydi.



74. Rasm. To‘rtinchi bosqich

Ish yakunida tasvir masofadan turib yana bir bor umumiy ko‘zdan kechiriladi. Agar biron bir detal haddan tashqari ko‘zga tashlanib, yaxlitlikni buzayotgan bo‘lsa, u yumshatiladi. Eng yorug‘ va eng to‘q nuqtalar o‘rtasidagi uyg‘unlik, ranglar mutanosibligi hamda havo muhiti to‘liq ta’minlangan holda ijodiy ishga yakun yasaladi.

Nazorat savollari

1. Rasm chizishni boshlashda ob’ektlarni qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish uchun qaysi mashhur qoidaga amal qilish tavsiya etiladi?

2. Gips rozetka kabi murakkab shakllarni xatosiz chizish uchun uning qaysi qismlarini (o‘qlarini) birinchi bo‘lib aniqlab olish kerak?

3. Grizayl usulida rasm chizishda asosiy e’tibor rangga qaratiladimi yoki narsalarning och-to‘qlik (ton) darajasigami?

4. Natyurmortda havodorlik va chuqurlik paydo bo‘lishi uchun fonning yuqori va pastki qismlari qanday bo‘yalishi lozim?

5. Mevaning yoki buyumning hajmini (shaklini) ko‘rsatib beruvchi 5 ta asosiy nur-soya qoidasini sanab bering.

6. Rasm bitganidan keyin nima uchun unga bir oz masofadan (uzoqdan) qarab tahlil qilish muhim hisoblanadi?

MUSTAQIL TA’LIM



75. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

II.2-§. Kuz ne’matlaridan tuzilgan natyurmortlar tasvirlash

Natyurmortni tuzishda mavzu tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan buyumlarimiz mavzuga mos kelishi, ularning hajmlari va ranglarining xilma-xilligi natyurmort kompozitsiyasining qiziqarli chiqishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qoladi. Natyurmort tuzilganda, buyumlar bir guruh qilib qo‘yilsa-da, ular bir-birini to‘sib qo‘ymasligi lozim. Yirik narsalar orqaga, uning atrofiga kichikroq va oldinga kichik, maydaroq narsalar, masalan, mevalarni savatga solingan holatda yoki o‘zini alohida qulayroq joylashtirib qo‘yish maqsadga muvofiq. Ular mazmun va mohiyati jihatidan bir-birlariga mos kelishi kerakligini ham nur tushishi, yorug‘likning miqdor darajasi va soyalarni to‘g‘ri topilishini aniqlik kiritib boriladi. Bu gal ham aynan shu an’anaga amal qilgan holda mato va mevalar qo‘yamiz. Natyurmortimizda meva va mato tasvirlangan bo‘lib, kompozitsiya juda muvozanatli va jozibali tuzilgan.



76. Rasm. Natyurmort

Orqa fonda och kulrang-oq rangli mato osilgan bo‘lib, u yumshoq burmalari bilan rasmga havo va chuqurlik beradi. Bu mato och rangda bo‘lsa-da, yorug‘lik tushishi tufayli pastki qismida sovuq kulrang soyalar hosil bo‘lib, asosiy ob’ektlarni yanada yorqin ajratib turadi.Natyurmort yorug‘ligi faqat bir tomondan – o‘ng yuqori

burchakdan tushmoqda. Bu yorug‘lik mevalarning yuzasida aniq yorug‘lik va soya munosabatlarini hosil qilgan. Yorug‘likning yo‘nalishi taxminan 45 gradus burchak ostida, natyurmortning chap yon tomonidan tushmoqda.

Kompozitsiyani shartli ravishda uch planga bo‘lamiz:

Orqa plan: bananlar guruhi – eng baland nuqta, kompozitsiyaning markaziy dominantidir. Bananlarning hajmi va sariq rangi tufayli ko‘z birinchi shu yerga qadalganda, butun rasmni boshqaradi.

O‘rta plan: qizil olma (chapda), to‘q binafsha uzum va sariq-yashil nok (o‘ngda). Bu ob’ektlar bananlardan biroz pastroqda joylashgan bo‘lib, kompozitsiyani muvozanatlashtiradi.

Oldingi plan: yorqin to‘q sariq apelsin – eng yaqin joylashgan ob’ekt bo‘lib, ko‘rish nuqtasiga eng yaqin tushadi. Uning hajmi va rangi tufayli fazoda oldinga chiqib turadi.

Ob’ektlar bir-birini to‘sib qo‘ymagan, har biri aniq ko‘rinib turadi. Kichikroq uzum va olma oldinga joylashtirilgan bo‘lib, katta bananlar va apelsin esa o‘z hajmiga mos ravishda orqaroq va oldinroq joylashgan. Barcha mevalar bitta dumaloq stol ustida joylashgan, stol oq-kulrang mato bilan qoplangan.

Ko‘rish nuqtasi natyurmort sathidan biroz yuqorida joylashgan – taxminan 30-40 sm balandlikda. Natyurmort va ko‘z orasidagi masofa 2-2,5 metr atrofida, bu esa butun kompozitsiyani yaxlit holda ko‘rish imkonini beradi.

Kompozitsiya vertikal formatda tuzilgan bo‘lib, bananlarning vertikal yo‘nalishi va mato burmalari bu formatni yanada mustahkamlaydi. Rang jihatidan issiq (sariq, to‘q sariq, qizil) va sovuq (binafsha uzum, kulrang fon) ranglar muvozanatli taqsimlangan.


Perspektiva qisqarishi to‘g‘ri saqlangan: stolning dumaloq shakli engil ellips sifatida ko‘rinadi, oldingi apelsin eng katta, orqadagi bananlar esa biroz kichikroq ko‘rinadi. Barcha ob’ektlarning hajmi, joylashuvi va o‘zaro nisbati juda aniq va tabiiy.

Shu sababli, ushbu natyurmort kompozitsiyasi klassik natyurmort qoidalariga to‘liq mos keladi va uni Krita’da chizish uchun ideal referens hisoblanadi.

Krita dasturida ishni boshlash bosqichlari

Ushbu mavzu mevali natyurmortni raqamli grafikada akademik uslubda tasvirlash mahoratini oshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, ish jarayoni to‘rt asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda ishchi maydonni shakllantirish va kompozitsion asos. Dastlab yuqori sifatli va vertikal formatdagi kanvasni sozlash uchun Файл (Fayl - tizimli amallar menyusi) menyusidan Создать (Yangi - bo‘sh ishchi maydon yaratish buyrug‘i) tanlanadi. Ochilgan oynada kenglik, balandlik va piksellar zichligi ko‘rsatkichlari belgilanib, tasdiqlanadi.




77. Rasm. Ishchi maydonni shakllantirish

Manba rasmni yuklash (import)

Kompyuter xotirasidan rasm dastur ichiga tortib boriladi.Rasm dastur ichiga tushgach rasmni doimiy nazorat qilib turish uchun asboblar panelidan **Эталонные изображения** (*Manba tasvirlar*


asbobi - chizish jarayonida doimiy ko‘z oldida turishi uchun namunaviy tasvirlarni ishchi maydonga yuklash, ularning o‘lchamini o‘zgartirish va shaffofligini sozlash imkonini beruvchi yordamchi asbob) tanlab olinadi. Keyingi bajariladigan vazifa joylangan rasmga qarab rasm ning 1-bosqichi –qoralamasini chizish bo‘ladi. Bu bosqichda chizish uchun Кисть (*Cho‘tka - raqamli tasvirlashning asosiy ishchi asbobi bo‘lib, u polotnoga rang berish, turli badiiy effektlar, teksturalar va shtrixlar hamda eskiz yaratish uchun xizmat qiladi*) yordamida natyurmortning barcha predmetlari o‘zaro nisbatlarda joylashtiriladi va tasvirning chiziqli qoralamasi to‘liq yakunlanadi.

Ushbu jarayonda cho‘tka yordamida kuz in’omlarining (banan, olma, uzum, nok va apelsin) umumiy shakli va konstruktiv qurilishi aniqlashtirilib, keyingi bosqichlarda lokal ranglarni to‘g‘ri qo‘llash uchun mustahkam poydevor yaratiladi.



78. Rasm. Cho‘tka va ranglar bilan amaliy ishlash bosqichi

Ikkinchi bosqichda lokal ranglar bilan ishlash va qatlamlarni sozlash. Natyurmortning rang balansi asosini yaratish uchun har bir predmet uchun Слои (qatlamlar - tasvir elementlarini bir-biriga zarar yetkazmasdan alohida ishlash imkonini beruvchi panel) panelida mustaqil qatlam ochiladi. Avvalo, bananlar uchun yangi qatlam ochilib, sarg‘ish lokal rang bilan Wet_Paint_Thick cho‘tkasi yordamida eskiz ichi to‘liq to‘ldiriladi. Navbatdagi qadamlarda qizil olma, uzum, sariq nok va apelsin kabi kuz in’omlari uchun ham alohida qatlamlar yaratilib, har bir meva o‘zining asosiy (lokal) rangiga ega bo‘ladi.



79. Rasm. Uchinchi bosqich

Uchinchi bosqichda hajm berish, nur-soya va reflekslar ustida ishlash. Ushbu jarayonda ranglarni moyli bo‘yoq kabi tabiiy aralashtirish uchun Кисть (cho‘tka - polotnoga rang berish va effektlar yaratish asbobi) ro‘yxatidan color_smudge_bristle_thick tanlanadi. Bu cho‘tkaning asosiy maqsadi ranglarni yumshoq aralashtirishni ta’minlashdir. Soya va yorug‘lik orqali shaklning hajmiga erishish uchun har bir meva qatlamida mos ranglar tanlanadi va rangni aralashtirish - ranglarni surish va bir-biriga singdirish funksiyasi) yordamida ishlanadi. Bunda meva pastki qismlariga qo‘shni buyumlardan qaytgan nur - Рефлекс (Qaytma nur - atrofdagi predmetlar rangining soya qismida aks etishi) ranglari qo‘shilib, shakllar plastikasi aniqlashtiriladi. To‘rtinchi bosqichda detallashtirish, filtrlar va yakuniy yaxlitlash. Barcha detallar chizib bo‘linganidan so‘ng, tasvirni umumlashtirish uchun barcha qatlamlar Объединить слои (Qatlamlarni birlashtirish - barcha qatlamlarni bitta yaxlit qatlamga aylantirish) buyrug‘i orqali birlashtiriladi. Tasvirdagi keskinlikni yumshatish uchun yangi qatlamda Мягкий аэрограф (Yumshoq havo cho‘tkasi - ranglarni o‘ta mayin va shaffof purkash asbobi) bilan past Непрозрачность (Shaffoflik - qatlam yoki cho‘tkaning ko‘rinish darajasi ko‘rsatkichi)da yengil surib chiqiladi. So‘ngra Фильтр (Filtr - badiiy effektlar berish vositasi) menyusidan Настройка цвета (Rangni sozlash - rang to‘yinganligi va yorqinligini o‘zgartirish) bo‘limidagi Кривые (Egrilar - kontrastni grafik chiziq

orqali aniq boshqarish vositasi) tanlanib, rasmga yakuniy jilo beriladi. Tayyor asar Экспортировать (eksport qilish - tasvirni umumiy grafik formatlarga o‘tkazish buyrug‘i) buyrug‘i orqali saqlanadi.



80. Rasm. Tugallangan natyurmort

https://www.youtube.com/watch?v=tUGPdUN8B7g

Nazorat savollari

1. Kompozitsiya qoidasi: Natyurmort tuzishda buyumlarni joylashtirishdagi asosiy qoidalar qanday? (Masalan, yirik va kichik narsalar qanday joylashtiriladi?)

2. Yorug‘lik manbai: Ushbu natyurmortda yorug‘lik qaysi tomondan va taxminan necha gradus burchak ostida tushmoqda?

3. Planlar: Natyurmort kompozitsiyasi shartli ravishda qanday uch planga bo‘lingan va har bir plandagi asosiy ob’ektlar nimalardan iborat?


4. Krita sozlamalari: Yuqori sifatli (bosma uchun yaroqli) vertikal formatdagi rasmni yaratish uchun kanvasning standart o‘lchamlari (Kenglik, Balandlik, O‘lcham) qanday belgilangan?

5. Lokal ranglar va cho‘tkalar: Natyurmortni ranglashning dastlabki bosqichida mevalarga nima uchun alohida qatlamlar

ochiladi va Bananlar uchun qanday rang (Hex-kod) hamda qaysi cho‘tka (nomi va o‘lchami) ishlatiladi?

6. Yakuniy ishlov: Rasmga yakuniy filtrlar va effektlarni qo‘llashdan oldin qanday operatsiya bajariladi va rasmning qismlari o‘rtasidagi keskinlikni yumshatish uchun qanday cho‘tka va shaffoflik darajasi ishlatiladi?


MUSTAQIL TA’LIM



81. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

II.3-§. Me’morchilik shakllari ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishlash (dekorativ usulda)

Bu vazifa talabaning gipsdan yasalgan murakkab arxitektura yodgorliklarining bir qismi bo‘lgan kapitel ishtirokida, qo‘shimcha jismlar (vaza, soat, olma, qog‘oz, turli xil rangdagi matolar va h.k.) **formalarni asta-sekin o‘rganishiga** yordam beradi. Mazkur ishda klassik akademik chizish tamoyillari ya’ni konstruktiv qurish, perspektiva va **dekorativ rangtasvir uslubi** uyg‘unlashtirib qo‘llaniladi.Krita dasturi ochiladi.




82.Rasm. Krita dasturini ishga tushirish

Новое изображение (Ctrl+ N) *(Yangi hujjat - bu buyruq noldan yangi bo‘sh ishchi maydon yaratish uchun ishlatiladi)* buyrug‘i dasturda noldan boshlab butunlay yangi va bo‘sh ishchi maydon yaratish uchun xizmat qiladi. Ushbu kombinatsiya bosilganda odatda maxsus parametrlar oynasi ochilib, foydalanuvchi yaratilajak tasvirning kengligi, balandligi, o‘lchov birligi, piksellar zichligi va rang rejimini o‘z ehtiyojiga qarab belgilaydi hamda tasdiqlangandan so‘ng dastur belgilangan o‘lchamlardagi toza varaqni tahrirlash uchun tayyorlab beradi. (82-rasm)

Открытие изображение (Ctrl+ O) *(Tasvirni ochish-kompyuter xotirasida mavjud bo‘lgan faylni tahrirlash uchun dasturga yuklash)* buyrug‘i kompyuter yoki tashqi xotira qurilmalarida avvaldan saqlangan grafik fayllarni dastur muhitiga yuklash va ularni

ekranda ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Ushbu kombinatsiya bosilganda maxsus muloqot oynasi ochilib, foydalanuvchiga kerakli papkadan kerakli formatdagi rasmni tanlash imkonini beradi va tanlov amalga oshirilgach dastur ushbu fayl ma’lumotlarini o‘qib uni tahrirlash yoki ko‘rish uchun ishchi maydonga joylashtiradi. (82-rasm)

Создать (*Yaratish*) tugmasi barcha tanlangan texnik parametrlar, jumladan tasvirning kengligi, balandligi, ruxsati va rang modelini tasdiqlab, Krita dasturida yangi bo‘sh ishchi maydonni (polotnoni) shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ushbu tugma bosilganda dastur kiritilgan o‘lchamlar va rang profili asosida operativ xotiradan joy ajratadi, barcha sozlamalarni amaliyotga tatbiq etib, foydalanuvchiga chizish, dizayn yaratish yoki tahrirlash ishlarini boshlash uchun toza varaqni taqdim etadi.) (83-rasm)



83. Rasm. Krita dasturini ishga tushirish

Krita grafik dasturida dekorativ natyurmort ishlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma talabalarning gipsdan yasalgan murakkab dekorativ element - akant bargi (gips relyefi) hamda


qo‘shimcha jismlar (vaza, soat, olma, matolar) ishtirokidagi natyurmortni raqamli grafikada dekorativ uslubda tasvirlash mahoratini oshirishga mo‘ljallangan. Ishni boshlashda **Файл (***Fayl-dasturning asosiy menyu bo‘limi bo‘lib, u yerda hujjatlar bilan ishlash (yaratish, ochish, saqlash) va dasturdan chiqish kabi barcha tizimli amallar jamlangan***)**

Создать (*Yangi-dasturda yangi chizma yoki loyiha boshlash uchun bo‘sh ishchi maydonni (polotnoni) yaratish buyrug‘i.***)** buyrug‘i orqali yuqori aniqlikdagi kanvas yaratiladi va dastlabki




84. Rasm. Birinchi bosqich

Birinchi bosqichda konstruktiv chizma va kompozitsiya jarayonida shakllar soddalashtirilgan chiziqli asosda belgilanadi. Bunda **Слои** *(Qatlamlar-tasvirning turli elementlarini (eskiz, rang, soya) bir-biriga zarar yetkazmasdan, alohida-alohida ishlash imkonini beruvchi shaffof varaqlardan iborat panel***)** panelida yangi **Эскиз (***Eskiz-bo‘lajak asarning umumiy kompozitsiyasi va shakllarini belgilab beruvchi dastlabki chiziqli qoralama***)** qatlami ochilib, **Карандаш (***Qalam-tabiiy qalam effektini beruvchi, asosan eskiz chizish va nozik konturlarni shakllantirish uchun ishlatiladigan cho‘tka turi***)** yordamida gips relyefining plastik yechimi, soat va olma kabi jismlarning o‘zaro nisbatlari aniq chizib chiqiladi (86-rasm).




85. Rasm. Qatlam ochish



86. Rasm. Qalam tanlash

Chizma yakunlangach, keyingi bosqichlarga xalaqit bermasligi uchun qatlamning **Непрозрачность (***Shaffoflik-tanlangan qatlam yoki cho‘tkaning ko‘rinish darajasini boshqaruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u rasm qismlarini bir-birining ustiga yengil tushirish (masalan, eskizni xiralashtirish) uchun xizmat qiladi* **)** qiymati pasaytiriladi (87-rasm)




87. Rasm. Ikkinchi bosqich

Keyingi bosqichda lokal ranglar va dekorativ soya bloklari ustida ishlanadi, bunda har bir yirik element uchun alohida Слои (*Qatlamlar*) ochilib, obyektlar yuzasi qattiq chetli Кисть (*Cho‘tka-raqamli tasvirlashning asosiy ishchi asbobi bo‘lib, u polotnoga rang berish, turli badiiy effektlar, teksturalar va shtrixlar yaratish uchun xizmat qiladi.*) yordamida tanlangan kontrastli ranglar bilan tekis to‘ldiriladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun Bezye egri chiziqli tanlash asbobidan foydalanamiz.


Выделение кривыми Безье (*Bezye egri chiziqli tanlash asbobi***)-** foydalanuvchi tomonidan belgilangan tugun nuqtalari va ular

orasidagi boshqariladigan egri chiziqlar yordamida rasmning murakkab, nozik shaklli qismlarini o‘ta aniqlik bilan ajratib olish uchun xizmat qiladi. Ushbu asbob tanlanganda va obyekt konturi bo‘ylab nuqtalar qo‘yilganda, dastur har bir chiziqni manipulyatorlar yordamida egish imkonini beradi, bu esa gips relyefi kabi plastik shakllarning chegaralarini xatosiz qamrab olishni ta’minlaydi. Yakuniy nuqta boshlang‘ich nuqta bilan tutashtirilganda, asbob barcha sozlamalarni amaliyotga tatbiq etib, foydalanuvchiga tanlangan soha ichida rang to‘ldirish, tahrirlash yoki dekorativ konturlar yaratish uchun aniq chegaralangan ishchi maydonni taqdim etadi. (88-rasm)



88. Rasm. Bezye egri chiziqli tanlash asbobi

Dekorativ uslubning o‘ziga xosligi shundaki, ranglar o‘zaro silliq aralashtirilmaydi, balki soya qismlari asosiy rangdan bir ton to‘qroq rang bilan aniq “blok hajmi” sifatida qo‘yiladi. (89-rasm)



89-rasm. Uchinchi bosqich


Tasvirga hajm berish jarayoni **uchinchi bosqich hajm va detallarni soddalashtirish** qismida davom ettirilib, hajm bloklari chuqurlashtiriladi va yorug‘lik tushgan joylarga keskin chiziqlar, soya

qismlariga esa fondan qaytgan yorqin qaytma nur *(refleks)* ranglari qo‘shiladi, bunda shakllar plastikasi aniqlashtirib boriladi.




90. Rasm.

Yakuniy to‘rtinchi bosqich: Kontur, tekstura va yakuniy yaxlitlash qismida ishga to‘liq dekorativ jilo berish uchun yangi qatlam ochilib, qattiq cho‘tka bilan har bir obyekt atrofidan **kuchli kontur chizig‘i** o‘tkaziladi hamda soat raqamlari, gips relyefi qirralari kabi nozik detallar aniqlashtiriladi. Tasvirning yaxlitligini ta’minlash maqsadida **Фильтр (***Filtr-tasvirga turli badiiy effektlar (masalan, xiralashtirish, keskinlashtirish yoki tekstura qo‘shish) berish uchun ishlatiladigan dasturiy vosita***) - Настройка цвета (***Rangni sozlash-tasvirdagi ranglarning to‘yinganligi, yorqinligi va tonlarini o‘zgartirish jarayonini anglatadi.***)** oynasi tanlanadi hamda **Кривые (***Egrilar- tasvirning kontrastini va yorug‘lik darajasini grafik chiziq (egri chiziq) orqali juda aniqlik bilan boshqarish funksiyasi.***)** vositasi orqali kontrast va to‘yinganlik darajasi sozlanadi. (91-rasm)



91. Rasm.

Tayyor bo‘lgan akademik va dekorativ yechimga ega asar **Файл (***Fayl dasturning asosiy menyu bo‘limi bo‘lib, u yerda hujjatlar bilan ishlash (yaratish, ochish, saqlash) va dasturdan chiqish kabi barcha tizimli amallar jamlangan.* **-) -Экспортировать (***Eksport qilish- krita dasturining ichki ishchi formati (.kra) bo‘lgan tasvirni boshqa dasturlarda ko‘rish yoki ijtimoiy tarmoqlarga joylash uchun mos keladigan umumiy formatlarga (masalan, PNG, JPG, PDF) o‘tkazish va saqlash vazifasini bajaradi.***)** buyrug‘i orqali saqlanadi. (92-rasm)



92. Rasm. Saqlash



93.Rasm. Tugallangan bosqich

Nazorat savollari


1. Krita dasturida noldan yangi bo‘sh ishchi maydon yaratish uchun qaysi buyruq ishlatiladi va bu jarayonda tasvirning qanday texnik parametrlari belgilanadi?

2. Natyurmort chizishning 1-bosqichida shakllarni soddalashtirilgan chiziqli asosda belgilashda Layers (Qatlamlar) va Pencil (Qalam) asboblarining vazifasi nimadan iborat?

3. Выделение кривыми Безье (*Bezye egri chiziqli tanlash asbobi*) gips relyefi kabi plastik shakllarning chegaralarini aniqlashda qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?

4. Tasvirdagi kontrast va to‘yinganlik darajasini professional darajada sozlash uchun Filter (Filtr) menyusining qaysi oynalari va vositalaridan foydalaniladi?

MUSTAQIL TA’LIM



94. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

II.4-§. Xona interyerida buklamalardan tuzilgan natyurmort

Natyurmort ustida ishni boshlash uchun eng avvalo ish joyini to‘g‘ri tashkil etish va qog‘ozni texnik talablarga muvofiq tayyorlab olish lozim. Metodikaning birinchi bosqichi qog‘ozni to‘liq namlash jarayoni bo‘lib, bu asosan akvarelning nam uslubi (alla prima) uchun xizmat qiladi. Bunda yuqori sifatli, paxta tolali (100% cotton) va qalinligi kamida 300 gramm bo‘lgan maxsus akvarel qog‘ozidan foydalanish tavsiya etiladi.

Qog‘ozni namlashda uni avval orqa tomonidan, so‘ngra old (yuz) tomonidan keng mo‘yqalam yoki gubka yordamida mo‘l suv bilan namlanadi. Suv qog‘oz tolalari orasiga chuqur singishi uchun bir

necha daqiqa kutiladi. Bu jarayon qog‘ozning silliq yozilishini ta’minlaydi va bo‘yoqlarning bir-biri bilan mayin aralashib, nafis rang jilolari hosil qilishiga imkon beradi. Shuningdek, qog‘oz nam holatda o‘z shaklini uzoqroq saqlashi uchun uni oyna yoki maxsus planshet ustiga nam doka yordamida yopishtirib qo‘yish ham metodik jihatdan samarali hisoblanadi.



95. Rasm. Birinchi bosqich

Ikkinchi bosqichda bevosita ranglar ustida ishlashga, ya’ni fon va umumiy rang nisbatlarini belgilashga o‘tiladi. Bu jarayonda akvarelning asosiy xususiyati - shaffoflikni saqlab qolish uchun ish yuqoridan pastga qarab, keng va erkin surtmalar bilan bajariladi. Fon uchun tanlangan neytral ranglar (Sian va tabiiy siyena aralashmasi) kompozitsiyadagi asosiy buyumlarni (rozetka va mevalarni) bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Havodorlik va fazoviy kenglik (svetovozdushnaya perspektiva) effektini yaratish maqsadida fonning yuqori qismi ochroq, pastki qismi esa bosqichma-bosqich to‘qlashtirib boriladi.

Jarayonning eng mas’uliyatli qismlaridan biri - yorug‘lik tushib turgan (blik) joylarni asrab qolishdir. Buning uchun bo‘yoq hali namligida salfetka yoki quruq mo‘yqalam yordamida kerakli joylar artib olinadi, bu esa rasmda tabiiy yaltiroqlik hosil qiladi. Shuningdek, ushbu bosqichda rasmning umumiy koloritiga poydevor qo‘yiladi: akademik qoidalarga ko‘ra, sovuq nur va issiq soya muvozanati (yoki aksincha) qat’iy o‘rnatiladi. Bu ranglar o‘rtasidagi kontrast

natyurmortning jozibadorligini va professional darajada ko‘rinishini ta’minlaydi.



96. Rasm. Ikkinchi bosqich

Uchinchi bosqichda asosiy ob’ektlar - choynak va uning detallari ustida ishlanadi. Bunda akvarel qoidasiga ko‘ra och rangdan to‘q rangga qarab boriladi, choynakning dasta va qopqog‘i kabi detallari kichik mo‘yqalamda aniqlashtiriladi. Ob’ektga hajm berish uchun yorug‘likdan soyaga silliq o‘tish (perehod) hosil qilinadi, reflekslar va ob’ektni tekislikka mustahkamlovchi tushuvchi soyalar chiziladi.



97. Rasm. Uchinchi bosqich

Yakuniy to‘rtinchi bosqichda kompozitsiyaning markaziy qismlaridan biri bo‘lgan mevalarni tasvirlashga hamda asarni umumlashtirishga o‘tiladi. Akvarelning yorqinligi va jozibadorligini saqlab qolish uchun bu bosqichda suvni almashtirish va toza mo‘yqalamlardan foydalanish shart. Mevalar tasvirida ranglar loyqalanishining (грязь) oldini olish uchun bo‘yoqlar palitrada imkon qadar kam aralashtiriladi va qog‘ozga toza holda, yorqin mazoklar bilan tushiriladi.

Shaklni modellashtirishda akademik rangtasvirning hajm berish besh qoidasiga (blik, nur, yarim soya, xususiy soya va refleks) qat’iy amal qilinadi. Bunda meva sirtidagi eng yorug‘ nuqta (blik)dan boshlab, eng to‘q soya qismlarigacha bo‘lgan o‘tishlar mayin va aniq ishlanadi. Akvarel bo‘yog‘i quriganidan so‘ng o‘z pigmentining 20-30 foizini yo‘qotib, biroz oqarishini (poblednenie) inobatga olgan holda, kontrastni kuchaytirish uchun kerakli joylarda to‘q-ochlik muvozanati qayta aniqlashtiriladi.



98. Rasm. To‘rtinchi bosqich

https://www.youtube.com/watch?v=vvwb6xf_akY

Ishning so‘ngida barcha qismlar - gips rozetka, mevalar va fondagi mato burmalari bir-biri bilan mantiqiy bog‘lanadi. Oldingi plandagi detallarga urg‘u berilib, orqa fon yumshoqroq holatga

keltiriladi. Shu tariqa barcha bo‘laklar yaxlit kompozitsion muvozanatga keltirilib, natyurmort tugallangan ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Rasm chizishni boshlashdan oldin qog‘ozni nima uchun suv bilan namlab olish kerak?

2. Fonni bo‘yayotganda nega tepadan pastga qarab tushiladi va nima uchun fonning pasti to‘qroq qilinadi?

3. Rasmda quyosh nuri tushib turgan eng yorug‘, yaltiroq joylarni qanday hosil qilish mumkin?

4.Mevaning dumaloq va hajmdor bo‘lib ko‘rinishi uchun qanday qoidalarga (nur-soya) amal qilish kerak?

5. Akvarel bo‘yog‘i qurigandan keyin rangi o‘zgaradimi (oqaradimi) va buni qanday to‘g‘rilash mumkin?

MUSTAQIL TA’LIM








99. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

II.5-§. Baxor gullaridan tuzilgan natyurmort dekorativ yo‘nalishda (lola, nastarin va turli xil gullar bo‘lishi mumkin) tasvirlash

Dekorativ natyurmort - bu realistik tasvirdan farqli o‘laroq, shakllarni biroz erkin, stilizatsiya qilingan va grafik chiziqlar yordamida tasvirlash san’atidir. Bu uslubda ashyolarning hajmi va rangi haqiqiy holatidan ko‘ra ko‘proq ularning ramziy ma’nosi va plastik jozibasiga urg‘u beriladi. Ushbu darsda biz vaza, gullar va mevalardan tashkil topgan kompozitsiyani qadam-baqadam chizishni o‘rganamiz.

Darsning asosiy maqsadi - ashyolardagi tabiiy shakllarni geometrik va naqshinkor ko‘rinishga keltirish (stilizatsiya) hamda ranglar kontrastidan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ish jarayoni uchun akvarel (yoki tush), qora marker va qora guash (fon uchun) kerak bo‘ladi. Akademik yondashuv va dekorativ yechimni uyg‘unlashtirgan holda, ishni quyidagi 4 bosqichda bajaramiz.

Shuni yodda tutish kerakki, dekorativ natyurmortda ranglar “tekis” ko‘rinishda ishlatilsa-da, qora chiziqlar (kontur) va oq bo‘shliqlar tasvirning dinamikasini belgilaydi. Bu jarayon talabadan nafaqat chizish mahoratini, balki ashyolarning ichki tuzilishini dekorativ nuqtayi nazardan ko‘ra bilishni ham talab etadi.

Birinchi bosqichda kompozitsion joylashtirish va konstruktiv qurishni o‘rganamiz. Ishni boshlashdan avval qog‘ozda narsalarning o‘rnini (kompozitsiyasini) to‘g‘ri belgilab olamiz. Bunda qog‘ozning chetlaridan ma’lum masofada bo‘sh joy qoldirish ob’ektlarning siqilib qolmasligini ta’minlaydi. Kompozitsiyaning markaziy ob’ekti - asosiy vaza bo‘lib, u oldingi planda asosiy diqqat markazi sifatida joylashadi.

Konstruktiv bosqichda yengil qalam chiziqlari yordamida simmetriya o‘qi (markaziy vertikal chiziq) o‘tkaziladi. Bu chiziq buyumning turg‘unligini belgilaydi. Vazaning chap va o‘ng tomonlari o‘zaro teng bo‘lishi uchun gorizontal yordamchi chiziqlar o‘tkazilib, ular yordamida buyumning eni va bo‘yi aniq o‘lchab olinadi.

Dekorativ natyurmortning o‘ziga xosligi shundaki, unda shakllarning biroz qiyshiq yoki deformatsiyalangan bo‘lishi qo‘pol xato hisoblanmaydi, balki asarga o‘ziga xos badiiy joziba bag‘ishlaydi. Shunday bo‘lsa-da, akademik tartib va chizish savodxonligini saqlab qolish uchun ularni proportsional (o‘zaro mutanosib) chizishga harakat qilinadi.

Asosiy vazadan so‘ng orqa plandagi ikkinchi vaza, mevalar (olma) va gullarning (lolalar) umumiy ko‘rinishi doira, uchburchak kabi oddiy geometrik shakllar ko‘rinishida joylashtiriladi. Bu usul kompozitsiyaning umumiy muvozanatini (balansini) tekshirib olishga va ashyolar orasidagi fazoviy masofani to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi.



100. Rasm. Birinchi bosqich

Ikkinchi bosqichda tonal taqsimot va yorug‘-soya chegaralarini belgilash vazifasini o‘rganamiz. Ushbu bosqichda dekorativ uslubning o‘ziga xos va eng jozibali xususiyati - hajm berishning chiziqli (shartli) usulidan foydalanamiz. Realistik tasvirdan farqli o‘laroq, biz bu yerda mayin o‘tishlardan emas, balki aniq chegaralangan chiziqlardan foydalanamiz.

Vazani va mevalarni shakliga qarab bir necha vertikal yoki gorizontal bo‘laklarga (polosalar) ajratamiz. Bu bo‘laklar yorug‘likdan soyaga o‘tishning tonal gradatsiyasini grafik ko‘rinishda ifodalaydi. Akademik qoidalarga binoan, buyumning eng chetki qismi - to‘q soya, undan keyingisi - yarim soya va eng markaziy (yorug‘lik manbayiga qaragan) qism - yorug‘lik deb belgilanadi.

Ushbu usulda chizilgan chiziqlar rasmga nafaqat dekorativ ritm va dinamika bag‘ishlaydi, balki narsalarning tekis bo‘lib qolmasdan, hajmdor (sharsimon yoki silindrsimon) ko‘rinishini ham ta’minlaydi. Har bir bo‘lakning kengligi buyumning hajmi qanchalik aylanishiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Shu bilan birga, gullarning barglari va markaziy qismlari ham murakkab tabiiy ko‘rinishdan oddiy, stilizatsiya qilingan umumiy shakllarga keltirib olinadi. Har bir lola bargi yoki gultojibargi ham

xuddi shunday tonal qismlarga bo‘linishi mumkin, bu esa butun kompozitsiyada yagona dekorativ uslubning saqlanib qolishiga xizmat qiladi.



101. Rasm. Ikkinchi bosqich

Uchinchi bosqichda akvarel (grizayl) yordamida rang va ton berishni o‘rganamiz. Endi ishimizni rang, aniqrog‘i, asosan bir tonli grizayl uslubi - sepiya yoki jigarrang tuslar bilan boyitamiz. Akvarel bo‘yoqlari bilan ishlashda professional rassomlikning “yuqoridan pastga” qoidasiga qat’iy amal qilinadi; bu usul bo‘yoq qatlamlarining bir-biriga asossiz qo‘shilib ketmasligini va ishimiz toza chiqishini ta’minlaydi.

Vazaning soyali qismlari pigmentga boy, ya’ni eng to‘yingan (nasyishenniy) rangda bo‘yaladi. Yarim soyalar (poluten) qismi esa bo‘yoqni suv bilan ko‘proq suyultirish orqali olingan ochroq rang qatlami bilan qoplanadi. Yorug‘lik to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushgan joylar (blik) va nurli bo‘laklar akvarelning shaffoflik xususiyatidan foydalanib, mutlaqo bo‘yalmasdan, oq qog‘oz holida qoldiriladi. Bu rasmga tabiiy yorqinlik va hajm bag‘ishlaydi.

Lolalar va boshqa dekorativ gullar uchun qizil, to‘q qizil (krablak) va pushti ranglarning har xil tuslari ishlatilib, ularning plastik jozibasi oshiriladi. Barglar tasvirida esa yashil rangga jigarrang (sepiya) yoki qora rang qo‘shish orqali tabiatga xos bo‘lgan vazmin, og‘ir va to‘q yashil tuslar hosil qilinadi.

Ushbu bosqichda eng muhim talab - bo‘yoq barcha bo‘laklarda bir xil och (bledniy) bo‘lib qolmasligidir. Dekorativ natyurmortda ranglar va tonlar to‘yingan (nasishchenniy) va yorqin bo‘lishi shart. Ranglar kontrasti qanchalik aniq bo‘lsa, keyingi bosqichda bajariladigan grafik ishlov shunchalik effektli ko‘rinadi.



102. Rasm. Uchinchi bosqich

To‘rtinchi bosqichda grafik ishlov berish va fonni yakunlash. Bu yakuniy bosqichda asosan qora marker, gelli ruchka, liner yoki ingichka mo‘yqalamdan foydalanamiz. Grafika - dekorativ natyurmortning asosi va “qirolichasi” hisoblanib, u tasvirga aniqlik va tugallangan ko‘rinish bag‘ishlaydi. Avvalambor, barcha qalam chiziqlari hamda rangli chegaralar ustidan qora marker bilan o‘ta aniqlikda kontur chizib chiqiladi.

Vazaning va mevalarning soya qismlariga asarning badiiy qiymatini oshirish uchun qo‘shimcha dekorativ teksturalar (parallel shtrixlar, nuqtalar, kataklar yoki geometrik naqshlar) qo‘shiladi. Gullarning markaziga esa nuqtali chiziqlar va mayda tyachinkalar chizilib, ularning dekorativ xarakteri kuchaytiriladi. Bunda chiziqlarning qalin va ingichkaligi buyumning hajmini yanada bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Ishning eng mas’uliyatli va yakuniy qismi - fonni qora guash yoki o‘ta to‘yingan qora akvarel bilan tekis bo‘yashdir. Fon butunlay qora va "zich" bo‘lib yopilganda, markazdagi yorqin rangli lolalar, yashil barglar va qog‘ozning oq holida qoldirilgan bliklari kuchli kontrast hisobiga vizual ravishda "yaraqlab" ko‘zga tashlanadi.



103. Rasm. To‘rtinchi bosqich

Ushbu uslub, ya’ni qora fon va grafik chiziqlarning uyg‘unligi, ashyolarni havo muhitidan hamda odatiy fazoviy chuqurlikdan ajratib oladi. Bu esa narsalarni rasm tekisligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri birinchi planga olib chiqishga va ularning siluetini yanada aniqroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Dekorativ natyurmortda realistik soyaning yo‘qligi o‘rnini ranglar kontrasti va chiziqlar ritmi to‘ldiradi. Shu tariqa, rasmda qo‘llanilgan barcha yorqin ranglar, grafik chiziqlar va turli xil dekorativ teksturalar (nuqtalar, shtrixlar) o‘zaro mantiqiy uyg‘unlashadi.

Natijada, asar shunchaki buyumlar tasviri emas, balki yaxlit, mantiqan tugallangan va professional dekorativ ko‘rinishga ega bo‘lgan badiiy yechimga aylanadi. Bu bosqichda rassom o‘z ishiga uzoqdan nazar tashlab, hamma detallar umumiy dekorativ tartibga bo‘ysunganini tekshirib olishi bilan dars yakunlanadi.

Nazorat savollari

1. Dekorativ natyurmortni ishlashdan maqsad nima?
2. Ranglarning fazoviy xususiyati deganda nimani tushunasiz?
3. Yorqin ranglarga ta’rif bering.
4. Oldingi va orqa masofa ranglarda qanday farqlanadi?
5. Fazoviy kenglikni tushuntirib bering.

MUSTAQIL TA’LIM







104. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

II.6-§. Arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishlash (kapitel)

Birinchi bosqichda ishni qog‘oz yuzasida barcha ashyolarning o‘rnini qalamda yengil belgilashdan boshlaymiz. Ionik kapitel natyurmortning asosi sifatida markaziy ob’ekt etib tanlanadi. Uning turg‘unligini ta’minlash uchun markaziy vertikal o‘q hamda volyutalarning aylanish markazlari aniq chiziladi. Oldingi plandagi likopcha, mevalar va choynak kapitelga nisbatan proportsional ravishda joylashtiriladi. Har bir buyum oddiy geometrik shakllar (shar, silindr, prizma) asosida tahlil qilinib, ularning perspektiv qisqarishi va konstruktiv tuzilishi qalamda aniq quriladi. Bunda chiziqlar o‘ta aniq, lekin qog‘oz sirtini shikastlamaydigan darajada och tusda bo‘lishi talab etiladi. Ushbu jarayonda kompozitsion muvozanatni saqlash uchun ashyolar formatimiznig chetlariga juda yaqin kelib qolmasligi va chekka qismlarda bo‘sh maydonga ega bo‘lishi muhimdir.Har bir buyumning konstruktiv asosi chizilayotganda, ularning o‘zaro fazoviy bog‘liqligi va stol tekisligida turgan asosi (iz izi) ko‘rinmas chiziqlar orqali tekshirib boriladi. Perspektiva qoidalariga ko‘ra, ko‘z sathidan pastda joylashgan ellips va gorizontal yuzalar kengroq ko‘rinishi inobatga olinib, choynak

dastasining egilishi va likopchaning chuqurligi matematik aniqlikda shakllantiriladi. Qalamtasvirning bu bosqichida ortiqcha shtrixlardan qochib, faqatgina ashyolarning shakliy tuzilishini yaratishga e’tibor qaratiladi, bu esa keyingi rangtasvir bosqichida bo‘yoqlarning qog‘ozga toza va shaffof tushishini ta’minlaydi.



105. Rasm. Birinchi bosqich

Bu bosqichda akvarelning shaffoflik xususiyatidan foydalanib, ranglar munosabatining poydevori ya’ni birinchi qatlami ishlanadi. Ishni fondagi ko‘k matoni keng mo‘yqalamda nam holatda alla-prima bo‘yashdan boshlaymiz. Bu bosqichda barcha detallarga berilmaslik, asosan rang va havo muhitini yaratish muhimdir. Choynakning lokal ko‘k rangi, mevalarning sarg‘ish-yashil tuslari va kapitelning yorug‘ tomonlaridagi o‘ta och sarg‘ish oxra ranglar umumiy holatda beriladi. Nur to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushgan bliklar bo‘yalmasdan, mutlaq oq qog‘ozni o’zi qoldiriladi. Bu jarayon umumiy ish hajmining taxminan 35 foizini tashkil etib, ranglar uyg‘unligiga zamin yaratadi.

Mazkur jarayonni kengaytirgan holda shuni ta’kidlash lozimki, rang qatlamlarini yotqizishda och rangdan to‘q rangga tamoyiliga

amal qilinadi. Fondagi ko‘k matoning tuslari predmetlar bilan kontast hosil qilishi uchun ularning chetlariga yaqinlashganda rang to‘yinganligi biroz oshiriladi. Choynakning ko‘k rangi va mevalarning iliq tuslari o‘rtasidagi koloristik muvozanatni ushlash uchun ranglar palitrada aralashtirib tayyorlab ko‘riladi. Akvarelning o‘z-o‘zidan oqib tushish va aralashish xususiyati orqali predmetlar va fon o‘rtasida yumshoq o‘tishlar hosil qilinadi, bu esa fazoviy chuqurlik havo perspektivasini kuchaytiradi. Kapitelning gipsli fakturasini ifodalashda oq qog‘ozning yuzasi yorug‘lik manbayi sifatida xizmat qiladi, shuning uchun bu qismda ranglar o‘ta shaffof va havodor bo‘lishi talab etiladi. 35 foizlik ish hajmi tugallangach, asar umumiy ranglar yahlitligi ko‘rinishida umumiy tahlil qilinadi va keyingi detallarni aniqlashtirish bosqichiga tayyorlanadi.



106. Rasm. Ikkinchi bosqich

Uchinchi bosqichda buyumlarning hajmini ko‘rsatish uchun yorug‘-soya qonuniyatlariga - nur, yarim soya, xususiy soya va reflex tayanib chiziladi. Kapitelning murakkab burmalari va volyutalari

qatlamli - lessirovka usulda, ya’ni rangni ustma-ust yupqa qatlamlarda berish orqali tasvirlanadi. Bu bosqichda shaklni modellashtirish o‘ta muhim hisoblanadi. Kapitelning soya qismida ko‘k fondan qaytayotgan nur akslari (reflekslar) ishonarli ko‘rsatilib, buyum muhit bilan birlashtiriladi. Oq matoning burmalaridagi plastik ko‘rinish sovuq havorang va binafsha tuslar yordamida shakllantiriladi. Mevalarning hajmi sarg‘ishdan yashil-jigarrangga o‘tuvchi tonal o‘zgarishlar bilan bo‘rttiriladi.

Ushbu bosqichda tonal gradatsiyani chuqurlashtirish maqsadida lessirovka texnikasidan foydalanish ashyolarning moddiy xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Kapitelning oq gipsli yuzasida yarim soyalar havodor kulrang-ko‘kimtir tuslarda ishlanishi, uning silliq va qattiq fakturasini ko’rsatadi. Nur va soyaning kesishgan chegarasida yuzaga keladigan o‘tishlar ashyoning plastik shaklini modellashtirishga imkon beradi.

Reflekslar faqatgina soya ichidagi nur aksi bo‘lib qolmay, balki ranglar muvozanatini (ko‘k fonning ashyodagi in’ikosi) ta’minlovchi asosiy elementdir. Choynakning yumaloq shaklini modellashtirishda uning xususiy soyasini to‘q ultramarin va binafsha aralashmasida berish, markaziy blik atrofidagi yorug‘lik bilan kontrast hosil qiladi. Mevalardagi tonal o‘zgarishlar — sarg‘ish nurdan yashil-zaytun yarim soyaga va jigarrang xususiy soyaga o‘tishi — ularning hajmdor va aniq ko‘rinishini ta’minlaydi. Predmetlarni ishlashda har bir qatlamni qurishini kutish, keyingisi qatlamni ranglarning kirlashib ketishidan saqlaydi va akvarelning shaffof jozibasini oshiradi.



107. Rasm. Uchinchi bosqich

To’rtinchi bosqichda ingichka mo‘yqalam yordamida tasvirga yakuniy grafik aniqlik kiritiladi. Kapitelning naqshlari, choynak dastasining konturlari, likopcha qirralari va meva bandlari kabi mayda detallar aniqlashtiriladi. Buyumlar stol ustida mahkam turishi uchun ularning ostidagi eng to‘q tushuvchi soyalar aniq chiziladi. Yakunida tasvirga uzoqdan nazar tashlanib, haddan tashqari yorqin bo‘lib qolgan yoki kompozitsiyadan ajralib turgan bo‘laklar yumshatiladi. Barcha ranglar, chiziqlar va teksturalar o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit akademik kompozitsiya va professional dekorativ ko‘rinish hosil qilinadi.

Ushbu yakuniy bosqichda kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash uchun detallar o‘rtasidagi iyerarxiyaga e’tibor qaratiladi. Ionik kapitelning murakkab o‘ymakorlik naqshlari ingichka mo‘yqalamning uchi bilan o‘ta aniqlikda, lekin haddan tashqari bo‘rttirmasdan ishlanadi. Choynakning silliq yuzasidagi akslanishlar va reflekslar fon bilan uyg‘unlashtirilib, uning keramika yoki chinni bildiriladi.



108. Rasm. To’rtinchi bosqich

Tushuvchi soyalar predmetlarning stol tekisligi bilan tutashgan nuqtasida eng to‘q va aniq bo‘lib, predmetdan uzoqlashgan sari yumshab va yoyilib boradi, bu esa fazoviy chuqurlikni yanada kuchaytiradi. Drapirovkaning burmalari va stol qirrasi kabi chiziqli elementlar umumiy ritmni ushlashga xizmat qiladi. Tasvirga “havo” berish uchun uzoq plandagi detallar biroz xiralashtiriladi bu esa tomoshabin diqqatini asosiy markazga yo‘naltiradi. Yakuniy ko‘rikda barcha ranglar kolorit jihatidan birlashtirilib, natyurmort tugallangan professional asar darajasiga yetkaziladi.

Nazorat savollari

1. Natyurmortning birinchi bosqichida ionik kapitelning turg‘unligini ta’minlash uchun qanday chiziqdan foydalaniladi?
2. Akvarelda alla-prima usuli deganda nimani tushunasiz va u natyurmortning qaysi bosqichida qo‘llaniladi?
3. Natyurmortning ikkinchi bosqichida ish hajmining necha foizi bajarilishi kerak?

4. Buyumning soya qismida fondan qaytayotgan nur aksi san’atda nima deb ataladi?
5. Lessirovka texnikasi nima va u kapitelning shaklini modellashtirishda qanday yordam beradi?
6. Buyumlar stol ustida mahkam turishi uchun natyurmortning yakunida qaysi soyalarni to‘g‘ri urish kerak?

MUSTAQIL TA’LIM











110. Rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar

Rangtasvir fanidan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash uchun test

№	Test topshirig‘i	“A” javob varianti	“B” javob varianti	“C” javob varianti
	Akvarel bo‘yoqlardan qaysi san’at turida qo‘llaniladi?	yog‘och o‘ymakorligida	Qalamtasvirda	Rangtasvirda
	Asosiy ranglar qaysi qatorda to‘liq berilgan?	Qizil, zangori, sariq	Sariq, oq, qora	Zarg‘aldoq, ko‘k, jigarrang
	Palitra nima uchun kerak?	Chizmachilik asboblariga	mo‘yqalamni tozalash uchun	Ranglarni aralashtirish uchun
	Axromatik ranglar qaysi qatorda?	Oq, qora, kulrang	Jigarrang, sabza, havorang	Barikaram, zarg‘aldoq, binafsha
	Natyurmort qo‘yilmasining ta’rifi qaysi qatorda to‘g‘ri ifodalangan?	Tasviriy san’at haqida suhbat	To‘g‘ri to‘rtburchak ichida naqsh ishlash	Narsaning o‘ziga qarab tasvirlash
	Guash bo‘yog‘i asosan san’atning qaysi turida qo‘llaniladi?	Chizmachilikda	Naqqoshlikda	Grafikada
	Xromatik ranglar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Qizil, sariq, yashil	Qora, sariq, oq	Jigarrang, oqish, kulrang
	Tus jihatdan to‘q ranglar qaysi qatorda?	Sariq, oq, havorang	Kulrang, qizil, zarg‘aldoq	Jigarrang, zangori, binafsha
	Hosila ranglar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?	Sariq, jigarrang, havorang	Zarg‘aldoq, yashil, binafsha	Qizil, sariq, zangori
	Qizil va zangori bo‘yoqlar aralashmasidan qanday rang hosil bo‘ladi?	Binafsharang	Qora	Yashil

	“Tong”, “Onalik” asarining muallifi kim?	R. Ahmedov	A. Abdullaev	B. Jalolov
	Yashil rang qaysi bo‘yoqlar aralashmasidan hosil bo‘ladi?	Ko‘k va sariq	Ko‘k va binafsha	Qizil va sariq
	“Issiqko‘lda oqshom” asarining muallifi kim?	O‘. Tansiqboev	R. Ahmedov	G. Abdurahmanov
	Xiva naqqoshlik maktabida asosan qanday rang koloritidan foydalaniladi?	Havorang koloritda	Pushti koloritda	Qizil koloritda
	Mashhur “Mona Liza” asarining muallifi kim?	Leonardo da Vinchi	Titsian	Mikelandjelo
	Tasviriy san’at janrlari qaysi qatorda?	Natyurmort, manzara, portret	Haykaltaroshlik, me’morchilik, kashtachilik	Grafika, ofort, ksilografiya
	Konstruktiv rasm deganda nimani tushunasiz?	Sinch usulida tasvirlash	Ranglavha bajarish	Mo‘yqalamda rasm ishlash
	Marina janriga oid asar qaysi qatorda?	To‘qqizinchi val	Fonton bo‘yida	Pompeyning so‘nggi kuni
	Kubizm oqimida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda?	P.Pikasso, Pol Sezann	E.Mone, K.Mone	S.Dali, Ya.Salpinkidi
	Triptix nima?	Uch rassom tomonidan yaratilgan san’at asari	Uch haykaltarosh tomonidan bajarilgan san’at asari	Bir mavzudagi uch bo‘lakdan iborat san’at asari
	Taniqli rus manzarachi rassomlari qaysi qatorda?	I.Shishkin, I.Savrasov	Serov, Petrov-Vodkin	Kuindji, Perov
	Impressionizm oqimi qanday oqim?	Borliqni inkor etish	Borliqni asl holidek	Borliqni tasavvurdan

			tasvirlash	ishlash
	“Choyga” asarining muallifi kim?	Z.Inog‘omov	A. Mo‘minov	K. Eminov
	Manerizm oqimi qanday oqim?	Tabiatdan aynan nusxa ko‘chirish	Tabiatdan uzoqlashish, qonun-qoidalarga amal qilmaslik	Borliqni xaqqoniy tasvirlash
	Dastgoxli rangtasvir nima?	Jurnalda tasvirlangan rasm	Kitobga ishlangan rasm	Molbertda ishlangan surat
	Portret janrida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda?	M. Nabiev, A. Abdullaev	N. Kashina, A. Boymatov	A. Mo‘minov, G. Abduraxmanov
	Ranglavha nima?	Qisqa muddatda naturadan ishlangan tasvir	Xayoldan ishlangan asar	Uzoq vaqtda ishlangan asar
	Kubizm oqimi qanday oqim?	Naturani o‘ziga qarab xaqqoniy tasvirlash	Borliqni soddalashtirib geometrik shakllarda tasvirlash	Naturani o‘ziga qarab tasvirlash
	Lojuvard rang qanday rang?	Och yashil	To‘q ko‘k	To‘q jigarrang
	Interer nima?	Binoning ichki ko‘rinishi	Binoni tepadagi ko‘rinishi	Binoning tashqi ko‘rinishi
	Sangina, pastel, sous kabi badiiy materiallar asosan tasviriy san’atning qaysi turida qo‘llaniladi?	Rangtasvir, grafika	Haykaltaroshlik, naqqoshlik	Me’morchilik, kandakorlik
	Tasviriy san’atda simmetriya nima?	Buyum shaklining	Buyumlarning bir-biriga	Buyumlarning bir-biriga

		mutanosibligi	o‘xshashligi	o‘xshamasligi
	Sovuq ranglar qaysi qatorda?	Yashil, havorang, zangori	Qora, jigarrang, sariq	Qizil, sariq, oq
	Nilobi rangi qanday rang?	Zarg‘aldoq	Qizil	Havorang
	Samarqanddagi “Registon” ansambli tarkibidagi madrasalar nomi qaysi qatorda?	Sherdor, Tillaqori, Ulug‘bek	Mir Arab, Abdullazizxon	Abdullaxon, Abulqosim
	Kamalakdagi ranglar nechta?	9 ta	5 ta	7 ta
	Pistoqi rang qanday rang?	Yashil	Sariq	Zangori
	Zarg‘aldoq rang qaysi bo‘yoqlar aralashmasidan hosil bo‘ladi?	Sariq va qizil	Sariq va zangori	Yashil va jigarrang
	O‘rol Tansiqboyevning mashhur asari qaysi?	Mening qo‘shig‘im	Issiqko‘lda oqshom	Uzbekistonda mart
	Jigarrang rang qaysi bo‘yoqlardan hosil bo‘ladi?	Sariq va ko‘k	Qizil va qora	Yashil va sariq
	Klassitsizm oqimi qanday oqim?	Antik davrdagi klassik san’at	Tabiatdagi voqelikdan voz kechish	Miniatyura asarlari
	David haykalining muallifi kim?	Titsian	Mikelandjelo	Leonardo da Vinchi
	“Toj mahal” me’morchilik obidasi qaysi shaharda?	Astrobod	Tabriz	Agra
	Etyud iborasining ta’rifi qaysi qatorda?	Qisqa muddatda bo‘yoqlarda bajarilgan ish	Tushda bajarilgan ish	Uzoq muddatda qalamda bajarilgan ish

	Kontrast ranglar deganda nimani tushunasiz?	Ranglarning o‘zaro qarama-qarshiligi	Bir-biriga yaqin bo‘lgan ranglar	Sovuq ranglar
	Beruniy portretining muallifi kim?	A. Mirzayev M	R. Axmedov	. Nabiyev
	Assimetriya iborasi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?	Buyum bo‘laklarining bir-biriga o‘xshamasligi	Rangtasvir ishlash	Mutanosiblik, buyum bo‘laklarining bir-biriga mos kelishi
	Ufq chizig‘i deganda nimani tushunasiz?	Ko‘z balandligida o‘tgan tekislik	Xajmlarni tasvirlash	Ko‘z balandligidan yuqori o‘tadigan tekislik
	O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi muallifi kim?	M.Kagarov	A.Mamajonov	K. Basharov
	Buyumlarni tasvirlashda ufq chizig‘i nechta holatda bo‘lishi mumkin?	2 ta	1 ta	4 ta
	Kolorit nima?	Mujassam ranglar majmuasi	Ranglarning ketma-ketligi	Asardagi ranglarning ziddiyati
	Dunyoga mashhur “Ermitaj” muzeyi qaysi shaharda joylashgan?	Nyu-York	Moskva	Sankt-Peterburg
	Guash bo‘yog‘i asosan san’atning qaysi turida qo‘llaniladi ?	Grafikada	Chizmachilikda	Naqqoshlikda
	Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi?	Buyumning joylashgan joyi	Buyumlar to‘plami	Buyumning perspektivada ko‘rinishi
	Kontur nima?	Buyum tarixi	Buyum yorug‘-soyasi	Grafika uslubi

	Blik deb nimaga aytiladi?	Buyumga tik tushuvchi nur	Buyumdagi yarim soya	Buyumdagi refleks
	Animalist rassomlar kimlar?	Hayvonlarni tasvirlovchi	Manzara tasvirlovchi	Natyurmort tasvirlovchi
	Garmoniya iborasi nimani bildiradi?	Badiiy asar qismlarining mutanosibligi	Asar kompozitsiyasidagi o‘xshashlik	Asar kompozitsiyasi
	Jahonga mashhur Luvr muzeyi qaysi mamlakatda joylashgan?	Gollandiyada	Parijda	Germaniyada
	Romantizm oqimi qanday oqim?	Rassomning ko‘proq o‘z ichki kechinmasini talqin etishi	Xayoldan ishlash	Rassomning voqelikni haqqoniy ishlashi
	Mahobatli asar yaratuvchi rassomlardan kimlarni bilasiz?	Sh. Abdurashidov	Ch. Axmarov	R. Ahmedov
	XX asr boshlaridagi O‘zbekiston rassomlari kimlar?	O‘.Tansiqboev, Z.Inog‘omov, A.Abdullaev, M.Nabiev	A. Mirzaev, B.Maxkamov, Ya.Salpinkidi, N.Usmonov	D. Boqiev, I. Jabborov, O.Qozoqov, A.Mo‘minov
	Leonardo da Vinchi nimalarga ahamiyat bergan?	Nisbatlar ta’limoti, perspektiva, anatomiya	Ilohiy farishtalar to‘plamiga	Inson gavdasining go‘zalligiga
	A.Temurning dastlabki portretini kim yaratgan?	Xalil Mirzo Shoxrux	Ma’sud ibn Qo‘stoniy	Sharofiddin Ali Yazdiy
	Tasviriy san’atning turlarini aniqlang.	Haykaltaroshlik, me’morchilik, rangtasvir, grafika	Balet, kino, grafika, tsirk	Kino, rangtasvir, teatr

	Eksterer nima?	Binoning tashqi koʻrinishi	Binoni tepadagi koʻrinishi	Binoning ichki koʻrinishi
	Naqshlarni ranglashda qaysi boʻyoq turidan koʻproq foydalaniladi?	Akvarel	Guash	Moyboʻyoq, tempera
	Akvarel texnikasida ishlovchi usta rassomlar kimlar?	M.Sodiqov, I.Vohidov, A.Boybekov, D.Mirsaliev	B.Jalolov, O.Qozoqov, Gʻ.Abduraxmonov	M.Nabiev, Akmal Nur, M.Yoʻldoshev, M.Nuriddinov
	Guash texnikasi, texnologiyasida vazifalar ishlash uchun qanday ashyo va jihozlar zarur boʻladi?	Guashboʻyoqlari, karton qogʻoz, suv moʻyqalam, qalam	Akvarel, oʻchirgʻich, qalam, moʻyqalam	Molbert, mato, oʻchirgʻich, qogʻoz, qalam
	Suvboʻyoq texnikasida tasvir ishlashda qanday ashyolar, ish qurollari zarur?	Qogʻoz, akvarel, moʻyqalam, suv	Akvarel karton, oʻchirgʻich	Moʻyqalam, suv, skipidar, akvarel boʻyoq
	Moʻyqalamni qanday, qaysi tarafga qarab xarakatlantirish kerak?	Xoxlagan tarafga, erkin	Yuqoridan pastga, chapdan oʻngga	Pastdan yuqoriga, oʻngdan chapga
	Akvarel texnikasida ishlash uchun eng sifatli qogʻoz qaysi?	Karton	Vatman (Goznak)	Vatman (Tarshon)
	Moʻyqalamni qanday oʻrab saqlanadi?	Qogʻozga (gazeta)	Matoga	Yumshoq lattaga
	Akvarel ishlarining asosiy sifati nimalarda namoyon boʻladi?	Nozik, nafisligida	Boʻyoqning quyuqligida	Chizgining aniqligida
	Akvarel boʻyogʻi nimasi bilan farqlanadi?	Suv bilan ishlash texnologiyasiga koʻra	Quyuq, qogʻozga yaxshi yopishishi uchun	Oʻrtacha, tiniq-nozik boʻlishi uchun
	“Grizayl” nima?	Bitta rang	Qora boʻyoq	Qora

		bilan rangtasvir ishlash texnikasi;	bilan chizmatasvir ishlash;	bo‘yoqdagi rangtasvir
	“Grizayl” texnikasida qanday sathga ishlagan ma’qul?	Faqat och asosga ma’qul;	Och-to‘q, to‘qroq hamda to‘q tuslangan asosga;	To‘qroq tuslangan sath-asosga
	“Grizayl” qalamtasvir soxasiga kiradimi yoki rangtasvirgami?	Rangtasvirga	Ikkala sohaga taalluqli;	Qalamtasvirga;
	“Grizayl” texnikasida nima uchun ishlanadi?	Och-to‘qlik, tuslarini yaxshi ajratishni mo‘yqalamda ishlashning dastlabki sabog‘ini;	Maxoratli rasm chizishni;	Rangtasvir bilimini;
	Akvarel bo‘yog‘i qurigach, ochlashadimi yoki to‘qlashadimi?	O‘zgarmaydi	Ochlashadi	To‘qlashadi
	Moybo‘yoq tasviriy san’at faoliyatida nechanchi asrdan boshlab qo‘llanilgan?	XVII asrdan	XVI asrdan	XV asrdan
